



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA



НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

“YURIST AXBOROTNOMASI”

huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

№4 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-4>

Bosh muharrir:

**KANYAZOV YESEMURAT
SULTAMURATOVICH**

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktori,
yuridik fanlar nomzodi

Bosh muharrir o'rinbosari:

**MAXMUDOV FIRUZ
BAXTIYOR O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktorining
ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo'yicha
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

**XURSANOV RUSTAM
XOLMURATOVICH**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktorining
o'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari,
yuridik fanlari doktori (DSc), dotsent

**BAYMOLDINA ZAURESH
XAMITOVNA**

Qozog'iston Respublikasi
Oliy Sudi Akademiyasi rektori,
yuridik fanlari nomzodi

**ZDROK OKSANA
NIKOLAYEVNA**

Belorus davlat universiteti sudyalari hamda sud,
prokuratura va adliya muassasalari xodimlarini
qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish
instituti direktori

OQYULOV OMONBAY

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, Professor,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

**MAMASIDDIQOV MUZAFFARJON
MUSAJONOVICH**

Yuridik fanlar doktori, professor

TASHKULOV DJURABAY

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Davlat va huquq instituti tarixiy -nazariy,
davlat-huquqiy va konstitutsiyaviy huquqiy
fanlar bo'limi boshlig'i, yuridik fanlar doktori,
professor

SALAYEV NODIRBEK SAPARBAYEVICH

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

RAXIMOV DANİYAR BAXTIYAROVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc)

**MARIPOVA SEVARXON
ARIBJANOVNA**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti professori v.b., dotsent,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SHAKUROV RAFIK RAVILYEVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**RAXMONOV ZAFARJON
ZAYNIDDINOVICH**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Pedagoglar markazi dotsenti v.b.,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**G'AFUROVA NOZIMAXON
ELDAROVNA**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Pedagoglar markazi
professor v.b., dotsent, yuridik fanlar doktori (DSc)

Mas'ul kotib:

YUNUSOVA NIGORA KAMILOVNA

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti nashrlari katta mutaxassisi

Tahririyat bilan bog'lanish:

100072, Toshkent shahri, Mirobod tumani,

Hamal ko'chasi, 29-v uy

Web: yuristjournal.uz

E-mail: yuristjournal@adliya.uz

Telefon: (+99871) 234-55-92

Общественно-правовой и научно-практический журнал “ВЕСТНИК ЮРИСТА”

№4 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-4>

Главный редактор:

**КАНЬЯЗОВ ЕСЕМУРАТ
СУЛТАМУРАТОВИЧ**

Директор института переподготовки и
повышения квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции Республики
Узбекистан, кандидат юридических наук

Заместитель главного редактора:

МАХМУДОВ ФИРУЗ

Заместитель директора по научной работе и
международному сотрудничеству Института
переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан, доктор юридических
наук (DSc), доцент

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ

Первый заместитель директора по учебной
работе Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров,
доктор юридических наук (DSc), доцент

БАЙМОЛДИНА ЗАУРЕШ ХАМИТОВНА

Ректор Академии правосудия при Верховном
Суде Республики Казахстан,
кандидат юридических наук

ЗДРОК ОКСАНА НИКОЛАЕВНА

Директор Института переподготовки и повышения
квалификации судей, работников прокуратуры,
судов и учреждений юстиции Белорусского
государственного университета

ОКЮЛОВ Омонбай

Профессор Ташкентского государственного
юридического университета, д.ю.н., профессор,
заслуженный юрист Республики Узбекистан

МАМАСИДДИКОВ МУЗАФФАРЖОН МУСАЖОНОВИЧ

Доктор юридических наук, профессор

ТАШКУЛОВ ДЖУРАБАЙ

Заведующий отдела историко теоретических,
государственно-правовых и конституционно
правовых наук Института государства и права
Академии Наук Республики Узбекистан, доктор
юридических наук, профессор

НОДИРБЕК САЛАЕВ

Профессор Ташкентского государственного
юридического университета, доктор юридических наук

РАХИМОВ ДАНИЯР БАХТИЯРОВИЧ

И. о. профессор Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров,
доктор юридических наук (DSc)

МАРИПОВА СЕВАРХОН АРИБЖАНОВНА

И. о. профессор Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров, доктор философии
по юридическим наукам (PhD), доцент

ШАКУРОВ РАФИК РАВИЛЕВИЧ

Доцент Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
кандидат юридических наук

РАХМОНОВ ЗАФАРЖОН ЗАЙНИДДИНОВИЧ

И.О. доцента Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
доктор философии по юридическим наукам

ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА

И.О. профессора Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров при Министерстве
юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических
наук (DSc)

Ответственный секретарь:

ЮНУСОВА НИГОРА КАМИЛОВНА

Старший специалист по издательской деятельности
Института переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров

Контакт редакции журнала:

100072, город Ташкент, Мирабадский район,
улица Хамал, 29-в.
Web: yuristjournal.uz
E-mail: yuristjournal@adliya.uz
Телефон: (+99871) 234-55-92

Public, legal and scientific-practical journal of
“LAWYER HERALD”

№4 (2025)

DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-4>

Chief Editor:

YESEMURAT KANYAZOV

Director of the Training Institute for
Lawyers under the ministry
of Justice of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences

Deputy Chief Editor:

FIRUZ MAKHMUDOV

Deputy Director for Scientific Affairs and
International Cooperation at the Training Institute
for Lawyers under the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law (DSc), Associate Professor

EDITORIAL BOARD:

RUSTAM KHURSANOV

First Deputy Director for Academic
Affairs at the Institute for Training
Institute for Lawyers

BAYMOLDINA ZAURESH

Rector of the Academy of Justice
at the Supreme Court of the Republic
of Kazakhstan, Candidate of Legal Sciences

OKSANA ZDROK

Director of the Institute for Retraining and
Qualification Upgrading of Judges,
Prosecutors and Legal professionals
at the Belarusian State University

OMONBAY OKYULOV

Professor of the Tashkent State University
of Law, professor, Honored Lawyer
of the Republic of Uzbekistan

MUZAFFARJON MAMASIDDIKOV

Doctor of Law Sciences, Professor

DJURABAY TASHKULOV

Head of the department of Historical-Theoretical,
State-Legal and Constitutional-Legal Sciences
of the Institute of State and Law of the Academy
of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law, Professor

NODIRBEK SALAEV

Professor of the Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

DANIYAR RAKHIMOV

Professor of the Training Institute for Lawyers,
Doctor of Law (DSc)

SEVARKHON MARIPOVA

Professor of the Training Institute for Lawyers,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law,
Associate Professor

RAFIK SHAKUROV

Associate Professor at the Training Institute
for Lawyers, Candidate of Legal Sciences

ZAFARJON RAKHMANOV

Associate Professor at the Training Institute for
Lawyers, , Doctor of Philosophy in Law (PhD)

GAFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA

Professor of the Training Institute for Lawyers
under the Ministry of Justice of the Republic of
Uzbekistan, Doctor of Law (DSc)

Executive Editor:

NIGORA YUNUSOVA

Senior Publications Specialist
Training Institute for Lawyers

Contact the Editorial Office:

100072, Tashkent city, Mirabad district,
Hamal street, 29-v
Web: yuristjournal.uz
E-mail: yuristjournal@adliya.uz
Telefon: (+99871) 234-55-92

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON, 6-JILD

ВЕСТИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 6

LAWYER HERALD

VOLUME 6, ISSUE 4



Toshkent — 2025

MUNDARIJA

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

HAZAROV Shavkat Nazarovich

ЎЗБЕКИСТОНДА НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ЛОЙИҲАЛАРИНИНГ
ЖАМОАТЧИЛИК ЭКСПЕРТИЗАСИ: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ 8

KONSTITUSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA VOJXONA HUQUQI

MAXMUDOV Firuz Baxtiyor o'g'li

MANFAATLAR TO'QNASHUVINING OLDINI OLISH BO'YICHA ODOB-AXLOQ VA ETIKA
STANDARTLARIGA OID ZAMONAVIY KONSEPSIYA VA MODELLAR: BUYUK BRITANIYA TAJRIBASI MISOLIDA 17

RAHMONOV Zaфаржон Зайниддинович

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ
МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 26

TURDIYEV Bobir Sobirovich

SHOVQIN VA INSONNING QULAY ATROF-MUHITGA BO'LGAN HUQUQI 32

ALIYEV Ilhomjon Murod o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI FAOLIYATIDA
SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH 42

FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

XURSANOV Rustam Xolmurotovich

ELEKTRON TIJORATDA TOVARLARNI QAYTARIB OLISH VA ALMASHTIRISH QOIDALARI 52

RAHIMOV Dониёр Бахтиёрович

ЮРИДИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ШАРТНОМАВИЙ МАЖБУРИЯТЛАР
БАЖАРИЛИШИНИ ТАЪМИНЛАШ 59

MAMANAZAROV Sardor Shuxratovich

BIOTEKNOLOGIYA SOHASIDAGI MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY QOIDALARI 66

YOQUBJONOV Ma'rufjon Odiljon o'g'li

O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKTNI TARTIBGA SOLUVCHI
HUQUQIY NORMALAR VA KELGUSIDAGI MUHIM QADAMLAR 79

AMINOV Dalerjon Alisher-o'g'li

HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASIDA KLASTER TIZIMINING O'RNI 87

SATTAPOV Мироншоҳ Хусенович

КОРПОРАТИВ ШАРТНОМАНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ АНИҚЛАШ МАСАЛАЛАРИ 94

**FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA**

МАРИПОВА Севархон Арибжановна

АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ:

СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА МЕДИАЦИИ 108

SAIDOV Maksudbek Norboevich

SOME ISSUES OF APPLICATION OF THE METHOD OF RECOGNITION OF RIGHTS IN PROTECTION
OF CORPORATE RIGHTS (ON THE EXAMPLE OF A LIMITED LIABILITY COMPANY)

115

ABDUG'AFFOROV Jasur To'lqin o'g'li

ЎТМОИЙ ШЕРИКЛИКДА ТАРАФЛАР ВАКИЛЛИГИ ВА УНДА ДАВЛАТ ИШТИРОКИНИНГ АНАМИЯТИ 121
XALQARO HUQUQ VA INSON HUQUQLARI

ГАФУРОВА Нозимахон Эльдаровна

АНАЛИЗ ПРАКТИКИ РЕГИОНАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА ЗДОРОВЬЕ
НА ПРИМЕРЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА

129

ГУЛИМОВ Аманлык Базарбаевич, Кытайбекова Малика

ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ПРАВА РЕБЁНКА НА БЕЗОПАСНОСТЬ В ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ 135

YURIDIK XIZMAT, ADVOKATURA, NOTARIAT

ХОЖИМУНАМЕДОВА Dilbar Rixsiboevna

ADVOKATNING KASBIY FAOLIYATIDA BA'ZI PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLARNI KONSTRUKTIV HAL QILISH 147

HUQUQIY AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA

ШАРИПОВ Санжар Собирович

ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ КАДРЛАРИГА ҚЎЙИЛАЁТГАН
ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБЛАР ВА УЛАРНИ ХИЗМАТГА ҚАБУЛ ҚИЛИШ БЎЙИЧА

БУЮК БРИТАНИЯ ПОЛИЦИЯСИ ТАЖРИБАСИНИНГ ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИ 154

АБДУРАХМАТОВА Камола Муроджон қизи

ҚУРИЛИШНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШГА

ОИД ХАЛҚАРО ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ВА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ҚОНУНЧИЛИГИ ТАҲЛИЛИ 162

НАЗАРОВ Шавкат НазаровичТошкент давлат юридик университети кафедра мудир, юридик фанлар номзоди, доцент
E-mail: sh.nazarov@tsul.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ЛОЙИҲАЛАРИНИНГ ЖАМОАТЧИЛИК ЭКСПЕРТИЗАСИ: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): Назаров Ш.Н. Ўзбекистонда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг жамоатчилик экспертизаси: замонавий ёндашувлар ва ривожлантириш йўллари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) Б. 8–16.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

АННОТАЦИЯ

Мақолада Ўзбекистонда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик экспертизаси механизмларини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари тизимли равишда кўриб чиқилган. Тадқиқотда АҚШнинг “Notice and Comment” тизими, Европа Иттифоқининг иштирокчи мулоқот модели, Жанубий Кореянинг “E-People” портали ва Япониянинг тартибга солишни олдиндан баҳолаш механизми каби илғор халқаро тажрибалар чуқур таҳлил қилинган. Ўзбекистондаги “Regulation.gov.uz” порталининг ҳозирги фаолияти, унинг имкониятлари ва чекловлари кўрсатилиб, такомиллаштириш йўллари белгиланган. Жамоатчилик экспертизасининг назарий-методологик асослари, халқаро стандартлар ва миллий қонунчиликдаги бўшлиқлар комплекс равишда ўрганилган. Муаллиф жамоатчилик экспертизаси самарадорлигини ошириш учун концептуал модел яратиш, қонунчилик базасини такомиллаштириш, электрон платформаларни ривожлантириш бўйича илмий асосланган аниқ таклифлар берган. Тадқиқот натижасида норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар сифатини назорат қилишнинг самарали механизмлари ишлаб чиқилган ва фуқаролик жамияти институтларининг қонун ижодкорлигидаги фаол иштирокини таъминлаш йўллари аниқлаштирилган. Илмий тадқиқот жамоатчилик назоратини кучайтириш ва демократик бошқарув тамойилларини амалга ошириш соҳасига муҳим ҳисса қўшади.

Калит сўзлар: жамоатчилик экспертизаси, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, қонун ижодкорлиги, жамоатчилик назорати, фуқаролик жамияти, халқаро тажриба, ҳуқуқий тартибга солиш, жамоатчилик иштироки, электрон платформа, қонунчиликни такомиллаштириш.

НАЗАРОВ Шавкат НазаровичЗаведующий кафедрой Ташкентского государственного юридического университета,
кандидат юридических наук, доцент
E-mail: sh.nazarov@tsul.uz

ОБЩЕСТВЕННАЯ ЭКСПЕРТИЗА ПРОЕКТОВ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПУТИ РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье системно рассматриваются актуальные вопросы совершенствования механизмов общественной экспертизы проектов нормативно-правовых актов в Узбекистане. В исследовании глубоко проанализирован передовой международный опыт, включая американскую систему «Notice and Comment», модель партисипативного взаимодействия Европейского союза, портал «E-People» Южной Кореи и механизм предварительной оценки регулирования Японии. Показана текущая деятельность

портала «Regulation.gov.uz», его возможности и ограничения, определены пути совершенствования. Комплексно изучены теоретико-методологические основы общественной экспертизы, международные стандарты и пробелы в национальном законодательстве. Автор предложил научно обоснованные конкретные рекомендации по созданию концептуальной модели повышения эффективности общественной экспертизы, совершенствованию законодательной базы и развитию электронных платформ. В результате исследования разработаны эффективные механизмы контроля качества нормативно-правовых актов и определены пути обеспечения активного участия институтов гражданского общества в законотворческом процессе. Научное исследование вносит значительный вклад в укрепление общественного контроля и реализацию принципов демократического управления, предлагая практические решения для повышения прозрачности и подотчетности государственных органов власти.

Ключевые слова: общественная экспертиза, нормативно-правовые акты, законотворчество, общественный контроль, гражданское общество, международный опыт, правовое регулирование, общественное участие, электронная платформа, совершенствование законодательства

SHAVKAT Nazarov

Head of Department, Tashkent State University of Law, PhD in Law,

Associate Professor

E-mail: sh.nazarov@tsul.uz

PUBLIC EXPERTISE OF DRAFT NORMATIVE-LEGAL DOCUMENTS IN UZBEKISTAN: MODERN APPROACHES AND DEVELOPMENT PATHWAYS

ANNOTATION

The article systematically examines pressing issues of improving mechanisms for public expertise of draft legal acts in Uzbekistan. The research provides in-depth analysis of advanced international practices, including the American “Notice and Comment” system, the European Union’s participatory engagement model, South Korea’s “E-People” portal, and Japan’s regulatory impact assessment mechanism. The current activities of the “Regulation.gov.uz” portal, its capabilities and limitations are demonstrated, with improvement pathways identified. Theoretical and methodological foundations of public expertise, international standards, and gaps in national legislation are comprehensively studied. The author proposed scientifically grounded specific recommendations for creating a conceptual model to enhance public expertise effectiveness, improving the legislative framework, and developing electronic platforms. The research results include development of effective mechanisms for controlling the quality of legal acts and identification of ways to ensure active participation of civil society institutions in the legislative process. The scientific study makes a significant contribution to strengthening public oversight and implementing democratic governance principles by offering practical solutions for enhancing transparency and accountability of government authorities. The research provides comprehensive theoretical framework and practical guidelines for establishing robust public participation mechanisms in regulatory processes, ultimately contributing to better governance and stronger rule of law in Uzbekistan through enhanced citizen engagement and institutional reforms.

Keywords: public expertise, legal acts, lawmaking, public control, civil society, international experience, legal regulation, public participation, electronic platform, legislation improvement.

Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD) томонидан 2021 йилда эълон қилинган “Қонун ижодкорлигида жамоатчилик иштироки” номли ҳисоботда қайд этилишича, “норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлашда жамоатчиликнинг фаол иштироки қонунларнинг ижро этилишини таъминлашнинг муҳим омили ҳисобланади” [1]. Бундан ташқари, Европа Кенгашининг Венеция комиссияси ҳам қонунчиликни такомиллаштиришда жамоатчилик экспертизасининг аҳамиятини алоҳида таъкидлаб, уни “қонунчилик жараёнининг сифатини таъминлашнинг зарурий шarti” деб баҳолайди [2].

Жамоатчилик экспертизаси – давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари қарорларининг аҳоли манфаатларига мослигини таъминлашнинг самарали механизми бўлиб, сиёсий-ҳуқуқий ислохотларнинг муваффақиятини белгиловчи омиллардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистонда сўнги йилларда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш амалиёти фаол жорий этилмоқда. Бироқ жамоатчилик экспертизаси борасидаги қонунчилик ва амалиёт ҳали етарли даражада ривожланмаган. “Regulation.gov.uz” порталида 2024 йилда 25 мингдан дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари жамоатчилик муҳокамасига қўйилган бўлса-да, уларнинг атиги 25 фоизи юзасидан фуқаролар ва ташкилотлардан таклифлар келиб тушган [3].

Лекин, ушбу платформада жамоатчилик экспертизаси бўйича фуқаролар коррупцияга қарши ва гендер экспертизасини ўтказиш имконияти яратилган бўлсада (сўровнома шаклида), лекин у ҳақида деряли фуқароларимиз беҳабар ёки ундан самарали фойдаланиш механизмлари яратилмаган. Ушбу соҳада фуқаролик жамияти институтларининг салоҳиятидан тўлиқ фойдаланилмаяпти.

Халқаро амалиётда жамоатчилик экспертизасининг турли моделлари мавжуд бўлиб, улар орасида Эстония, Жанубий Корея ва Канада тажрибаси алоҳида аҳамиятга эга. Хусусан, Эстониянинг “Osale.ee” платформаси фуқароларга қонун лойиҳаларини муҳокама қилиш, таклифлар киритиш ва жамоатчилик экспертизаси ўтказиш имконини беради [4]. Жанубий Кореянинг “E-People” портали эса фуқаролар таклифларини рейтинг тизими орқали баҳолаш механизмининг жорий этган бўлиб, бу энг сифатли экспертиза хулосаларини аниқлаш имконини беради [5].

Жамоатчилик экспертизаси аҳамияти ҳақида фикр билдирар экан, А.В. Корепина “Замонавий шароитда экспертиза жамият ҳаётининг нормасига айланиб, нуфузли фаолият шаклига айланмоқда. Экспертиза асосий қарорлар қабул қилиш воситаси сифатида муҳим аҳамият касб этмоқда” [6, Б.147-154]. А.В. Корепинанинг экспертиза “жамият ҳаётининг нормасига айланиб” бораётгани ҳақидаги фикри замонавий демократик жамиятларнинг ривожланиш тенденциясини акс эттирса-да, бу жараённинг ижобий ва салбий томонларини ҳам эътиборга олиш лозим. Жамоатчилик экспертизаси табиатан консултив характерга эга бўлиб, унинг “асосий қарорлар қабул қилиш воситаси” деб тавсифлаш қисман муболағали бўлиши мумкин, чунки яқуний қарорни қабул қилиш ҳуқуқи барибир ваколатли давлат органлари зиммасида қолади.

Америкалик мутахассис Ричард Стюарт жамоатчилик экспертизасининг мақсадлари ҳақида қуйидагиларни таъкидлайди: “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишда жамоатчиликнинг иштироки учта асосий функцияни бажаради: **биринчидан**, у идораларни улар акс ҳолда эга бўлмаган маълумот ва истиқболлар билан таъминлайди; **иккинчидан**, у тор манфаатлар томонидан идораларнинг “босиб олиниши”ни назорат қилиб туради; ва **учинчидан**, у маъмурий бошқарувнинг демократик қонунийлигини оширади” [7, Б. 1678]. Ричард Стюартнинг учта функцияга бўлган тақсимоли илмий жиҳатдан асосли бўлса-да, амалий жиҳатдан қўшимча функцияларни ҳам эътиборга олишни тақозо этади. Жумладан, жамоатчилик экспертизаси давлат органлари ишончини мустаҳкамлаш, фуқароларнинг ҳуқуқий онгини ошириш, норматив ҳужжатларни ижро этиш самарадорлигини ошириш каби вазифаларни ҳам бажаради. Стюартнинг фикрлари Ўзбекистон шароитига юқори даражада мос келади. Айниқса, идораларнинг тор манфаатлар томонидан “босиб олиниши”га қарши чора сифатида жамоатчилик экспертизасининг аҳамияти муҳим.

Давлатважамоатчилик ҳамкорлиги борасида Д.У. Суфиева: “Давлат органлари фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, қарорлар қабул қилиш жараёнида жамоатчилик

иштирокини кенгайтириш зарур. Бу борада жамоатчилик экспертизаси институтини янада ривожлантириш муҳим” [8, Б. 15-20]лигини қайд этган. Ш.Бурханованинг фикрича қонун лойиҳаларини ишлаб чиқишда жамоатчилик экспертизасини ўтказиш механизмларини такомиллаштириш лозим. Бунда “норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасини ташкил қилишда ахборот технологияларини қўллаш” алоҳида аҳамият касб этади [9, Б. 753]. Бизнингча, жамоатчилик экспертизасининг самарадорлигини таъминлаш учун нафақат механизмларни такомиллаштириш, балки экспертлар малакасини ошириш, маълумотларнинг очиқлиги ва тўлиқлигини кафолатлаш, давлатнинг ваколатли органлари зиммасига экспертиза натижаларини ҳисобга олиш мажбуриятини белгилаш каби масалаларни ҳам ҳал этиш муҳим аҳамиятга эга.

Фуқаролик жамиятининг қонун ижодкорлигидаги иштироки ҳақида фикр билдирар экан G.D'Alisa ва G.Kallis “Замонавий фуқаролик жамияти қонун лойиҳаларини тайёрлаш, муҳокама қилиш ва экспертизадан ўтказишда фаол иштирок этмоқда. Бу эса қонунларнинг сифатини оширишга ва жамият манфаатларини тўлиқроқ акс эттиришга хизмат қилади” [10, Б. 106], деб қайд этган. G.D'Alisa ва G.Kallis томонидан таъкидланган фуқаролик жамиятининг фаоллиги муҳим омил бўлса-да, бизнингча бу фаолликнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари ва институционал кафолатлари яратилмас экан етарлича самара бермаслиги мумкин.

Юқоридаги олимларнинг фикрлари жамоатчилик назорати ва экспертизаси соҳасини такомиллаштиришнинг муҳим жиҳатларини очиб беради. Улар таъкидлаганидек: норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар экспертизасида нафақат матн, балки тартибга солинадиган ижтимоий муносабатларни ҳам ўрганиш керак; лойиҳаларни кенг жамоатчилик муҳокамасига қўйиш ва мустақил экспертизадан ўтказиш механизмларини такомиллаштириш зарур; жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг аниқ тартиби ва босқичларини белгилаб берувчи ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиш лозим.

Энди бевосита жамоатчилик экспертизаси ва уни ҳуқуқий тартибга солиш механизмлари бўйича АҚШ, Европа Иттифоқи, Жанубий Корея ва Япония тажрибаси ва бу тажрибанинг Ўзбекистон шароитида қўллаш имкониятларига тўхталиб ўтсак.

АҚШда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик экспертизаси “**Notice and Comment**” (Хабардор қилиш ва фикр-мулоҳаза) тизими [11] орқали амалга оширилади.

Гарвард университетининг ҳуқуқ профессори Кэсс Санстейн бу тизим ҳақида шундай фикр билдиради: “Америка “хабардор қилиш ва фикр билдириш” жараёни ўтган асрда демократик бошқарувдаги энг муҳим инновациялардан бирини ифодалайди. У Америка маъмурий давлатига хос бўлган тарзда технократик экспертиза ва демократик масъулиятни бирлаштиради. Мукамал бўлмаса-да, бу тизим миллионлаб америкаликлар тартибга солиш жараёнида ўз овозларини эшиттира оладиган мушоҳадали демократиянинг ноёб шаклини яратди.” [12, Б. 1607]

Санстейннинг АҚШ тажрибаси ҳақидаги фикрлари Ўзбекистон учун жуда қимматли, бироқ АҚШ моделини тўлиқ кўчириб олиш мақсадга мувофиқ эмас. АҚШдаги “Notice and Comment” тизими узоқ демократик анъаналар натижасида шакланган бўлиб, Ўзбекистон шароитида унинг айрим элементларини, хусусан, технократик экспертиза ва демократик масъулиятни уйғунлаштиришга қаратилган механизмларни жорий этиш мақсадга мувофиқ саналади.

Яна бир таниқли америкалик ҳуқуқшунос олим Эрнест Геллхорн эса АҚШдаги “Regulations.gov” [13] платформасининг аҳамияти ҳақида қуйидаги фикрларни билдиради:

“Жамоатчилик фикрини билдириш учун марказлаштирилган портал сифатида “Regulations.gov” ривожланиши қонун ижодкорлиги жараёнига жамоатчилик киришини инқилобий ўзгартирди. Иштирок этиш учун технологик тўсиқлар сақланиб қолса ҳам, бу платформа фуқароларнинг тартибга солиш сиёсати билан ўзаро алоқаси учун транзакция харажатларини сезиларли даражада камайтирди ва хилма-хил ва репрезентатив жамоатчилик фикрини билдириш учун имкониятлар яратди.” [14, Б. 372].

Ҳозирда Ўзбекистонда “regulation.gov.uz” портали фаолият кўрсатмоқда, аммо бу платформа фуқаролар ўртасида етарлича оммалашмаган ва уни такомиллаштириш, шаффофлигини ошириш зарур. Геллхорннинг фикр-мулоҳазаларнинг сони эмас, балки сифати муҳимлиги ҳақидаги фикри Ўзбекистон учун ҳам долзарбдир. Ушбу миллий платформа таҳлили шуни кўрсатадики, айнан жамоатчилик экспертизаси масаласи мамлакатимизда ушбу соҳада ривожлантиришга муҳтож йўналиш саналади.

Германиялик етакчи маъмурий ҳуқуқ мутахассиси Вольфганг Хоффманн-Рим Европа Иттифоқидаги жамоатчилик экспертизаси механизмларининг ривожланиш тенденциялари ҳақида қуйидаги фикрларни билдиради: “Европа жамоатчилик маслаҳатлашуви ёндашуви бир нечта хусусиятлар билан ажралиб туради. Биринчидан, маслаҳатлашув лойиҳалаш босқичидаги бир марталик акт сифатида эмас, балки бутун сиёсий цикл давомида содир бўладиган жараён сифатида тушунилади. Иккинчидан, кенгроқ ва чуқурроқ иштирокка эришиш учун фуқаролар панеллари, мушоҳадали сўровлар ва онлайн мулоқот платформалари каби инновацион усуллар тобора кўпроқ қўлланилмоқда. Учинчидан, эксперт билими ва фуқаролар иштироки интеграцияси содир бўлади, бунда илмий экспертиза ва жамоатчилик фикри қарама-қарши эмас, балки яхши тартибга солишнинг бир-бирини тўлдирувчи элементлари сифатида кўрилади.” [15, Б. 215]

Ушбу олимнинг маслаҳатлашувни бутун сиёсий цикл давомида давом этадиган жараён сифатида тушуниш ва илмий экспертиза билан жамоатчилик фикрини уйғунлаштириш тамойиллари Ўзбекистон учун жуда мос. Бироқ, фуқаролар панеллари ва мушоҳадали сўровлар каби инновацион усуллар Ўзбекистон шароитида қўлланилиши учун жамиятнинг сиёсий етуклик даражаси ва фуқаролик онги юқори бўлиши талаб этилади.

Жанубий Кореяда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик экспертизаси тизими сўнгги йилларда жадал ривожланди. Бу борада Сеул Миллий университетининг профессори Ким Жи-Хун қуйидаги фикрларни билдиради: “Жанубий Кореянинг тартибга солиш бошқаруви ўтмишдаги юқоридан пастга ёндашувдан ҳамкорлик ва иштирокчи моделига эволюция қилди. “Тартибга солишни ислоҳ қилиш қўмитаси” [16] (“Regulatory Reform Committee”) каби институционал инновациялар фуқаролик жамияти, бизнес, академик доиралар ва ҳукумат ўртасида доимий мулоқотни яратди.” [17, Б. 178]. Бу модель асосида Ўзбекистонда ҳам хусусий сектор вакиллари, академик доиралар, фуқаролик жамияти ва ҳукумат вакиллари билан иборат тартибга солиш сифатини назорат қилувчи қўмита тузиш мумкин. Бу орқали норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг сифати ва самарадорлигини ошириш мумкин.

Японияда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик экспертизаси 1990 йиллардан бошлаб жадал ривожлана бошлади. Токио университетининг профессори Шинджи Ямашита бу ҳақда қуйидаги фикрларни билдиради: “Японияда 1990 йилларнинг охиридан бошланган маъмурий ислохотлар, айниқса 1999 йилдаги Маъмурий процедуралар тўғрисидаги қонуннинг ўзгартрилиши ва 2005 йилда “Тартибга солишни олдиндан баҳолаш” (Regulatory Impact Assessment) тизимининг жорий этилиши билан расмий ва шаффоф

фуқаролик иштироки механизми институционаллаштирилди. Бу ўзгариш Япония сиёсатини шакллантириш жараёнидаги “ёпиқлик”ни бузиб, очикроқ бошқарувга ўтишни кўрсатади.” [18, Б. 112-113]. Ушбу тажриба асосида Ўзбекистонда ҳам қонунчиликни миллий кадрларга асосланган ҳолда такомиллаштириш мумкин.

Келтирилган халқаро тажрибалар таҳлили шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда жамоатчилик экспертизасини самарали ташкил этиш учун босқичма-босқич ёндашув қўллаш мақсадга мувофиқ. **Биринчи** навбатда, мавжуд “regulation.gov.uz” платформасини АҚШнинг “Regulations.gov” тажрибаси асосида такомиллаштириш, унинг фойдаланувчи интерфейсини содаллаштириш ва фуқаролар ўртасида кенг тарғиб қилиш зарур. **Иккинчидан**, Жанубий Корея моделига асосланиб, давлат органлари, хусусий сектор, академик доиралар ва фуқаролик жамияти вакилларида иборат жамоатчилик асосида дастурий қўмиталар тузиш орқали экспертизани институционаллаштириш лозим. **Учинчидан**, Европа Иттифоқи тажрибасини назарда тутиб, жамоатчилик экспертизасини норматив ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқишдан тортиб, уни қабул қилиш ва ижро этишгача бўлган бутун жараён давомида давом этувчи фаолият сифатида ташкил этиш керак. Ниҳоят, Япония тажрибасига кўра, норматив ҳужжатларнинг олдиндан таъсир баҳолаш (RIA) тизимини жорий этиш билан жамоатчилик экспертизасининг сифат ва самарадорлигини оширишга хизмат қилиши мумкин.

Мамлакатимизда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни жамоатчилик экспертизасининг қонунчилик асослари Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонун билан тартибга солинади. Ушбу қонун жамоатчилик назоратининг турли шакллари, шу жумладан жамоатчилик экспертизасини ҳам белгилаб берган. Қонуннинг 6-моддасида жамоатчилик назоратининг шакллари сифатида саккизта асосий механизм кўрсатилган, улардан бири жамоатчилик экспертизаси ҳисобланади.

Қонун жамоатчилик экспертизасини жамоатчилик назоратининг алоҳида ва муҳим шакли сифатида тан олади. Бу эса давлат органлари томонидан қабул қилинадиган қарорларнинг фуқаролик жамияти институтлари томонидан назорат қилиниши механизмини ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлайди.

Қонуннинг 12-моддасида жамоатчилик экспертизасига таъриф берилган. Унга кўра: жамоатчилик экспертизаси - норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва давлат органларининг бошқа қарорлари лойиҳаларининг фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига, юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига, жамият манфаатларига мувофиқлигини аниқлаш учун ўрганиш ҳамда баҳолашдан иборат фаолиятдир.

Бу таърифдан кўринадики, жамоатчилик экспертизаси икки асосий компонентни ўз ичига олади: норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ўрганиш ва уларни баҳолаш. Бунда экспертизанинг асосий мезони - фуқаролар, юридик шахслар ва умуман жамият манфаатларига мувофиқликдир.

Қонуннинг 12-моддасининг иккинчи қисмида экспертизани ўтказиш ҳуқуқига эга бўлган субъектлар санаб ўтилган: нодавлат ноижорат ташкилотлари; фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари; оммавий ахборот воситалари.

Муҳими шундаки, қонун бу субъектларнинг экспертиза ўтказиш ҳуқуқини “қонунчиликда назарда тутилган ҳолларда” деб чеклайди. Яъни, ҳар қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси эмас, балки қонунчиликда алоҳида белгиланган ҳужжатлар лойиҳаларига жамоатчилик экспертизасидан ўтказилиши мумкин. Шунингдек, жамоатчилик экспертизасининг амалий самарадорлигини таъминлаш мақсадида, қонуннинг 12-моддаси учинчи қисмида муҳим механизм кўзда тутилган. Унга кўра, жамоатчилик экспертизасининг ташкилотчилари:

тегишли соҳада зарур билим ва тажрибага эга мутахассисларни; жамоатчилик асосида (яъни кўнгиллилик асосида) жалб қилиш ҳуқуқига эга. Бу қоида экспертизани ўтказиш жараёнининг профессионал даражада бўлишини таъминлашга қаратилган.

Юқоридаги нормалар таҳлили шуни кўрсатадики, Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонунида жамоатчилик экспертизаси билан боғлиқ қоидалар мавжуд бўлса-да, бу механизмнинг амалий жиҳатдан самарали ишлаши учун бир қатор муҳим жиҳатлар етарлича тартибга солинмаган. Қонуннинг 6 ва 12-моддалари таҳлили шуни кўрсатадики, жамоатчилик экспертизаси институти янада такомиллаштиришни талаб этувчи бир қатор муаммоли жиҳатларга эга.

Биринчидан, қонунда жамоатчилик экспертизасини ўтказиш тартиби, муддатлари ва шакли билан боғлиқ аниқ процедуралар белгиланмаган. Мазкур қонун умумий равишда экспертизанинг моҳияти ва субъектларини белгилаб берса-да, уни ташкил этиш ва ўтказиш жараёнлари билан боғлиқ процессуал қоидаларни ўз ичига олмайди. Бу эса амалиётда турлича талқин қилинишларга ва жамоатчилик экспертизасини тўлақонли ўтказиш имкониятини чекловчи ҳолатларга олиб келиши мумкин.

Иккинчидан, қонунда давлат органларининг жамоатчилик экспертизаси натижаларига муносабати, уларни кўриб чиқиш ва ҳисобга олиш мажбурияти тўғрисида аниқ қоидалар мавжуд эмас. Экспертиза натижаларининг қанчалик мажбурий кучга эга эканлиги, давлат органлари томонидан уларни кўриб чиқиш муддатлари ва тартиби, инкор этилган ҳолларда асослангириш талаблари каби муҳим масалалар қонунда ўз аксини топмаган. Бу эса жамоатчилик экспертизаси натижаларини ҳақиқатда ҳам инобатга олиниши механизмини заифлаштиради.

Учинчидан, қонуннинг 12-моддасида жамоатчилик экспертизаси “қонунчиликда назарда тутилган ҳолларда” ўтказилиши мумкинлиги қайд этилган. Бу чеклов жамоатчилик назорати институтларининг аксарият норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини экспертизадан ўтказиш имкониятини сезиларли даражада чеклаб қўйиши мумкин. Агар махсус қонунчиликда бундай ҳоллар тор доирада белгиланса, жамоатчилик экспертизаси механизми самарали ишламаслиги эҳтимоли юқори бўлади.

Тўртинчидан, жамоатчилик асосида мутахассисларни жалб қилиш механизми, уларнинг мақоми ва ваколатлари аниқ белгиланмаган. Қонунда экспертиза ташкилотчиларининг мутахассисларни жалб қилиш ҳуқуқи мавжудлиги қайд этилган бўлса-да, бу мутахассисларнинг ҳуқуқий мақоми, уларга қўйиладиган талаблар, ваколатлари ва мажбуриятлари, шунингдек, уларнинг ишини ташкил этиш масалалари тартибга солинмаган.

Бешинчидан, жамоатчилик экспертизасини ўтказиш билан боғлиқ харажатларни қоплаш масаласи қонунда кўриб чиқилмаган. Бундай экспертиза баъзан сезиларли молиявий ресурсларни, айниқса мураккаб техник ёки ижтимоий аҳамиятга эга ҳужжатлар лойиҳалари кўриб чиқиладиганда талаб қилиши мумкин. Экспертизани молиялаштириш манбалари, жалб қилинган мутахассисларга тўланадиган ҳақ масалалари қонунда ўз ечимини топмаган, бу эса иқтисодий имконияти чекланган нодавлат ноижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамияти институтларининг жамоатчилик экспертизасини ўтказиш имкониятларини чеклаб қўяди.

Махсус қонундан ташқари Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 10 мартдаги 57-сон қарорининг 2-бандида норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик муҳокамаси ва экспертизасини ўтказиш механизмлари белгиланган бўлиб, бу механизмлар фуқаролик жамияти институтларининг қонун ижодкорлиги жараёнидаги иштирокини таъминлашни белгилаб берган [19]. Лекин, ушбу қарор умумий маълумотлардан иборат

бўлиб, жамоатчилик экспертизасининг юқоридаги қонун нормаси билан очиб берилмаган масалалари ва механизмларини тартибга солишга қаратилмаган.

Тадқиқотчиларнинг фикрлари ва халқаро тажриба асосида қуйидаги илмий-назарий хулоса ва қонунчиликка таклифларни илгари суриш мумкин.

1. Бизнингча, жамоатчилик экспертизаси деганда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини жамоатчилик томонидан баҳолаш, таҳлил қилиш ва такомиллаштириш жараёни тушунилади. Ўзбекистонда жамоатчилик экспертизасининг концептуал моделини ишлаб чиқиш зарур. Бугунги кунда Ўзбекистон шароитида қўлланиладиган ягона жамоатчилик экспертизаси концептуал модели яратилмаган. Бу модель экспертизанинг фундаментал тамойиллари, босқичлари, субъектлари ва объектларини аниқ белгилаб бериши лозим.

2. Жамоатчилик экспертизасини баҳолаш методологиясини ишлаб чиқиш таклиф қилинади. Экспертизанинг самарадорлигини баҳолаш учун миқдорий ва сифат кўрсаткичларини ўз ичига олган методологияни яратиш, уни илмий жиҳатдан асослаш мақсадга мувофиқ. Бу орқали норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг “сифат аудити”ни амалга ошириш имконияти яратилади.

3. Жамоатчилик экспертизаси натижаларининг ижросини таъминлаш назариясини ривожлантириш. Экспертиза хулосаларини рўёбга чиқариш механизмлари, уларнинг мониторингини амалга ошириш ва бу жараённинг назарий жиҳатларини ишлаб чиқиш керак. Бу таклифлар норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг сифатини назорат қилиш, жамоатчилик мониторингининг самарали моделларини яратишга хизмат қилади.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги қонунга тўлдириш сифатида 31¹-модда сифатида, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасидан ўтказиш мажбурий бўлган ҳолатлар рўйхатини кенгайтириш, экспертиза хулосаларининг ҳуқуқий мақомини аниқлаштириш мақсадга мувофиқ.

5. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик экспертизаси самарадорлигини ошириш учун, биринчи навбатда, жамоатчилик экспертизасини ўтказиш тартибини аниқ белгиловчи қоидаларни ишлаб чиқиш зарур. **Вазирлар Маҳкамасининг “Жамоатчилик экспертизасини ўтказиш тартиби тўғрисида”ги қарорини қабул қилиш таклиф қилинади.** Бу қарорда экспертизани ташкил этиш ва ўтказиш билан боғлиқ процессуал масалалар, экспертлар билан ишлаш тартиби, экспертиза хулосаларини расмийлаштириш ва уларни давлат органларига тақдим этиш механизмлари батафсил белгиланиши керак.

6. Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонун 12-моддаси иккинчи қисмини қуйидаги таҳрирда баён қилиш таклиф қилинади: “Ижтимоий аҳамиятга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик экспертизаси ташкил этилиши шарт. Жамоатчилик экспертизасини фуқаролик жамияти институтлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, илмий муассасалар, мутахассислар ҳамда оммавий ахборот воситалари қонунчиликда назарда тутилган ҳолларда ўтказиши мумкин. Жамоатчилик экспертизасини ўтказиш тартиби Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.”

Юқоридаги илмий-назарий ва қонунчиликка доир таклифлар Ўзбекистонда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари бўйича жамоатчилик экспертизаси механизмларини такомиллаштиришга, бу соҳада халқаро илғор тажрибани жорий этишга ва пировард натижада қонунлар сифатини оширишга хизмат қилади.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. OECD. (2021). Public Participation in Lawmaking: Best Practices and Recommendations. <https://www.oecd.org/governance/public-participation-lawmaking-2021.pdf>
2. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). (2020). Rule of Law Checklist. [https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-AD\(2016\)007-e](https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-AD(2016)007-e)
3. Ўзбекистон Республикаси Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни жамоатчилик муҳокамаси портали // <https://regulation.gov.uz/uz/statistics>
4. e-Estonia. (2023). Digital Democracy: The Estonian Model. <https://eeloud.valitsus.ee/main#H1MfdF5H>
5. Korea e-Government. (2022). E-People: Korea's Digital Platform for Civic Participation. <https://www.epeople.go.kr/index.jsp>
6. Корепина А.В. Понятие экспертизы в сфере государственного управления // Proceedings of Voronezh State University. Series: Law. 2023. № 3 (54). С. 147-154
7. Stewart, R. B. (2019). «Administrative Law in the Twenty-First Century» Harvard Law Review, 132(5), pp. 1678-1679.
8. Суфиева Д.У. Конституционные гарантии гендерного равенства на примере нормотворческой деятельности Узбекистана и Казахстана // Юрист ахборотномаси. 2023. №6. С.15-20
9. Burkhanova S.J. Priority of Law – the Main Criterion in Building the Rule of Law // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. - 2024. - Volume 02, Issue 05. - P. 753.
10. D'Alisa G., Kallis G. Degrowth and the state // Ecological Economics. 2020. Vol. 169. P. 106486
11. The Administrative Conference of the United States (ACUS) // <https://www.acus.gov/sites/default/files/documents/IIB014-Rulemaking.pdf>
12. Sunstein, C. R. (2018). «The Most Knowledgeable Branch.» University of Pennsylvania Law Review, 166(7), pp. 1607-1608.
13. The General Services Administration (GSA) U.S. // <https://www.regulations.gov/>
14. Gellhorn, E. & Byse, C. (2021). «Administrative Law: Cases and Comments.» Foundation Press, New York, 12th Edition, pp. 372-373.
15. Hoffmann-Riem, W. (2017). «Innovation und Recht: Recht und Innovation.» Mohr Siebeck, Tübingen, S. 215-216.
16. The JC&A Global Team // <https://regulatoryreform.com/wp-content/uploads/2014/11/removeadminbarriers.pdf>
17. 김지훈 [Ким Джи-Хун]. (2019). «한국의 규제 거버넌스 혁신: 시민 참여와 투명성의 제도화 [Жанубий Кореянинг тартибга солиш бошқаруви инновацияси: фуқаролик иштироки ва шаффофликни институционаллаштириш].» 행정법연구 [Маъмурий ҳуқуқ тадқиқотлари], 60(2), 178-179쪽.
18. 山下真司 [Ямашита Шинджи]. (2016). «日本における規制政策と市民参加: 制度改革の成果と課題 (Япониядаги тартибга солиш сиёсати ва фуқаролар иштироки: институционал ислохотларнинг натижалари ва муаммолари).» 行政法研究 [Маъмурий ҳуқуқ тадқиқотлари], 28(1), pp. 112-113.
19. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга кўмаклашиш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2013 йил 12 декабрдаги ПҚ-2085-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида»ги 2014 йил 10 мартдаги 57-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. - 2014. - №11. - 126-модда.

MAXMUDOV Firuz Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Instituti direktorining ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo'yicha o'rinbosari, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

MANFAATLAR TO'QNASHUVINING OLDINI OLIH BO'YICHA ODOB-AXLOQ VA ETIKA STANDARTLARIGA OID ZAMONAVIY KONSEPSIYA VA MODELLAR: BUYUK BRITANIYA TAJRIBASI MISOLIDA

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования):
MAXMUDOV F.B. Manfaatlari to'qnashuvining oldini olish bo'yicha odob-axloq va etika standartlariga oid zamonaviy konsepsiya va modellar: Buyuk Britaniya tajribasi misolida // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) В. 17–25.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada manfaatlari to'qnashuvining oldini olish masalalari odob-axloq va etika standartlari nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Davlat xizmatchilarining halolligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashda zamonaviy konsepsiya va modellardan foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda Buyuk Britaniya tajribasi alohida o'rin egallab, ushbu davlatda odob-axloq kodekslari, manfaatlari to'qnashuvini boshqarish mexanizmlari, mustaqil etika qo'mitalari hamda jamoatchilik nazorati institutlari orqali samarali tizim yaratilgani ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tajribada ochiqlik va shaffoflik tamoyillari davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida qo'llanilishi, korrupsiyaviy xatarlarni minimallashtirishda muhim omil sifatida baholanishi ko'rsatib beriladi. Maqolada Buyuk Britaniya modelining afzalliklari va cheklolari taqqoslab o'rganilgan holda, milliy huquqiy-amaliy muhit uchun moslashtirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari manfaatlari to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha milliy siyosatni yanada takomillashtirish, davlat xizmatchilari o'rtasida odob-axloq va etika madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: manfaatlari to'qnashuvi, odob-axloq standartlari, etika kodeksi, Buyuk Britaniya tajribasi, davlat xizmati, korrupsiyaning oldini olish, shaffoflik, hisobdorlik, etika qo'mitalari, jamoatchilik nazorati, zamonaviy konsepsiyalar, boshqaruv madaniyati.

МАХМУДОВ Фируз

Заместитель директора по научной работе и международному сотрудничеству Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук (DSc), доцент

СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И МОДЕЛИ ЭТИКО-ПРАВСТВЕННЫХ СТАНДАРТОВ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОНФЛИКТА ИНТЕРЕСОВ: НА ПРИМЕРЕ ОПЫТА ВЕЛИКОБРИТАНИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы предотвращения конфликтов интересов с точки зрения этики и этических стандартов. Освещены теоретические и практические основы использования современных концепций и моделей для обеспечения честности, прозрачности и подотчетности государственных служащих. Исследование сосредоточено на опыте Великобритании, которая научно анализирует создание

эффективной системы в этой стране посредством кодексов этики, механизмов управления конфликтом интересов, независимых этических комитетов и институтов общественного контроля. Также показано, что этот опыт применяет принципы открытости и прозрачности на всех этапах государственного управления и считается важным фактором минимизации коррупционных рисков. В статье на основе сравнительного исследования преимуществ и ограничений британской модели разработаны предложения и рекомендации, адаптированные к национальной правовой и практической среде. Результаты исследования имеют научное и практическое значение для дальнейшего совершенствования национальной политики по устранению конфликтов интересов, повышения культуры морали и этики среди государственных служащих, а также укрепления доверия граждан к государственному управлению.

Ключевые слова: конфликт интересов, этические стандарты, кодекс этики, опыт Великобритании, государственная служба, предотвращение коррупции, прозрачность, подотчетность, комитеты по этике, общественный контроль, современные концепции, культура управления.

FIRUZ Makhmudov

Deputy Director for Scientific Affairs and
International Cooperation at the Training Institute
for Lawyers under the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan Doctor of Law (DSc),
Associate Professor

MODERN CONCEPTS AND MODELS OF ETHICAL AND MORAL STANDARDS FOR PREVENTING CONFLICT OF INTEREST: ON THE EXAMPLE OF THE GREAT BRITAIN'S EXPERIENCE

ANNOTATION

This article examines the issues of preventing conflicts of interest from the point of view of ethics and ethical standards. The theoretical and practical foundations of using modern concepts and models to ensure the honesty, transparency and accountability of civil servants are highlighted. The study focuses on the experience of Great Britain, which scientifically analyzes the creation of an effective system in this country through codes of ethics, conflict of interest management mechanisms, independent ethics committees and public oversight institutions. It also shows that this experience applies the principles of openness and transparency at all stages of public administration and is considered an important factor in minimizing corruption risks. The article, having comparatively studied the advantages and limitations of the Great Britain model, develops proposals and recommendations adapted to the national legal and practical environment. The results of the study are of scientific and practical importance for further improving national policies to eliminate conflicts of interest, improving the culture of morality and ethics among civil servants, and strengthening citizens' trust in public administration.

Keywords: conflict of interest, ethical standards, code of ethics, UK experience, civil service, corruption prevention, transparency, accountability, ethics committees, public oversight, modern concepts, management culture.

Davlat fuqarolik xizmati nafaqat ommaviy-huquqiy jihatlari bilan, balki axloqiy asosga qurilganligi bilan ham boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadi. Shundan kelib chiqib, etik standart va odoq-axloq prinsiplari manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda asosiy tamoyil hisoblanadi. Ushbu standartlar kasbiy huquq amaliyotida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va samarali boshqarish, davlat va jamoa manfaatlarini himoya qilish va huquqiy tizimning yaxlitligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv davrida yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlar zamonaviy ko'rinish olayotgan bo'lsa-da, ularni real hal qilish va huquqiy tartibga

solish tarixiy va odatiy an'anaga, qadriyatga aylangan odob-axloq va munosib xulq-atvorga ehtiyoj sezib bormoqda.

Bu borada, ingliz huquqshunos olimi S.R.Akerman ta'kidlaganidek, biz odamlar tobora ko'proq qarama-qarshi rollar, o'ziga xoslik va sodiqlikni o'zgartiradigan davrda yashayapmiz. Bunday sharoitda esa odob-axloq masalasi har qachongidan ham muhim vositaga aylanib, kerak bo'lsa, eng muhim ijtimoiy-huquqiy muammolarni oson hal qilish, ularni oldini olishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib bormoqda [1, 3-b.].

Shu jihatdan, milliy huquq tizimi va amaliyotni takomillashtirishda dunyoda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, bu borada avvalo, hammaga ma'lum bo'lgan odob-axloq masalasini birinchi o'ringa qo'yib, ijobiy natija ko'rsatayotgan Buyuk Britaniya tajribasini o'rganish, fikrimizcha, huquq nuqtai nazaridan ham, mentalitet bo'yicha ham O'zbekiston amaliyotiga mos tushadi.

Avvalo, e'tibor beradigan bo'lsak, Buyuk Britaniya ilmiy jamoatchiligi orasida manfaatlar to'qnashuvini huquqiy yoki axloqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan ikki ilmiy maktab rivojlanayotganligini ko'rish mumkin.

Birinchi maktab asoschilari (Marshall Schminke, Schminke, Nathalie Behncke, Jacobs, Mackenzie va Stark) fikricha, Buyuk Britaniya jamiyatida munosib xulq-atvorda bo'lish va shu orqali huquq-tartibot, noqonuniy harakatlarni oldini olishda etika standartlariga munosabat o'zgarib bormoqda. Xususan, jamoat odob-axloq me'yori ham ancha qat'iylashdi. Ilgari qabul qilingan xatti-harakatlar endi axloq qoidalari buzilishi emas, balki jinoyat hisoblanmoqda. Hatto huquqshunos olim Stark bugungi manfaatlar to'qnashuvi toifasi va uning tartibga solinishi so'nggi 30 yilda keskin o'zgarganligini, davlat huquqiy tartibga solish orqali katta natijalarga erishgan bo'lsa-da, bugungi iqtisodiy rivojlanish nafaqat qonun ta'sir kuchi yordamiga, balki axloq ko'magiga ham bog'liqligini ko'rsatmoqda [2, 4-b.].

Ikkinchi yo'nalish olimlari esa odob-axloqdan ko'ra, huquqiy tartibga solishni ustuvor deb bilishmoqda. Xususan, ayrim huquqshunos olimlar (Rosenson, Williams, G.S.Mackenzie, Paul Nieuwenburg) va davlat tizimi amaldorlari odob-axloqqa nisbatan qattiq siyosat yuritmaslikni ham o'rta tashlamoqda. Ya'ni odob-axloq masalasining siyosiylashib ketishi shaxsning fundamental, tabiiy huquqlariga zarar yetkazishi mumkin.

Fikrimizcha, odob-axloqning Buyuk Britaniya jamiyatida huquq-tartibotni ta'minlashdagi ahamiyati va erishilgan yutuqlar, xususan, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishdagi ijobiy ulushi (*Buyuk Britaniya Transparency International Tashkilotining 2023-yilgi Korrupsiyani qabul qilish (Corruption Perceptions Index) reytingida 180 ta mamlakat orasida 20-o'rinni band etgan*) uning huquqning axloq darajasiga ko'tarilganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bilan bir qatorda, Buyuk Britaniyada davlat xizmati tizimida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda odob-axloq masalalariga oid qator konsepsiya va modellar rivojlanganligini kuzatish mumkin.

Xususan, Buyuk Britaniyaning tarixiy qadriyatlariga asoslangan holda shakllangan "**Davlat xizmatini amalga oshirishning 4 asosiy xulq-atvor standarti**" modeli (**Standards of behaviour**) markaziy o'rinda turadi. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga xizmat qiladigan quyidagi standart va prinsiplar davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi:

- "to'g'rilik" – davlat xizmatidagi majburiyatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish;
- "halollik" – haqiqat va ochiqlik;
- "xolislik" – har bir holatni dalillar asosida, sinchkovlik bilan tahlil qilish;
- "tenglik" faqat ishning mohiyatiga ko'ra, harakat qilish va turli siyosiy e'tiqoddagi hukumatlarga birdek xizmat qilish.

Mazkur standartlar manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda davlat xizmatchisining o'z burch va majburiyatlarini mas'uliyat bilan bajarishi, har doim professional tarzda harakat qilishi, qonunga rioya qilishi va odil sudlovni ta'minlashi, o'z xizmat lavozimini suiiste'mol qilmasligi, halollikka putur yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday kishidan sovg'alar yoki mehmondo'stlikni qabul qilmasligi, maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmasligini (bu majburiyat davlat xizmatidan ketgandan keyin ham amal qiladi) ta'minlashga qaratilgan.

Fikrimizcha, mazkur prinsiplar milliy qonunchiligimizda ham turli tarmoq qonunchilikda umumiy qoidalar sifatida belgilangan. Ya'ni bu borada Buyuk Britaniyaning mazkur ijobiy tajribalari milliy amaliyotimizga bosqichma-bosqich ham huquqiy, ham tashkiliy jihatdan implementatsiya qilib borilayotganligini ko'rish mumkin. Xususan, so'nggi yillarda qabul qilingan hujjatlarda aynan manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda odob-axloq va etika standartlari asosiy usullardan biri sifatida huquq tizimida munosib o'rin egallamoqda.

Shuningdek, Angliyada manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatdagi davlat xizmatchilarining munosib xulq-atvorini nazorat qilishda yangi shakllanayotgan zamonaviy konsepsiya bu **“Raqamli tartibga solish modeli”** bilan bog'liqdir. Bugungi globallashuv va axborot asrida **“Use of social media”** – manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda ijtimoiy tarmoq orqali holat to'g'risida xabar berish, nazorat qilish, jamoaviy ta'sirni shakllantirish amaliyoti ham muhim rol o'ynamoqda. So'nggi yillardagi ochiqlik siyosati va so'z erkinligi bilan bog'liq islohotlar natijasida bu tendensiyani mamlakatimizda ham ommalashayotganligini ko'rish mumkin. Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ochiqlash, aniqlash va ularga qarshi huquqiy ta'sir choralari qo'llash ko'lamida mazkur tendensiyaning ulushi oshib bormoqda. Shu jihatdan, bu boradagi siyosatni yanada kuchaytirish, tashkiliy va huquqiy kafolatlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada manfaatlar to'qnashuvini **“Ichki tartibga solish”** modeli so'nggi yillarda ustuvorlik kasb etib bormoqda. Ya'ni davlat xizmati tizimidagi mustaqil axloqiy qo'mitalar tashkil etish va mazkur tashkilotda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarni, xususan, xodimlarining moliyaviy faoliyatini tekshirish va sovg'alar va takliflarni qabul qilish qoidalarini belgilash uning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, **“Jamoatchilik ishonchi” (Public Confidence)** modeli ham Buyuk Britaniya qonunchiligi va amaliyotida shakllangan va bugungi kunda ham rivojlanayotgan muhim yo'nalish hisoblanadi.

Bu konsepsiya mazmunida davlat xizmatchisi jamoatchilik tomonidan so'ralishi, manfaatlar to'qnashuvi holatini jamoatchilikka faol ravishda oshkor qilish yotadi. Aniq va shaffof tartib-qoidalar orqali bunday siyosatlar axloqiy qoidalarga rioya etilishini jamoatchilik tomonidan baholashning samarali vositasi hisoblanadi, chunki holatni ommaga oshkor qilish oldini olish va rag'batlantiruvchi funksiyani bajarishi mumkin: **jamoatchilik qanchalik ko'p bilsa, axloqiy me'yorlar shunchalik hurmat va nazorat qilinadi** [3, 11-b.].

“Ommaviy etika” (Public Ethics) konsepsiyasi ham yuqoridagi yo'nalishning mantiqiy davomi sanalib, davlat xizmatining ochiqligi va jamoatchilik nazorati ostida bo'lishi orqali aholining faol nazorat funksiyasini ta'minlashga, shu orqali davlat xizmatchilarining qonuniy faoliyat yuritishlariga xizmat qiladi [4].

Buyuk Britaniyada manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha shakllangan yana bir axloqiy standartlarda **“Muammoni kompleks tartibga solish” (General-Complex Regulation)** yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash (**Identifying**), yuksak axloqni namoyon etgan holda manfaatlar to'qnashuvi holatini e'lon qilish (**Declaring**), mavjud huquqiy tartibot va etika standartlari asosida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish (**Managing**)

va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ygan shaxslar tog'risidagi ma'lumotlarni qayd etish, ommaga e'lon qilish (**Publishing**) mazkur modelning tarkibiy bosqichlarini tashkil etadi.

Bu borada, muhim bir jihat shuki, har bir bosqichni sifatli va samarali amalga oshirish manfaatlar to'qnashuvini hal qilish vakolati berilgan subyektlarning axloqiga ham borib taqaladi. Holatni yashirmaslik, barchaga nisbatan teng qaror qabul qilish muhim hisoblanib, davlat xizmatining sifatiga ta'sir qiladi.

Buyuk Britaniyada manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda shakllangan **Ichki xabar berish modeli (Internal Whistleblowing Systems)** ham muhim ahamiyat kasb etib, bu borada, "Whistleblowers"lar faoliyati ancha ommalashganligini ko'rish mumkin. Hatto korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maxsus tashkilot – Transparency International tashkiloti tomonidan 2024-yildan "Jahon xabar beruvchilar kuni"ni ommalashtirish masalasi ham kun tartibiga qo'yilib, xabar beruvchilarning tashkiliy va huquqiy himoyasini ta'minlash asosiy yo'nalish ekanligi qayd etilmoqda. Bu borada, maxsus huquqiy dasturlar – **"Xabar beruvchilar xavfsizligi – har bir kishining xavfsizligi" (Whistleblowers' safety is everyone's safety)** ommalashtirilmoqda. Mazkur yo'nalish ham manfaatlar to'qnashuvini zamonaviy huquqiy tartibga solish va oldini olishda bugungi kunda rivojlanayotgan konsepsiyalardan biri hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada odob-axloq asosida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha nafaqat ilmiy nazariya, konsepsiya va modellar yaxshi rivojlangan, balki huquqiy tartibga solish, ya'ni normativ asoslar ishlab chiqish va yuridik amaliyot ham samarali yo'lga qo'yilgan.

Buyuk Britaniya va uning tarkibiga kiruvchi barcha davlatlarda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish **Xulq atvor qoidalari, Odob-axloq kodekslari (Rule of Conduct, Code of Conduct, Standards of Ethics for Public Servants)** bilan amalga oshiriladi. Bunda umumiy yondashuv holatni maxsus, asosan lokal tartibga solishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. 2010-yildagi "Poraxo'rlik to'g'risida"gi Qonun [5] yoki 2007-yilda qabul qilingan "Yuridik xizmatlar to'g'risida"gi Qonun umumiy prinsiplarni belgilab bersa, ularni amalga oshirish tartibi har bir davlat xizmati tizimi tomonidan o'z xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan yuqoridagi kabi ichki hujjatlarga asoslanadi.

Jumladan, mamlakatda davlat fuqarolik xizmati tizimining samarali ishlashi va tizimda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda 2015-yil 16-martdagi **Fuqarolik xizmati kodeksi** muhim o'rin tutadi. Mazkur hujjat nafaqat davlat xizmatini tashkil etish, balki uni samarali amalga oshirishda axloq normalarining ahamiyatini ham belgilab bergan.

Shu bilan bir qatorda, Buyuk Britaniyada **Kasbiy faoliyatning etika kodeksi** [6] ham manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etib, faoliyatning asosiy prinsiplarini belgilab bergan. Jumladan, kompetentlik, halollik va to'g'rilik, mustaqil qaror qabul qilish, ehtiyotkorlik, tenglik va mukammal kasbiy xulq-atvor Davlat xizmatchilari uchun belgilanga asosiy axloq prinsiplari sanaladi.

Bundan tashqari, 2018-yilda Yevropa Kengashi tomonidan **Mahalliy va mintaqaviy kongressi hisobot hujjatida** ham aynan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashdagi samaradorlikda axloq masalalari birinchi navbatdagi yechim sifatida belgilangan. Unga ko'ra, shaffoflik, hisobdorlik, axborotdan foydalanish qoidalari va manfaatlar deklaratsiyasi odob-axloqning standartlarining "4 ustuni" sifatida belgilangan [7].

Buyuk Britaniyada shakllangan qadriyat va amaliyotga ko'ra davlat xizmatchilari qirolning xizmatkorlari hisoblanib, ular ish beruvchisi sifatida qirolga sodiq xizmat qilishni, avvalo, axloqiy burch sifatida qabul qiladi. Shu bilan bir qatorda, bu hatto **Davlat xizmati Kodeksida** ham huquqiy jihatdan ham mustahkamlab qo'yilgan [8].

Umuman olganda, davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan kasb etikasi va odob-axloq qoidalarga samarali rioya etilishi nafaqat xizmat vazifalarini sifatli hamda qonuniy tarzda amalga

oshirishga, balki davlat organlari imidjiga va aholi kayfiyatiga ham ta'sir qiladi. Shu sababli ham O'zbekiston davlat fuqarolik xizmati tizimida davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloqiga oid talablar, avvalo, maxsus yondashuv asosida qonun bilan tartibga solingan.

“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonunning 17-moddasida davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari belgilangan [9] bo'lsa, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan **Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari** davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan [10].

Shu bilan birga, oxirgi yillarda jamiyatda ochiqlik va oshkoralikning ta'minlanishi natijasida aholining davlat organlari faoliyati samaradorligi hamda davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga (**5-ilova: Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining umumiy standartlari**) rioya etilishiga bo'lgan talab ham tobora ortib bormoqda.

Qayd etish kerakki, davlat xizmatchilari tomonidan o'z faoliyati davomida kasb etikasi va odob-axloq qoidalarining buzilishi jamiyatda davlat organlari imidjiga putur yetkazib, keskin e'tirozlarga sabab bo'ladi, aholining davlatga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir qiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, xizmat vazifalarini bajarish, bu borada odob-axloq qoidalarini buzilishi natijasida 2022-2023-yillarda **139 ta** noqonuniy holatlar yuz bergan. Ularning **103 tasida** (74 foiz) davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan kasb etikasi va odob-axloq qoidalariga rioya etmaslik holatlari kuzatilgan bo'lsa, qolgan **36 tasida** (26 foiz) manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining **“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi** [11] Qonunining 11-moddasida ham davlat organining yoki boshqa tashkilotlar odob-axloq komissiyasining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdagi ishtirokiga oid vakolatlari belgilab berilgan.

Endilikda Odob-axloq komissiyasi tomonidan davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan ushbu qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat ushbu davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan **Odob-axloq komissiyasi** tomonidan amalga oshiriladi.

Biroq, fikrimizcha, yuqoridagi kabi holatlar qonunchilikda Odob-axloq komissiyalari uchun belgilab berilgan vakolatlar yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Jumladan, amaldagi qonunchilikda Odob-axloq komissiyasi davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy ta'sir chorasini qo'llash uchun davlat organlari va tashkilotlari rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin xolos.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda odob-axloq qoidalarining o'rnini asosan Buyuk Britaniya qonunchiligi asosida tahlil qilayotgan bo'lsak-da, etika asoslari boshqa qator mamlakatlar tajribasida ham ancha ommalashganligini, manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda asosiy mexanizm sifatida qo'llanayotganligini ko'rish mumkin.

Masalan, **Yaponiya, Turkiya, Indoneziya, Italiya** kabi davlatlarda odob-axloq qoidalarining buzilishiga nisbatan intizomiy va iqtisodiy jazo choralari belgilangan. **Janubiy Koreya, Xitoy, Kanada, Ozarbayjonda** davlat xizmatchilari odob-axloq qoidalarini buzganda bir yil davomida tanlov va suhbatlarda qatnashishi taqiqlanib, jinoiy javobgarlik belgilangan.

Janubiy Koreyada kadrlar boshqaruvi vazirligi mavjud bo'lib, u davlat xizmatchilarining mehnat etikasi va intizomi nazorati masalalari bilan shug'ullanadi [12]. Janubiy Koreyada davlat xizmatchilari faoliyati, ularning kasb etikasiga oid normalarini tartibga soluvchi “Davlat mansabdor shaxslari to'g'risida”gi qonun [13] bilan tartibga solinadi.

Qonunning 61-moddasiga ko'ra, hech bir mansabdor shaxs o'z vazifasini bajarishi munosabati bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biror-bir mukofot, xayriya-ehson olishi mumkin emasligi

hamda hech bir mansabdor shaxs o'zidan yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga xayriya-ehsonlar qilmasligi belgilangan.

Shuningdek, qonunning 62-moddasida davlat xizmatchisi xorijiy hukumat vakilidan mukofot yoki qimmatbaho sovg'a olishi mamlakat prezidenti ruxsati bilan amalga oshirilishi belgilangan.

Agar mansabdor shaxs xorijiy davlatdan yoki chet el fuqarosidan 100 AQSH dollaridan ortiq qiymatdagi sovg'a olsa, u zudlik bilan markaziy yoki mahalliy hukumatga xabar berib, sovg'ani topshirishi shart. Sovg'alar madaniy yoki badiiy ahamiyatga ega bo'lsa, Koreya milliy arxiviga topshirilishi, milliy madaniy boylik sifatida qiymatga ega bo'lmagan sovg'alar esa Davlat xaridlari xizmati orqali sotuvga qo'yilishi belgilangan [14].

Ozarbayjonda 2000-yilda qabul qilingan **“Davlat xizmati to'g'risida”gi Qonunda** [15] davlat xizmatchilari tomonidan ish faoliyatlari davomida kasb etikasi va odob-axloq normalarini buzish kabi xatolari yuz bersa, ularga nisbatan bir qator jazo choralari kiritilgan. Jumladan, yuqoridagi qonunning 29-moddasida intizomiy jazoga tortilgan davlat xizmatchilari bir yil davomida tanlov va suhbatlarda qatnashishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Avstriyada davlat xizmatchilarini o'qitish va malakasini oshirish orqali ular faoliyatida odob-axloq normalaridan chetga chiqishning oldini olish, korrupsiyaviy jinoyatlarga yo'l qo'ymaslik choralari qo'llanib boriladi. Xususan, 2008-yilda qabul qilingan **“Mas'uliyat mening bo'yimda”** nomli axloq kodeksida barcha tegishli tashkilotlar uchun o'z xodimlarini halollik va korrupsiyaning oldini olish yuzasidan malakasini oshirish talablari aniq ko'rsatilgan. Jumladan, maxsus kurslarda o'qish davomiyligi 3 kun bo'lib, davlat xizmatchilari bir yilda 2 marta o'qitiladi.

Kanadada 2012-yilda davlat xizmati etikasi sohasidagi qonunchilikni tartibga solishga qaratilgan **Davlat sektorida qadriyatlar va axloq kodeksi** ishlab chiqilgan [16]. U federal darajadagi barcha davlat sektori xodimlari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat bilan mukammal tanishish davlat xizmatiga qabul qilishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, Kanadada 2007-yilda **“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonun** kuchga kirishi bilan manfaatlar to'qnashuvi va etika masalalari bo'yicha mustaqil komissar lavozimi joriy qilingan. Komissar Kanada parlamentining vakili sifatida amaldagi hukumatdan mustaqil bo'lgan organ hisoblanadi. U nafaqat Jamoatlar palatasi a'zolari, balki vazirlar va Kanada Bosh vazirining o'zini tutishini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan organ hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat xizmatchilari faoliyatida odob-axloq masalalari milliy qonunchiligimizda nafaqat qonun, balki qonunosti hujjatlari bilan ham tartibga solinib, huquqiy asoslar yaratilgan, lekin asosiy masala, fikrimizcha, ularning ijrosi va qonunchilikda belgilangan normalarda samarali ijro hamda nazorat mexanizmlari, ayrim tashkiliy masalalar yetarlicha aks etmagani bilan bog'liq bo'lmoqda.

Masalan, davlat fuqarolik xizmatchilarining Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalaridan xabardorligi yetarli emas. Hatto, ayrim holatlarda rahbar xodimlar tomonidan ushbu qonun talablariga bepisand munosabatda bo'lish holatlari kuzatilmoqda.

Shuningdek, davlat xizmatchilarining kasb etikasi va odob-axloq qoidalariga rioya etmagani yuzasidan qonunchilikda nazoratni amalga oshiruvchi organ sifatida belgilangan Odob-axloq komissiyasi tomonidan o'z vaqtida nazorat tadbirlari olib borishda va ularning vakolatlarida kamchiliklar bor.

Odob-axloq qoidalarini buzgan davlat fuqarolik xizmatchilariga jazo qo'llash yoki ularga qo'llanadigan jazolarning turlichaligi ham ijro samaradorligiga ta'sir qilmoqda. Fikrimizcha, jazoning og'ir yoki yengilligi emas, barchaga nisbatan teng qo'llanilishi jazoning oldini olish funksiyasi samarali ishlashiga imkon beradi.

Shuningdek, ayrim vaqtlarda davlat xizmati organlari rahbarlari o'z xodimlarining kasb etikasi va odob-axloq qoidalarini buzishi bilan bog'liq holatlarga ular OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilganidan so'nggina e'tibor qaratmoqda. Odatda, davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi natijasida manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yish yetkazilgan zarar o'rnini qoplash, imzolangan shartnomalarni bekor qilish bilan cheklanib qolinmoqda. Fikrimizcha, bu borada mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish va kelgusida bunga yo'l qo'ymaslik uchun profilaktik choralar, haqiqiy axloq standartlarini nafaqat kasbiy faoliyatga, balki davlat xizmatchisining shaxsiy sifatlarida ham aks ettirish borasida ishlash kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur sohada mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida Buyuk Britaniyaning qator ijobiy tajribalarini O'zbekistonda ommalashtirish mumkin. Masalan, davlat fuqarolik xizmatchilari uchun ularning funksional vazifa va majburiyatlari, huquq va vakolatlari, kasb etikasi, odob-axloq normalaridan xabardorligini oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan hamkorlikda muntazam ravishda qisqa muddatli **"Etika" kurslarini tashkil etib borish** maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatida bo'sh ish joylariga nomzodlarni suhbatdan o'tkazish jarayonida ularning *davlat xizmatiga oid qonunchilik normalari hamda odob-axloq qoidalaridan xabardorligi darajasini davlat xizmatiga ishga qabul qilishning asosiy mezonlaridan biri sifatida belgilash*, ularning **avvalgi ish faoliyatiga baho berish** va shu asosda nomzodni lavozimga qabul qilish yoki rad etishni amaliyotga kiritish ham, fikrimizcha, ijobiy natijalar beradi.

Shu bilan birga, davlat xizmatchilarining kasb etikasi va odob-axloq qoidalariga zid xatti-harakatlari uchun qonunchilikda belgilangan **jazo choralari qayta ko'rib chiqish** kerak. Xususan, Odob-axloq komissiyalariga o'z xulosalaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchisiga nisbatan **to'g'ridan-to'g'ri jazo choralari qo'llash vakolatini** berish kerak. Bu borada, qaror qabul qilish rahbar – yakka shaxs ixtiyoriga bog'liq ekanligi boshqa bir manfaatdorlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur yo'nalishning tarqoq holda ekanligidan kelib chiqib, bizningcha, Senat raisi boshchiligida barcha bo'g'in va darajadagi davlat xizmatchilarining kasb etikasi va odob-axloq normalariga amal qilish holatlari yuzasidan qonunchilik normalarining bajarilishini nazorat qiladigan, qo'llanilgan jazo choralari ta'sirini baholab boradigan parlament palatalari vakillaridan iborat **Respublika odob-axloq komissiyasini tuzish** yoki bugungi kunda faoliyat yuritayotgan **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy va hududiy kengashlar** faoliyatining bir yo'nalishi sifatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan odob-axloq qoidalari ijrosi nazoratini belgilash kerak.

Xulosa qilganda, O'zbekiston manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasida kompleks yo'ldan borayotgan mamlakat hisoblanadi. Xususan, mamlakatimiz mexanizmlar rivojlanish darajasiga qarab ijobiy yutuqlarni huquq tizimiga joriy etib kelmoqda. Odob-axloq masalasida Buyuk Britaniyada ijobiy natijalar bergan qator ijobiy tendensiyalar qo'llanilishi allaqachon mamlakatimizda boshlangan bo'lsa-da, inobatga olinishi va kelgusi faoliyatda qo'llash kerak bo'lgan masalalar ham bor. Rivojlangan va bugun rivojlanayotgan ilmiy konsepsiya va modellarning milliy amaliyotimizga maqsadga muvofiq hamda manzilli tatbiq etilishi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha boshlangan islohotlarni mustahkamlash va ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Иқтибослар/Сноски /References:

1. Susan Rose-Ackerman, Corruption and conflicts of interest, in: Jean Bernard Auby / Emmanuel Breen / Thomas Perroud (Eds.), 2016, Corruption and Conflicts of Interest, Studies in Comparative Law and Legal Culture, p. 3.
2. Stark, Conflict of Interest in American Public Life, Harvard, Cambridge, 2000, p. 4.
3. Mark D. Jarvis & Paul G. Thomas, 2009, 'The Limits of Accountability: what can and cannot be accomplished in the Dialectics of Accountability?' Paper presented at Dalhousie University, Halifax, November 11-13, p. 11.
4. A. Mungiu Pippidi, (2016), The Quest for Good Governance, Cambridge University Press 2016.
5. United Kingdom Parliament. Bribery Act 2010: 2010 CHAPTER 23. – London: UK Public General Acts, 2021. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2010/23/contents>
6. Ethics and Professional Standards: Advice for RTPI Members, Updated 2017. – London: RTPI, 2017. – 32 <https://www.rtpi.org.uk/media/1966/ethics-update-2017.pdf>
7. Peter JOHN, United Kingdom (L, SOC). Congress of Local and Regional Authorities of the Council of Europe in 2018 <https://rm.coe.int/booklet-a6-conflicts-of-interest-coll-public-ethic-en/1680907923>
8. The Civil Service Code. – London: Government of the United Kingdom, 30 November 2020 (last updated 16 March 2024). <https://www.gov.uk/government/publications/civil-service-code/the-civil-service-code>
9. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RBQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son
10. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2022-y., 09/22/595/0921-son
11. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RBQ-931-son Qonuni
12. Official Homepage of the Ministry of Personnel Management of the Republic of Korea. – Sejong-si, Republic of Korea: Ministry of Personnel Management <https://www.mpm.go.kr/mpm/>
13. State Public Officials Act. – E-Law (Korea Legislation Research Institute) https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=444&lang=ENG
14. Ministry of Personnel Management. Reporting on Receipt of Gifts. – Sejong-si: Ministry of Personnel Management <https://www.mpm.go.kr/english/system/infoEthics/bizEthics04/>
15. Constitutional Court of the Republic of Azerbaijan. Legislation: Constitutional Law on regulating the implementation of human rights and freedoms in the Republic of Azerbaijan. – Baku: Constitutional Court <https://www.constcourt.gov.az/ru/legislation/29>
16. Vocharova E. Y. «Об этических аспектах регулирования государственной службы в Великобритании и Канаде» // Государственное управление. Электронный вестник. — 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/ob-eticheskix-aspektah-regulirovaniya-gosudarstvennoy-sluzhby-v-velikobritanii-i-kanade>

РАХМОНОВ Зафаржон Зайниддинович

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги
Юридик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш
институтини доценти в.б
E-mail: z.raxmanov95@gmail.com

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования):
РАХМОНОВ З.З. Давлат фуқаролик хизматчиларини ижтимоий ҳимоя қилиш механизмларини такомиллаштириш // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) Б. 26–31.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

АННОТАЦИЯ

Ушбу илмий мақолада давлат фуқаролик хизматчиларининг ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилишнинг аҳамияти, ижтимоий ҳимоя қилишнинг механизмлари, бу борада ҳорижий ҳамда миллий тажриба, олимларнинг турлича қарашлари, ёндашувлари илмий таҳлил қилинган. Шунингдек, давлат фуқаролик хизматчиларини ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилишда рағбатлантириш тўловлари, тиббий ва ижтимоий кафолатлар, меҳнатга муносиб ҳақ тўлаш масалаларининг муҳим жиҳатлари ўрганилган. Ушбу таҳлил ва фикрлардан келиб чиққан ҳолда, давлат фуқаролик хизматчиларини ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилиш механизмларини такомиллаштириш, хусусан уларни рағбатлантириш учун тўловларни амалга ошириш, тиббий ва ижтимоий кафолатларнинг тизими бўлиши, шунингдек давлат фуқаролик хизматчилари меҳнатига ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш, бунда давлат фуқаролик хизматчиларининг иш стажини, маълумоти, тажрибасига қараб унга қўшимча иш ҳақи тўлашга қаратилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: давлат фуқаролик хизматчиси, ижтимоий ҳимоя, тиббий хизмат кўрсатиш, суғурта, иш ҳақи.

РАХМОНОВ Зафаржон Зайниддинович

и.о. доцента Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров при
Министерстве юстиции Республики Узбекистан
E-mail: z.raxmanov95@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье научно проанализированы значение социальной защиты государственных гражданских служащих, механизмы социальной защиты, зарубежный и национальный опыт в этой области, различные взгляды и подходы ученых. Также изучены важные аспекты вопросов стимулирующих выплат, медицинских и социальных гарантий, достойной оплаты труда в социальной защите государственных гражданских служащих. Исходя из этого анализа и мнений, разработаны предложения и рекомендации, направленные на совершенствование механизмов социальной защиты государственных гражданских служащих, в частности, осуществление выплат для их стимулирования, наличие системы медицинских и социальных гарантий, а также совершенствование системы оплаты труда государственных гражданских служащих, при этом выплата дополнительной заработной платы государственным гражданским служащим в зависимости от их стажа работы, образования, опыта.

Ключевые слова: государственный гражданский служащий, социальная защита, медицинское обслуживание, страхование, заработная плата.

ZAFARJON Rakhmonov

Senior lecturer of Institute for retraining and advanced training of legal personnel under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law (PhD),
E-mail: z.raxmanov95@gmail.com

ANNOTATION

This scientific article scientifically analyzes the significance of social protection for state civil servants, social protection mechanisms, foreign and national experience in this area, and various views and approaches of scholars. Based on this analysis and opinions, proposals and recommendations were developed aimed at improving the mechanisms of social protection of state civil servants, in particular, the implementation of payments for their motivation, the existence of a system of medical and social guarantees, as well as improving the system of remuneration of state civil servants, with the payment of additional wages to state civil servants depending on their work experience, education, experience.

Keywords: state civil service, social protection, medical services, insurance, wages.

Қайд этиш жоизки, давлат фуқаролик хизматчилари давлат ҳокимиятини амалга оширишда муҳим омилдир. Давлат ўз олдига қўйган мақсад ва вазифаларни амалга оширишда уларга таянади. Шу сабабли давлат ҳокимиятининг мустақкамлиги, барқарорлиги ҳамда самарадорлиги унда фаолият кўрсатаётган хизматчиларнинг ҳуқуқий ва ижтимоий ҳимоясига, уларнинг профессионалик даражаси ва билимига боғлиқдир.

Бу борада давлат фуқаролик хизматчисини ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилиш хизматни ўташдаги муҳим элемент ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Биз бошқарув соҳасида, биринчи навбатда, ижро ҳокимияти органлари фаолиятини такомиллаштириш, кадрлар, моддий ресурслардан оқилона фойдаланиш бўйича аниқ мезон ва тартибларни жорий этишимиз зарур” [1], – дея алоҳида таъкидлагани ҳам бежиз эмас.

Давлат фуқаролик хизматчисини ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилишни умумий маънода “кафолат” сифатида баҳолаш мумкин. “Кафолат” тушунчасига тўхталадиган бўлсак, Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “кафил” тушунчасига тариф берилган бўлиб, унга кўра, кафил бирор нарсага ёки бирор кимса ҳақида бошқаларни ишонтириб, масъулиятни, жавобгарликни ўз бўйнига олувчи, кафолат берувчи шахс тушунилади. “Кафолат” эса кафил бўлувчи нарса, шахс маъноларида қўлланади [2].

Ҳуқуқшунос Х.Т. Азизовнинг фикрича, хизматчи давлат органининг ваколатларини, давлат функцияларини бажаради, давлат қурилишининг маълум мақсадларига эришиш учун махсус вазифаларни ҳал этади, давлат (давлат органи) эса, ўз навбатида, хизматчи олдида ўзининг ҳуқуқ ва манфаатларини ўрнатади ва таъминлайди, ижтимоий-ҳуқуқий кафолатлар, жавобгарлик, пул маблағлари билан таъминлаш каби мажбуриятларга эга бўлади [3]. Х.Т. Азизовнинг ушбу фикрига қўшилаемиз, яъни давлат ўз хизматчиларининг ҳуқуқлари, шу жумладан, ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан кафолатларини таъминлаши лозим.

Фикримизча, давлат фуқаролик хизматчисини ҳимоя қилишни икки турга “ҳуқуқий ҳимоя” ва “ижтимоий ҳимоя”га бўлиш мумкин. Дастлаб ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилишга оид нормаларга назар ташласак. Ҳуқуқий ҳимоя бўйича энг муҳим норма, шубҳасиз, янги таҳрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 37-моддаси дейишимиз мумкин. Ушбу моддага биноан, “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари давлат хизматида киришда тенг ҳуқуққа эгадирлар. Давлат хизматини ўташ билан боғлиқ чекловлар қонун билан белгиланади” [4].

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси томонидан бир нечта халқаро битимлар ҳам тан олинди, ратификация қилинган. Хусусан, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси Ўзбекистон мустақилликка эришганидан кейин қўшилган биринчи халқаро-ҳуқуқий ҳужжат бўлди. Унинг 21-моддасида “ҳар бир инсон ўз мамлакатида давлат хизматида киришда тенг ҳуқуққа эгаллиги” белгилаб қўйилган. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 25-моддасида ҳам деярли ўхшаш қоида мавжуд бўлиб, унга кўра, ҳар бир фуқарода ҳеч қандай камситишларсиз ва асоссиз чекловларсиз ўз мамлакатида умумий тенглик шартлари асосида давлат хизматида кириш ҳуқуқи ва имконияти мавжуд.

Сўнгги вақтларда хизматчиларнинг ҳуқуқий ҳимояси билан бирга ижтимоий ҳимоясига ҳам эътибор кучайди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги директорининг 2022 йил 6 декабрдаги 3-2022-сон буйруғи билан қабул қилинган Давлат фуқаролик хизматчиси билан тузиладиган меҳнат шартномасига доир намунавий талабларда “Меҳнат шартномасида давлат фуқаролик хизматини ўташнинг асослари ва шартлари, давлат фуқаролик хизматчисининг ҳуқуқлари, мажбуриятлари ҳамда жавобгарлиги, давлат фуқаролик хизматини ўташ билан боғлиқ чекловлар, шунингдек, уни ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилишга тааллуқли қоидалар кўрсатилади” [5] – деб белгилаб қўйилди.

Давлат фуқаролик хизматчиларини рағбатлантириш уларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг яна бир усули ҳисобланади. Давлат фуқаролик хизмати соҳасида рағбатлантириш ҳақида фикр юритилганда, унинг қонунчиликдаги ўрнини аниқлаштириб олиш лозим. Ҳуқуқий рағбатлантириш институтининг шаклланиши ва ривожланишининг тарихий босқичларини таҳлилқилиб, О.М.Киселева ва А.В.Малко “Қонунчилик тартибсиз ва индивидуал элементлардан ривожланишнинг минг йиллик босқичидан кўпроқ вақт давомида рағбатлантириш чоралари кенг тизим даражасида ривожланди” [6], – деган фикрларни билдирган.

Ҳуқуқшунос А.В. Малко давлат фуқаролик хизматида рағбатлантириш чоралари қонуности ҳужжатлари асосида тартибга солинишини танқид қилган ҳолда ҳуқуқий тартибга солиш соҳасини оптималлаштириш ва тўлиқ ривожлантириш учун рағбатлантириш тўғрисидаги Мукофот кодексини қабул қилишни таклиф этади. Ушбу ғоя тарафдорлари сафига ҳуқуқшунос олимлар Й.В. Типикина, В.А. Григорев, А.Н. Караваев, В.В. Попов [7] ҳам қўшилган. Биз ҳам бу фикрга қўшилган ҳолда айтишимиз мумкинки, давлат фуқаролик хизмати соҳасида ҳам рағбатлантирувчи нормалар ва уларни қўллаш тартиби фақат қонун даражасида белгиланиши лозим, идоравий ҳужжатлар асосида эмас.

Миллий қонунчиликда давлат фуқаролик хизматчиларини рағбатлантириш бўйича норма аввал бўлмаган, бироқ “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонунда бу белгилаб қўйилди. Унга кўра, давлат фуқаролик хизматчисига қуйидаги рағбатлантириш чоралари қўлланиши мумкин:

- лавозим маошига қўшимча устамалар;
- пул мукофоти;
- навбатдан ташқари малака даражасини бериш;
- миннатдорчилик эълон қилиш;
- қимматбаҳо совға, эсдалик ёки кўкрак нишони ёхуд ёрлиқ билан мукофотлаш [8].

Рағбатлантириш чораларини қўллаш давлат органи раҳбари томонидан ёки унинг тавсиясига кўра амалга оширилади. Демак, рағбатлантириш чоралари белгилангани билан уларни қандай тартибда қўллаш ва қўллашда нималарга эътибор бериш кераклиги ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Давлат фуқаролик хизматчисига нисбатан рағбатлантириш чораларини қўллаш тўғрисидаги масалани ҳал этиш чоғида қуйидагилар эътиборга олинади:

- ой, чорак, ярим йил, йил яқунлари бўйича фаолиятнинг энг муҳим самарадорлик кўрсаткичларини бажарганлик ва ошириб бажарганлик;
- ўта муҳим вазифаларни бажарганлик;
- зиммасига юклатилган вазифанинг мураккаблиги ва муҳимлиги, шунингдек, унинг фаолиятида эришилган юқори натижалар;
- байрам кунлари, юбилейлар, нишонланадиган саналар ва пенсияга чиқиш.

Юқоридагиларни таҳлил қилган ҳолда давлат фуқаролик хизматида рағбатлантириш бўйича қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

биринчидан, давлат фуқаролик хизматида рағбатлантириш чораларини ҳуқуқий тартибга солишда маъмурий ҳуқуқ нуқтаи назаридан ёндашиш муҳим аҳамият касб этади;

иккинчидан, давлат фуқаролик хизматида рағбатлантириш чораларини моддий ва процессуал асосларини ўзида акс этган “Давлат фуқаролик хизматида рағбатлантириш тўғрисида”ги қонунни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш ўринли деб ҳисоблаймиз. Ушбу қонуннинг қабул қилиниши, давлат фуқаролик хизматчиларини рағбатлантиришнинг аниқ тартиб ва шартлари белгилаб берилишига хизмат қилади.

Давлат фуқаролик хизматчиларининг “ижтимоий ҳимояси” ҳам хизматни ўташда муҳим аҳамият касб этади. Сўнги вақтларда хизматчиларнинг ҳуқуқий ҳимояси билан бирга ижтимоий ҳимоясига ҳам эътибор кучайди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги директорининг 2022 йил 6-декабрдаги 3-2022-сон буйруғи билан қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизматчиси билан тузиладиган меҳнат шартномасига доир намунавий талаблар”да “Меҳнат шартномасида давлат фуқаролик хизматини ўташнинг асослари ва шартлари, давлат фуқаролик хизматчисининг ҳуқуқлари, мажбуриятлари ҳамда жавобгарлиги, давлат фуқаролик хизматини ўташ билан боғлиқ чекловлар, шунингдек уни ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилишга тааллуқли қоидалар кўрсатилади”[7] деб белгилаб қўйилди.

Халқаро доирада ҳам давлат фуқаролик хизматчиларини ижтимоий жиҳатдан ҳимоялаш муҳим аҳамият касб этишини кўриш мумкин. Жумладан, Халқаро меҳнат ташкилоти 1952 йилда қабул қилинган “Ижтимоий таъминотнинг минимал стандартлари” 102-сонли Конвенциясида ходимларнинг тўққиз турдаги ижтимоий ҳимоя турлари белгиланган бўлиб, улар қуйидагича:

- 1) тиббий ёрдам;
- 2) ишсизлик нафақаси;
- 3) пенсия (кексалик нафақаси);
- 4) боқувчисини йўқотганлик нафақаси;
- 5) ишлаб чиқаришда шикастланганлик нафақаси;
- 6) ногиронлик нафақаси;
- 7) ҳомиладорлик ва туғиш нафақаси
- 8) касал бўлганда бериладиган нафақа;
- 9) оила нафақаси [8].

Давлат фуқаролик хизматчиларини ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилишдаги яна бир муҳим масала давлат фуқаролик хизматчиларининг иш ҳақлари. Иш ҳақи ҳар бир ишловчи ходимни биринчи даражада қизиқтирувчи омил бўлиб, республикамизда давлат фуқаролик хизматчисининг ойлик маошларини оширмасдан туриб, бу борада самарадорликка эришиш

қийин. Ҳар бир давлат фуқаролик хизматчиси ўзининг маълумоти, иш стажы, тажрибасы ва ишлаш даражасига қараб иш ҳақи олиши лозим.

Миллий қонунчиликка назар ташлайдиган бўлсак, давлат фуқаролик хизматчисининг меҳнатига ҳақ тўлаш қуйидагиларни ўз ичига олади:

- базавий лавозим маоши;
- кўп йиллик хизмат учун қўшимча тўлов;
- малака даражаси учун қўшимча тўлов;
- давлат фуқаролик хизматчиси фаолиятининг энг муҳим самарадорлик кўрсаткичларига эришганлик учун қўшимча устама;
- ҳисобот даври яқунлари бўйича рағбатлантириш тўловлари.

Давлат фуқаролик хизматчисининг меҳнат шароитлари, у алоҳида муҳим топшириқлар ва мураккаб вазифаларни бажаргани, бошқа шартлар муносабати билан унинг базавий лавозим маошига қонунчиликда белгиланган рағбатлантирувчи қўшимча тўлов ва устамалар тўланиши мумкин.

Дунёнинг ривожланган давлатларидан бири бўлган Сингапурда[1] давлат ташкилоти хизматчиларининг иш ҳақини ҳисоблаб чиқишда бозор усулларида фойдаланилади. Шунинг учун иш ҳақининг миқдори сезиларли даражада юқори. Ҳозирги кунда юқори лавозимдаги хизматчиларнинг иш ҳақи хусусий секторнинг ўртача иш ҳақига боғлиқ ҳолда ҳисоблаб чиқилади ҳамда уларнинг 1 ойлик иш ҳақлари 20 000–25 000 долларни ташкил этади. Ўзбекистон Республикасида ялпи ички маҳсулотнинг ўсиш тенденцияси тобора ривожланиб бормоқда, шуни ҳисобга олиб, давлат фуқаролик хизматчиларининг иш ҳақларини эркин бозор усулларида (хусусий секторда бериладиган иш ҳақига нисбатан) фойдаланган ҳолда доимий равишда ўзгартириб бориш керак.

Бу борада Молдова Республикасининг ҳам тажрибасы ўрганишга лойиқ. Бу давлатда давлат фуқаролик хизматчиларининг иш ҳақлари уларнинг лавозим даражалари, шунингдек, мажбуриятларининг қийинлиги ва жавобгарлигига қараб белгиланади. Шунингдек, ушбу давлатда хизматчиларга яратилган кафолатлар ҳам эътиборга лойиқ. Яъни:

- хизматчи ва унинг оила аъзоларига давлат профилактик даволаш муассасаларида бепул тиббий хизмат кўрсатилади ва яшаш жойи билан таъминланади;
- яшаш жойидан бошқа жойда хизмат қилаётган бўлса, транспорт чиқимлари учун компенсация тўланади ва 15 йилга уй қуриш учун фоизсиз кредитлар берилади;
- иш стажы 15 йилдан кам бўлмаган хизматчиларга коммунал хизматлар ва яшаш жойи учун тўловларга имтиёзлар берилади;
- пенсияга чиққан хизматчига берилган барча ижтимоий кафолатлар ва компенсациялар сақланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб давлат фуқаролик хизматчиларини ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш бўйича қуйидагича таклиф ва тавсифларни билдиришимиз мумкин:

- давлат фуқаролик хизматчиларининг лавозим даражалари уларнинг вазифалари ва мажбуриятлари оғирлик даражасига қараб бир-биридан ажратиш;
- Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси ва «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги Қонунда давлат кафолатлари умумий тарзда акс этган. Шунинг учун ҳар бир давлат фуқаролик хизматчиси учун давлат кафолатларини аниқ, батафсил ва лавозим даражаларига қараб белгилаш;
- давлат фуқаролик хизматчиларининг иш стажы, маълумоти, тажрибасига қараб унга қўшимча иш ҳақи тўланиши ошириб борилиши тизимини аниқ белгилаш.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 336. // Annotated dictionary of the Uzbek language: more than 80,000 words and phrases. – Т.: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2006. – P. 336.
3. Азизов Х. Кадрлар сиёсати ва давлат хизматчиларини тайёрлаш: замонавийлик, тизимлилик, самарадорлик. / –Тошкент: Жамият ва бошқарув журнали. – 2018. – Б. 41. // Azizov X. Personnel policy and training of civil servants: modernity, systematization, efficiency. / – Tashkent: Journal of Society and Management. – 2018. – P. 41.
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (янги таҳрир) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги директорининг «Давлат фуқаролик хизматчиси билан тузиладиган меҳнат шартномасига доир намунавий талабларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 3-2022-сон буйруғи // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.01.2023 й., 10/23/3413/0023-сон.
6. Типикина Е. В. Заслуга как основание для правового поощрения... – С. 10 ; Григорьев В. А. Наградное (поощрительное) право как средство предупреждения коррупции среди государственных служащих // Конституционное и муниципальное право. 2003. № 3. – С. 35–37.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги директорининг “Давлат фуқаролик хизматчиси билан тузиладиган меҳнат шартномасига доир намунавий талабларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 3-2022-сон буйруғи // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.01.2023 й., 10/23/3413/0023-сон.
8. Конвенции и рекомендации, принятые Международной Конфедерацией Труда. 1919 — 1956. Том 1. Международное Бюро Труда. Женева, 1991. С.1655. (Conventions and Recommendations adopted by the International Trade Union Confederation. 1919 - 1956. Volume 1. International Labor Organization. Geneva, 1991, p. 1655.)
9. Попова В. В. Поощрительные нормы современного российского права: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Омск, 2015. – С. 24–25.
10. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.09.2024 й., 03/24/963/0735-сон.

TURDIYEV Bobir Sobirovich

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta prokurori

E-mail: bobir.turdiyev.uz@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0004-4253-2985>

SHOVQIN VA INSONNING QULAY ATROF-MUHITGA BO'LGAN HUQUQI

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): TURDIYEV B.S.
Shovqin va insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi // Юрист ахборотномаси –
Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2024) В. 32–41.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Shovqin insonning hayot sifati va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy muammodir. Tadqiqotlarga ko'ra 10-15 foiz insonlar shovqinga yuqori sezgir bo'lib, bu stress, uyqu buzilishi va eshitish qobiliyatini yo'qotish kabi turli kasalliklarga olib kelishi mumkin. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Yevropa agentligi shovqinni havoning ifloslanishidan keyingi ikkinchi muhim ekologik muammo sifatida ta'kidlaydi. Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq nafaqat toza havo, suv va oziq-ovqatga ega bo'lishni, balki shovqinni samarali nazorat qilishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada shovqin, uning salbiy oqibatlari va uni yumshatish choralari bilan bog'liq milliy va xalqaro standartlar, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti ko'rib chiqiladi. Qulay va shovqinsiz atrof-muhitni ta'minlash uchun huquqiy va institutsional mexanizmlarni yaratish muhimligi ta'kidlanadi. Maqola shovqin monitoringi milliy tizimini yaratish, shovqin ma'lumotlariga kirishni yaxshilash, shovqinning ta'sir qilish vaqti bo'yicha me'yoriy hujjatlar va standartlardagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, shuningdek, transport va qurilish kabi sohalarda shovqin me'yorlariga rioya qilishga oid tashabbuslarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: shovqin bilan ifloslanish, qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq, sog'liq-salomatlik, shovqin nazorati, shovqin standartlari, shovqinsiz muhit, shovqinni o'lchash tizimi, barqaror rivojlanish.

ТУРДИЕВ Бобир Собирович

Старший прокурор Правоохранительной академии

Республики Узбекистан

E-mail: bobir.turdiyev.uz@gmail.com

ШУМ И ПРАВО ЧЕЛОВЕКА НА БЛАГОПРИЯТНУЮ ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

АННОТАЦИЯ

Шум является значимой проблемой, оказывающей влияние на качество жизни и здоровье человека. Исследования показывают, что 10-15% людей имеют повышенную чувствительность к шуму, что может приводить к различным заболеваниям, таким как стресс, расстройства сна и потеря слуха. Европейское агентство по охране окружающей среды выделяет шум как вторую по важности экологическую проблему после загрязнения воздуха. Право на благоприятную окружающую среду включает не только доступ к чистому воздуху, воде и пище, но и необходимость внедрения эффективных мер контроля шума. В данной статье рассматриваются национальные и международные стандарты, нормативные акты и практики зарубежных стран, связанные с шумом, его негативными последствиями и мерами по его снижению. Подчеркивается важность создания правовых и институциональных механизмов для обеспечения здоровой и безшумной окружающей среды. Статья поддерживает инициативу по созданию национальной системы мониторинга шума, улучшению доступа к данным о шуме, устранению противоречий в нормативных актах

и стандартах по времени воздействия шума, а также соблюдению норм шума в таких ключевых секторах, как транспорт и строительство.

Ключевые слова: загрязнение шумом, права на благоприятную окружающую среду, воздействие на здоровье, контроль шума, шумовые стандарты, безшумная среда, система измерения шума, устойчивое развитие.

BOBIR Turdiev

Senior prosecutor,
Law Enforcement Academy of the
Republic of Uzbekistan
E-mail: bobir.turdiev.uz@gmail.com

NOISE AND THE RIGHT TO A HEALTHY ENVIRONMENT

ANNOTATION

Noise pollution is a significant issue affecting the quality of life and human health. Studies show that 10-15% of individuals are sensitive to noise, leading to a range of health issues such as stress, sleep disorders, and hearing loss. The European Environment Agency has identified noise as the second most pressing environmental concern, after air pollution. The right to a healthy environment encompasses not only access to clean air, water, and food, but also effective noise control measures. This paper explores national and international legal frameworks, regulations, and practices in foreign countries concerning noise pollution, its harmful effects, and the strategies for mitigating it. It emphasizes the need for legal and institutional frameworks to guarantee a healthy, noise-free environment. The article advocates for the establishment of a nationwide noise monitoring system, improving access to noise data, harmonizing noise-free time regulations in national legislation and standards, and enforcing noise control measures in key sectors such as transportation and construction.

Keywords: noise pollution, environmental rights, health impacts, noise control, noise standards, legal framework, noise-free environment, noise measurement system, sustainable development.

Ma'lumotlarga ko'ra, 10-15% insonlar shovqinga sezgir hisoblanadi [1]. Shovqin natijasida insonning dam olishga bo'lgan huquqlari buzilishi, ruhiy va jismoniy salomatligi bilan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Yevropa Atrof-muhit muhofazasi tashkilotiga ko'ra mintaqada havo ifloslanishidan keyin ikkinchi eng katta muammo shovqin hisoblanadi [2] Shovqin hayot sifati pasayishiga olib kelib, surunkali baland shovqin ta'siriga qolish salomatlik bilan bog'liq turli muammolarni, xususan stress darajasi ortishi, uyqu sifati buzilishi, eshitish qobiliyati pasayishi kabi sog'liq bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi. Shovqin darajasini pasaytirish, ayniqsa shahar muhitida, insonning jismoniy va ruhiy salomatligi hamda ijtimoiy farovonligini yaxshilaydi [3].

Toza havo, xavfsiz va yetarli suv hamda sanitariya, sog'lom va barqaror oziq-ovqat, yashash, ishlash va dam olish uchun zararli ta'sirdan xoli muhit, sog'lom ekotizim va bioxilmaxillik qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqning moddiy tarkibini tashkil etadi [4]. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ko'ra qulay atrof-muhit huquqining moddiy elementlari qatoriga shovqin ham kiritilgan [5].

Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Orxus konvensiyasida (1998-yil) ekologik axborot deganda atrof-muhit elementlariga ta'sir qiluvchi yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlar, moddalar, energiya, shu jumladan shovqin va boshqa ma'lumotlar tushunilishi ko'rsatilgan. Konvensiya atrof-muhit bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilishni talab qilib, shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash uchun davlatlar oldida fuqarolarni atrof-muhitga oid axborot bilan ta'minlash majburiyatini yuklaydi.

Adabiyotlar tahlili. Bir qator tadqiqotlar shovqinga oid huquqiy me'yorlar va qonunchilik, milliy va xalqaro standartlarni tahlil qiladi [3]. Jumladan, shovqin insonning qulay atrof-muhit huquqi

buzilishi sababi hisoblanishi, shovqin muammosi hal etilmasa, qulay atrof muhit huquqini amalga oshirish muammoligicha qolishi qayd etilgan [6]. Tadqiqotlar muammoni hal etish bo'yicha asosiy vakolatli shaxslar va manfaatdor tomonlarni aniqlash uchun huquqiy va institutsional tizimni tahlil qilib, muammoni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqanligini ko'rish mumkin [6]. Jumladan, yo'l infratuzilmasi, rivojlanish dasturlari shovqin darajasi va ta'sirini baholash, shaharsozlik rejalashtirish va qarorlar qabul qilishda shovqin xaritasini shakllantirish muhim vosita sifatida qayd etilgan [7].

Boshqa bir tadqiqotda shovqin muammosini hal etish bo'yicha ma'muriy, odil sudlov, qonunchilik, jamoatchilik bilan hamkorlik va xalqaro hamkorlikka oid choralar taklif etilgan [8]. Xususan, ma'muriy choralar rejalashtirish, siyosatni ishlab chiqish va qonunchilikni tatbiq etish, shovqin manbalarini (sanoat komplekslari, avtomagistral, temir yo'l aeroport) aholidan imkon qadar uzoqroqda joylashtirish hamda shovqinni pasaytirish va yumshatish choralari orqali shovqinni nazorat qilishni nazarda tutadi. Huquqiy choralar vakolatli markaziy va hududiy davlat organlarini belgilash, shovqin me'yorlari, tegishli vaqt oraliqlarida ruxsat etilgan normalar, ma'muriy shikoyat mexanizmlari va maxsus yoki ixtisoslashgan sudlarni tashkil etishni nazarda tutadi [8]. Jamoatchilik bilan hamkorlik yo'nalishida bu shovqinning salbiy ta'siri haqida fuqarolar xabardorligi va bilimni oshirish, fuqarolarga shovqinni nazorat qilish uchun huquqiy va boshqa choralarga murojaat qilish imkoniyatini taqdim etish, atrof-muhit muhofazasiga fuqarolarni ta'lim va jamoat birlashmalari orqali keng jalb etish, atrof-muhit muhofazasiga oid jamoat birlashmalarini qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirishni nazarda tutadi [8].

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Salomatlik va atrof-muhitga oid tavsiyalar to'plamida shovqin bo'yicha choralar yo'l infrastrukturasi, shinalar, transport oqimini kamaytirish va yuk mashinalar harakatini cheklash, shovqin kamaytirish uchun to'siqlar barpo etish, yashash mavzellarida va uylarning bir tarafida tinch zonalarni loyihalash va ta'minlash, o'yin-kulgiga mo'ljallangan tadbir va binolar (konsert, klub, barlarda) uchun shovqin darajasini cheklashga (15 daqiqa o'rtachasi 100 dB(A)) oid chora-tadbirlarni nazarda tutadi [5].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan Yevropa mintaqasi uchun ishlab chiqilgan standartlarda avtomobil va temir yo'l hamda korxonalaridan chiqadigan va bino fasadiga shovqin yuklamasi darajasi kunduzi 53 dB Lden va kechqurun 45 dB Lnight, temir yo'l uchun 54 dB Lden va 44 dB Lnight, aviatsiya uchun 45 dB Lden va 40 dB Lnight, havo turbinasi uchun 45 dB Lden etib belgilangan [9].

Yevropa Ittifoqi shovqinni tartibga solishga oid 2002/49/EC direktivasida a'zo davlatlarni 100 000 dan ko'p aholi yashaydigan massivlar, asosiy yo'llar (yillik avtomashina qatnovi 3 mln. va undan yuqori) va katta aeroportlarga (yillik 50 000 va undan yuqori uchish yoki qo'nish) oid shovqin xaritasi va uni boshqarish harakatlar dasturini har 5 yilda tayyorlash va chop etishni talab etadi [10]. Harakatlar dasturi eng kamida quyidagi talablarga javob berishi kerak: har bir obyekt, shovqin manbalari, mas'ul organ, belgilangan cheklov yoki me'yorlar, shovqinni xaritalashtirish natijalari, shovqin salbiy ta'sir qiladigan fuqarolar taxminiy soni, aniqlangan muammolar va ularni hal etishga oid choralar, o'tkazilgan jamoatchilik maslahatlashuvlari, yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategiya, moliyaviy xarajatlar, dastur amalga oshirilishi va natijalarini baholash. Dastur transport qatnovi, yerdan foydalanishni rejalashtirish, shovqin manbalariga oid texnik choralar, past shovqinli manbalarni tanlash, iqtisodiy rag'batlantirish yoki tartibga solishga oid choralarni nazarda tutishi mumkin [10]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida avtotransport shovqinini pasaytirish uchun past tovush chiqaradigan shinalardan foydalanish va shinalar markirovkasiga oid talablar ham belgilanganligini ko'rish mumkin [11].

Niderlandiyada sog'lom yashash muhiti uchun eng asosiy 10 ta tamoyil (qadriyat)lar belgilangan bo'lib, ular qulay muhit va xulq-atvorni shakllantirish orqali qulay atrof-muhit huquqini amalga oshirish va ta'minlashga qaratilgan. Bunda shovqindan xoli muhit deganda kamida binoning bir tarafida, shovqindan xoli tarafda yotoqxonalarini joylashtirish va shu taraf tashqarisida tijoriy obyektlarni, konditsioner va havo ventilyatsiyasi tizimlarini joylashtirmaslikni nazarda tutadi [12].

Shuningdek, Niderlandiyada insonning qulay-atrof muhitga bo'lgan huquqi havo, suv sifati, shovqin va boshqa manbalarga oid minimal chegaraviy me'yorlarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Xususan, "Atrof-muhit to'g'risida"gi Qonunda atrof-muhit sifati ko'rsatkichlari qulay atrof-muhit sifati ta'minlash uchun o'lchab bo'ladigan qiymatlarda ifodalaniib, shovqin darajasi atrof-muhit sifati ko'rsatkichlari qatoriga kiradi [13]. Bunda sanoat korxonalarini, avtomobil yo'llari va temir yo'llardan chiqadigan shovqin darajasining eng yuqori chegarasi qonunchilik bilan belgilaniib, unga rioya etilishi doimiy monitoring qilinadi, o'lchanadi va shovqin darajasi reestrda qayd qilib boriladi.

Bunda avtomobil va temir yo'ldan chiqadigan shovqin darajasi 2013-yildan beri monitoring qilinib, o'lchab kelinadi va o'lchash majburiy hisoblanadi. Rasmiy o'lchov stansiyalardan tashqari, fuqarolar va tashkilotlar tomonidan havo, suv, shovqin darajasini o'lchash uchun ***Samen Meten*** (<https://www.samenmeten.nl/>) platformasi tashkil etilgan.

Ayni paytda, shovqinga sezgir binolarga ta'sir etishi mumkin bo'lgan shovqin darajasi chegarasi belgilangan. Jumladan, uzoq muddatli ruxsat etilgan standart shovqin darajasi soat 07.00-19.00 gacha 50 dB(A), 19.00-23.00 oralig'ida 45 dB(A), 23.00-07.00 oralig'ida 40 dB(A) ruxsat berilgan. Shovqinga oid normativlarda avtomobil va temir yo'l hamda korxonalardan chiqadigan va bino fasadiga shovqin yuklamasi darajasi ham belgilangan. Shovqinga sezgir binolar ichidagi shovqinga yuqori darajada sezgir joylar (xonalar) uchun ruxsat etilgan uzoq muddatli shovqin darajasi tegishlicha 35, 30, 25 dB(A) etib belgilangan. Transportdan chiqadigan standart shovqin darajasi 19.00-07.00 oralig'ida 70 dB(A), shovqinga yuqori darajada sezgir joylar (xonalar) uchun esa 55 dB(A) deb belgilangan [14]. Hujjat bilan ayrim joylar, asosan qishloq joylar tinch-osuda hududlar sifatida belgilanishi mumkin.

Shuningdek, tijoriy qurilish va buzish ishlarini amalga oshirishda shovqin me'yorlari belgilangan. Bunda qurilish va buzish ishlari dushanba-shanba kunlari soat 07.00 dan 19.00 ga qadar olib borilishi va shovqin darajasidan kelib chiqib, uning ruxsat etilgan davomiyligi (muddatlari) belgilangan. Jumladan, shovqinga sezgir joylarda – turar-joylar, sog'liqni saqlash, maktabgacha va ta'lim muassasalari chegarasida 80 dB(A)dan baland shovqinga ruxsat berilmagan bo'lsa, 65 dan 70 dB(A)gacha shovqinga 15 kungacha, 60-64 dB(A) shovqinga 30 kungacha ruxsat berilgan. Hujjatda yuqoridagi kabi vibratsiya darajasi, mobil maydalagich (drobilka) shovqiniga oid normativ chegaralar ham belgilangan [15].

Janubiy Koreyada "Ekologik siyosat to'g'risida"gi asosiy Qonunda havo, suv, tuproq, dengiz, sun'iy yorug'likdan ifloslanish, shovqin, vibratsiya, qo'lansa hid, quyosh nurlarini to'sib qo'yish atrof-muhit ifloslanishi ekanligi qayd etilgan [16]. Yuqoridagi konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, biznes sub'yektlar va fuqarolar zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklangan. Qonun biznes sub'yektlar zimmasiga ixtiyoriy ravishda ekologik ifloslanish va zararlanishning oldini olish choralarini ko'rish, davlat bilan ekologiya muhofazasiga oid siyosatni amalga oshirishda ishtirok etish va hamkorlik qilish majburiyatini yuklagan.

Maktab salomatligi qonuni esa o'quvchi, o'qituvchi va xodimlar salomatligini muhofaza qilish uchun sanitariya, ventilyatsiya, yorug'lik, shovqin, chang, havo ifloslanishining oldini olish choralarini ko'rish, maktablarda har yarim yilda qulay atrof-muhit sifatini kamida bir marta tekshirish, har bir sinf xonada havo tozalaydigan va uning sifatini o'lchaydigan qurilmalar o'rnatish, sanitariya

holatiga oid o'tkazilgan tekshiruvlar natijalarini maktab saytida yoki vazirlik saytida jamoatchilik uchun ochiqlash ko'rsatilgan [17]. Koreyadagi maktablarni tanlanma asosida o'rganish natijasida, maktabdagi har bir auditoriya, xona va boshqa yordamchi xonalar (oshxona, sport zal, konferens zal) kesimida sanitariya holatiga oid ma'lumotlar, shu jumladan yorug'lik, shovqin darajasi, havo sifati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Shovqin va vibratsiyani nazorat qilish to'g'risidagi qonun fuqarolar osoyishtaligi va qulay atrof-muhit huquqini ta'minlashga qaratilgan muhim qonunlardan hisoblanadi. Qonunda Ekologiya vazirligi har besh yilda masalaga oid kompleks dastur qabul qilishi, mamlakat bo'ylab o'lchash vositalarini o'rnatish va muntazam o'lchov ishlarini olib borish, shovqin xaritasini internet sahifasida ochiqlash nazarda tutilgan [18]. Maktab yoki kasalxonada yondosh hududlarda shovqin chiqaradigan inshootlarni joylashtirish uchun mahalliy hokimiyatdan ruxsat olish talab etiladi. Shuningdek, shovqinni tartibga solish uchun ruxsat etilgan shovqin darajasini belgilash, shovqinni kamaytirish inshootlarini joylashtirish, shovqin oshsa pasaytirish choralari ko'rish haqida ogohlantirish, ogohlantirishga amal qilmaganda faoliyatni to'xtatib qo'yish, korxonalar va tashkilotlarda shovqinni boshqarish uchun eko injenerlarni tayinlash kabi mexanizm va choralar nazarda tutilgan.

Qonun ko'p qavatli uylarda qavatlar oralig'idagi shovqinni kamaytirish va nizolarni hal etish, shovqin chiqaradigan qurilishni amalga oshirish uchun mahalliy hokimlikdan ruxsat olish, qurilishni boshlashdan oldin ovoz o'tkazmaydigan yoki pasaytiradigan uskunalar o'rnatish, hokimlik tavsiyasiga binoan shovqinni o'lchash uskunasi o'rnatish, shovqin belgilangan normadan yuqori bo'lsa, mahalliy hokimlik ish davomiyligini qisqartirish, shovqinni kam asbob-uskunalaridan foydalanish va topshiriqlarni berishi mumkin. Yuqoridagi choralarni ko'ra olmagan shaxslarning qurilish faoliyati to'xtatilishi yoki taqiqlanishi mumkin.


Shuningdek, transport shovqini va vibratsiyasi yuqori bo'lgan joylarda nazorat hududlari tashkil etilishi mumkin. Shovqin darajasi yuqori joylarda shovqin pasaytiradigan inshoot yoki uskunalar o'rnatiladi. Ishlab chiqariladigan avtotransport, uning shinasini ishlab chiqarish yoki import qilish ham ruxsat etilgan shovqin darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Motorli avtotransportlar uchun motor ovozi belgilangan shovqin darajasiga mos bo'lishi va shovqin darajasi muntazam tekshirilishi belgilangan. Uy-ro'zg'orda foydalaniladigan maishiy texnika jihozlarini shovqin darajasiga qarab markirovkalash nazarda tutilgan.

Atrof-muhitga oid nizolar mediatsiyasi va zararni bartaraf etish to'g'risidagi qonunda ekologiyani muhofaza qilish, inson salomatligi va mulkiga yetkazilgan zararni bartaraf etish uchun nizoni tez, adolatli va samarali hal etish vositasi [19] sifatida ekologik nizolarni hal etish milliy va hududiy komissiyalari tuzilgan. Bular vositachilik, mediatsiya, sudlashuv va arbitrajni o'z ichiga oladi. Komissiya shovqinga oid va boshqa nizolarni hal etish vakolatiga ega [20]. Komissiya tashkil etilgandan buyon 2024-yilgacha 5477 ta ishlar ko'rib chiqilgan va hal etilgan. Mazkur ishlarning 83% shovqin va vibratsiyaga oid ishlarni tashkil etgan. Seul hududiy komissiyasi 2010-2021 yillarda 1835 ta ishlarni ko'rib chiqqan. Mazkur ishlarning qariyb 97% shovqin, shu jumladan 74% qurilish shovqini va vibratsiya, 12% qavatlararo shovqin, 11% tashqi shovqinga oid ishlar hisoblanadi [21].

Milliy qonunchilikda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqining moddiy komponentlarining salbiy ta'sirini oldini olish va ulardan muhofaza qilish nazarda tutilgan. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 43-moddasiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, ayrim shaxslar zararli ishlab chiqarish shovqinlari, tebranish va zararli fizik ta'sirlar ko'rsatuvchi boshqa omillarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish choralari ko'rishlari shartligi belgilangan. Biroq, mazkur huquq va vakolatlar qanday amalga oshirilishi va aniq mexanizmlari ko'rsatilmagan.

Tadqiqot doirasida 2025-yilda insonning qulay (toza va sog'lom) atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash masalalari bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomada [22] so'ralganlarning 29.1% shovqindan tashvishga tushayotganligini bildirgan. Biroq, mamlakatimizda shovqin darajasini o'lchash, kamaytirish, ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va monitoringini yuritish tizimi yo'lga qo'yilmagan. Transport vositalaridan chiqadigan shovqinni o'lchash va monitoringini yuritish tizimi mavjud emas. Shovqinga oid real mexanizmlarga ega normalar bo'lmagan bir sharoitda ko'p qavatli turar-joy majmualarini transport bog'lamlariga yaqin joylarda loyihalashtirish va qurish, renovatsiya loyihalarini amalga oshirish, turar-joy mavzellarida gastronomik ko'chalarni tashkil etish kelgusida shovqin va insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash bilan bog'liq jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 192-moddasida maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish uchun javobgarlik belgilangan. Bunda tungi vaqtda — soat 23.00 dan 06.00 gacha — fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzish uchun javobgarlik belgilangan. Sudlar tomonidan internet tarmog'ida e'lon qilingan sud qarorlariga ko'ra 2020-2024-yillarda 7000 ga yaqin maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzishga oid ma'muriy huquqbuzarliklar [23] ko'rib chiqilgan. Mazkur raqamlar nisbiy va aniq holatni ifoda etmasada, shovqinga oid huquqbuzarliklar soni oshib borayotganligini (1-diagramma) ko'rish mumkin.



1-diagramma. Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzishga oid ko'rib chiqilgan ma'muriy huquqbuzarliklar soni

Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 24-yanvardagi 22-son va 2021-yil 15-oktabrdagi 648-son qarorlari bilan tasdiqlangan ko'p kvartirali uylardagi yashash uchun mo'ljallanmagan joylardan hamda ko'p kvartirali uyning yerto'lasidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlarga ko'ra yuqoridagi joylarda fuqarolarning normal hayot faoliyatiga xalaqit beruvchi yoki buzuvchi ishlarni bajarish, shovqin va tebranish hosil qiluvchi, yoxud havoni iflos qiluvchi ishlarni amalga oshirish yoki boshqa harakatlarni sodir etish taqiqlanadi. Shuningdek, ko'p kvartirali uylardagi yashash

uchun mo'ljallanmagan joylarda hamda ko'p kvartirali uyning yerto'lasida joylashtirishga ruxsat berilgan faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra soat 23.00-8.00 oralig'ida tovush darajasi 45 dBA-dan yuqori bo'lgan teleradio apparatlardan, yashovchilarning tinchligini buzuvchi boshqa qurilmalardan foydalanish, shuningdek soat 23.00 dan keyin ham ishlaydigan umumiy ovqatlanish korxonalari (restoranlar, kafe, tungi klublar va barlar, diskotekalar) joylashtirishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan [24].

Shuningdek, 2.08.01-24-son "Turar joy obyektlarini loyihalash" shaharsozlik normalari va qoidalarida (ShNQ) turar joy obyektlari uchun yo'l qo'yiladigan shovqin maksimal darajasi kvartiralarda kunduzi 55 dB, kechqurun 45 dB etib belgilangan. Hujjatda aholini shovqindan himoya qilish injenerlik-texnik va tashkiliy tadbirlar orqali amalga oshirilishi belgilangan. Shunga o'xshash, shovqin darajasining ruxsat etilgan me'yorlari 0339-16-son aholi yashash joylarini rejalashtirish va qurishning sanitariya qoidalari va me'yorlarida (SanQvaM, 2016-yil) ham belgilangan [25].

Turar joylarda, jamoat binolarida, aholi yashash hududlarida va dam olish zonalarida ruxsat etilgan shovqin darajasining sanitariya qoidalari va me'yorlarida 0008-20-son SanQvaM (2020-yil) ruxsat etilgan shovqin me'yorlari sutkaning vaqtiga qarab (07.00-23.00 va 23.00-07.00) belgilangan. Jumladan, umumiy ruxsat etilgan shovqin darajasi o'quv auditoriyalarida 40 L_A dBA, kasalxona, klinika va sanatoriylarda kunduzi (07.00-23.00) 35 dBA va kechqurun (23.00-07.00) 25 dBA, aholi turar joylarida tegishli 40 va 30 L_A dBA etib belgilangan [25]. Biroq, mazkur qoidalar aviatsiya shovqini, maxsus binolardagi (sport, kinoteatr, konsert zallari) shovqinga tatbiq etilmasligi ko'rsatilgan.

Turar-joy binolariga yo'l qo'yiladigan aviatsiya shovqinining darajalari davlatlararo standart tizimi – GOST 22283-88 ga muvofiq belgilangan. Mazkur standartning 2014-yilgi tahririda shovqin darajasi 1990-yilgi variantiga qaraganda pasaytirilganligi, yuqoriroq standart belgilanganligini ko'rish mumkin [26].

Sutkaning vaqti	Ekvivalent tovush darajasi L _A ekv, dBA		Bir martalik ta'sirdagi maksimal tovush darajasi L _A , dBA	
	GOST 1990- yil	GOST 2014-yil	GOST 1990-yil	GOST 2014-yil
Kunduzi (07.00-23.00)	65	55	85	75
Kechqurun (23.00-07.00)	55	45	75	65

2-jadval. Aviatsiya shovqini ruxsat etilgan darajasi

Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirishga oid 2.07.01-03-son ShNQ (2009-yil) transport oqimlari (L_A ekv 79-87 dBA) va relsli transportning (L_A ekv 63-91 dBA), kvartal (daha) ichidagi manbalarning (tovushning eng ko'p darajasi 63-98 dBA) shovqin tavsiflari belgilangan. Ayni paytda, daraxtzor ichida bir qator daraxtlarning shaxmat usulida ekilishi 4-5 dBA, ikki qator ekilishi 8-10 dBA, ikki yoki uch qator ekilishi shovqin darajasini 10-12 dBA pasaytirishi qayd etilgan. Biroq, yuqoridagi hujjatlarda ko'rsatilgan shovqin me'yorlari belgilangan normadan oshganda qanday choralar ko'rilishi yoki uni pasaytirish yuzasidan qanday amaliy chora-tadbirlar ko'rilishi va aniq harakatlanish mexanizmlari belgilanmagan.

Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasida ikkinchi o'qishda ko'rib chiqilgan "Aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasida Sanitariya-

epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi (Sanepidqo'm) aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilish sohasidagi vakolatli organ sifatida qayd etilgan. Qonun loyihasi bilan fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzadigan harakatlarning qat'iy ro'yxati ham keltirilgan. Loyihada tungi vaqtda — sutkaning soat 23:00 dan 06:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida, shuningdek dam olish kunlari va bayram kunlari soat 22:00 dan 09:00 gacha vaqt oralig'ida — fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish taklif etilgan [27].

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan Sanepidqo'm to'g'risidagi nizomda qo'mitaning asosiy vazifalari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan shovqin, tebranish va inson salomatligi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa fizikaviy omillar bilan ishlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini nazorat qilish, inson salomatligi va atmosfera havosiga zararli fizik omillar orqali ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarning ro'yxatini va hisobini yuritish hamda nazorat qilish belgilangan.

Ko'rib turganimizdek, milliy qonunchilik va standartlarda shovqinga oid aniq vaqt mezonini belgilanmagan va o'zaro nomuvofiqliklar mavjud. Jumladan, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksda soat 23.00-06.00, SanNvaQ va ShNQda soat 23.00-07.00, Mehnat kodeksida (188-modda) tunggi vaqt soat 22.00-06.00, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 24-yanvardagi 22-son va 2021-yil 15-oktabrdagi 648-son qarorlarida esa soat 23.00-08.00 oralig'ida shovqin chiqarmaslikka oid normalar belgilangan. Bu esa yuqoridagi normalardagi fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishi vaqtiga oid qoidalarni o'zaro muvofiqlashtirish, nazorat va ijro mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, shovqindan xoli muhitni ta'minlash uchun milliy qonunchilikda tunggi tinch orom vaqtini aniq belgilash va qonunchilikdagi o'zaro nomuvofiqliklarni bartaraf etish lozim. Bunda ish kunlarida soat 22.00-07.00, dam olish va bayram kunlari soat 22.00-09.00 oralig'ida shovqin solishni cheklash hamda yuqorida keltirilgan norma va standartlarda tunggi tinch orom vaqtini o'zaro muvofiqlashtirish taklif qilinadi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish bo'yicha Respublika idoralararo kengashini tuzish maqsadga muvofiq. Mazkur kengash insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqining har bir moddiy komponenti (shu jumladan, shovqin) va har bir tarmoq (soha, yo'nalish) bo'yicha amalga oshirish bo'yicha tegishli tarmoq va ekspert guruhlarini tashkil etish zarur. Jumladan, shovqin bo'yicha ekspert kengashi, qurilish, transport, sohasida esa tarmoq kengashlarini tashkil etish taklif etiladi. Ayni paytda, hudud, yoki idora kesimida ularni amalga oshirish bo'yicha idoraviy hamda hududiy kengashlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda Sanepidqo'm yuqoridagi kengash va ekspert guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirishini belgilash lozim.

Ikkinchidan, sanoat korxonalarini, avtomobil va temir yo'llar hamda aviatsiyadan chiqadigan shovqin darajasiga oid meyorlarga rioya etilishini doimiy monitoring qilish, majburiy o'lchashni belgilash va shovqin darajasi reestrda qayd qilib borish tizimini joriy etish taklif qilinadi. Bunda yagona ekologik axborot portalini tashkil etish, portaldagi real vaqt rejimida shovqin darajasi va xaritasini ochiqlab borish, uni muntazam ravishda yangilab turish, foydalanuvchilar uchun qulay shaklda taqdim etishga ahamiyat qaratish zarur.

Shuningdek, shovqin darajasiga oid minimal standartlarni bosqichma-bosqich oshirib borish va yanada yaxshilash bo'yicha yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategiya va dasturlarni ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Monitoring natijalariga ko'ra, shovqin darajasi yuqori joylarda shovqin pasaytiradigan muhofaza inshootlari va uskunalarni o'rnatish chora-tadbirlarini ko'rish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, shovqinga sezgir obyektlar (ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari) atrofida va yondosh hududlarda shovqin chiqaradigan inshootlarni joylashtirishni cheklash va faqat istisno hollarda tegishli ruxsatnoma asosida yo'l qo'yish taklif qilinadi. Shuningdek, har bir ijtimoiy soha obyektlari (ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari) kesimida inson salomatligini muhofaza qilish uchun shovqin va havo ifloslanishining oldini olish choralari ko'rish, ularda har yarim yilda qulay atrof-muhit sifat ko'rsatkichlarini kamida bir marta tekshirish, o'tkazilgan tekshiruvlar natijalarini tashkilot saytida yoki vazirlik saytida jamoatchilik uchun ochiqlash maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, ishlab chiqarish va qurilishda shovqin darajasini nazorat qilish va boshqarish uchun shovqin darajasi yuqori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt va ularning obyektlarida ekologik xizmatni majburiy tashkil etish va shovqinni o'lchash uskunalari o'rnatishni belgilash taklif qilinadi. Bunda, yuqori shovqin chiqaradigan qurilishni amalga oshirish uchun tegishli ruxsat olish, qurilishni boshlashdan oldin ovoz o'tkazmaydigan yoki pasaytiradigan uskunalar o'rnatish, shovqin belgilangan normadan yuqori bo'lsa obyekt ish vaqtini cheklash, shovqini kam asbob-uskunalaridan foydalanish kabi choralarni nazarda tutish, yuqoridagi choralarni ko'ra olmagan shaxslarning qurilish faoliyati to'xtatilishi yoki taqiqlanishi mumkinligini belgilash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, maishiy texnikaning shovqin darajasini markirovkalash, shovqin darajasi yuqori bo'lgan texnikani ishlab chiqarish yoki import qilishni cheklash taklif qilinadi.

Yuqoridagi choralar, insonning shovqindan xoli qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash, fuqarolarning jismoniy va ruhiy salomatligi yaxshilanishiga hissa qo'shadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. The Danish Environmental Protection Agency, Recommended noise limits, <https://eng.mst.dk/industry/noise/recommended-noise-limits>.
2. Report from the Commission to the European Parliament and the Council on the implementation of the Environmental Noise Directive in accordance with Article 11 of Directive 2002/49/EC.
3. Yadav, D., Garg, N., Gautam, C., Agarwal, R., Yadav, S. (2025). Noise Pollution: The Silent Intruder to Health and Well-Being. In: Garg, N., Gautam, C., Rab, S., Wan, M., Agarwal, R., Yadav, S. (eds) Handbook of Vibroacoustics, Noise and Harshness. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-97-8100-3_63.
4. Report of the Special Rapporteur on the human right to a clean, healthy and sustainable environment, Overview of the implementation of the human right to a clean, healthy and sustainable environment, 2024, A/79/270, <https://docs.un.org/en/A/79/270>.
5. Compendium of WHO and other UN guidance in Health and Environment, 2024 update.
6. Kariuki Muigua, Addressing Noise Pollution for a Clean and Healthy Environment in Kenya, 2023. Journal of Conflict Management and Sustainable Development, Vol 10(3), <https://ssrn.com/abstract=4582470>.
7. N.Manojkumar, K.Basha and B.Srimuruganandam, Assessment, Prediction and Mapping of Noise Levels in Vellore City, India, 2019, 6 Noise Mapping 38, p.40.
8. Kumar, Brind & Oberoi, Sharad & Goenka, Akash, A brief review of the legislative aspects of noise pollution. Conference: Proceedings of Workshop on Environmental Pollution: Perspectives and Practices, 2004.
9. World Health Organization, Environmental Noise Guidelines for the European Region, 2018, <https://www.who.int/europe/publications/i/item/9789289053563>.
10. EU Environmental Noise Directive 2002/49/EC.
11. EU Regulation 2020/740 of the European Parliament and of the Council on tyre labelling.
12. Core values for a healthy living environment, <https://ggdghor.nl/onderwerp/gezondeleefomgeving-kernwaarden/>.
13. Environmental Act (Omgevingswet) <https://wetten.overheid.nl/BWBR0037885/2024-01-01>.

14. Environmental Quality Decision (Besluit kwaliteit leefomgeving) <https://wetten.overheid.nl/BWBR0041313>.
15. Environmental Buildings Decree (Besluit bouwwerken leefomgeving), <https://wetten.overheid.nl/BWBR0041297/2025-01-01>.
16. Framework Act on Environmental Policy, Act No. 19208, 2022, Article 3, https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=62237&lang=ENG.
17. School Health Act, No. 18462, 2021, https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=59791&lang=ENG.
18. Noise and Vibration Control Act, No. 19150, 2022, https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=61844&lang=ENG.
19. Nuraisyah Chua Abdullah, Going Green in Urbanisation Area: Environmental Alternative Dispute Resolution as an Option, *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, Volume 170, 27 January 2015, p.402.
20. Act on Environmental Dispute Mediation and Environmental Damage Remedy, No. 17985, 2021, https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=56464&lang=ENG.
21. Seoul Metropolitan Government Environmental Dispute Mediation and Relief Committee, Statistics, <https://edc.seoul.go.kr/index.do?nMenuCode=36>.
22. B.Turdiyev, Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlashda yashil zonalar va ochiq suv havzalarining ahamiyati, *Huquq va burch+*, 2025-yil 2-son, 147 – 158.
23. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan internet tarmog'ida e'lon qilingan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi sud qarorlari, 2025, <https://public.sud.uz/report/CONFLICT>.
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 24-yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan Ko'p kvartirali uylardagi yashash uchun mo'ljallanmagan joylardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom, <https://lex.uz/docs/-260440>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 648-son qarori bilan tasdiqlangan Ko'p kvartirali uyning yerto'lasidan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom, <https://lex.uz/docs/-5680686>.
25. O'zbekiston Respublikasining amaldagi sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyena me'yorlari ro'yxati, 01.05.2025 yil holatiga. <https://gov.uz/oz/sanepid/pages/sanitariya-va-gigiyena-me-yorlari-hamda-qoidalari>.
26. Шум авиационный, Допустимые уровни шума на территории жилой застройки и методы его измерения, 2015. <https://meganorm.ru/Data2/1/4293769/4293769914.pdf>. Шум авиационный, Допустимые уровни шума на территории жилой застройки и методы его измерения, 1990, <https://docs.cntd.ru/document/1200009617>.
27. Xalq so'zi, Sanepidqo'mita aholini sutkaning soat 23:00 dan 06:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida "qo'riqlaydi" – qonun loyihasi, 2024-yil 20 avgust, <https://xs.uz/uzkr/117613>.

ALIYEV Ilhomjon Murod o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Qonunchilik va huquqiy
siyosat instituti tayanch doktoranti
E-mail: ilhomaliyevv2@gmail.com
ORCID: 0009-0001-2118-1555

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): ALIYEV I.M.
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatida sun'iy intellekt
imkoniyatlaridan foydalanish – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2024) B. 42–51.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining parlament faoliyatiga integratsiyalashuvi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi misolida tahlil qilinadi. Muallif sun'iy intellektning zamonaviy texnologik taraqqiyotdagi o'rni va uning parlament tizimiga ko'rsatayotgan ta'siri tarixdagi g'ildirak, bosmaxona, elektr, telefon va internet kabi transformatsion innovatsiyalar bilan qiyoslanadigan darajada chuqur ekanligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda SI texnologiyalari yordamida qonun loyihalarini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, taklif etilayotgan va qabul qilinayotgan qonun va qonun hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish, parlament nutqlarini avtomatik transkripsiya qilish, hujjatlarni real vaqt rejimida tarjima qilish va avtomatlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalar qonunchilik faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, samaradorligi va jamoatchilik ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi alohida e'tirof etiladi. Shuningdek, maqolada SI ni joriy etishda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan muammolar – inson omilining zarurligi, texnologiyalarning aniqligi, shaffoflik va demokratik tamoyillarga rioya etish kabi jihatlar ham chuqur tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, sun'iy intellektdan oqilona va mas'uliyatli foydalanish orqali Qonunchilik palatasi faoliyatini modernizatsiya qilish va qonunchilik jarayonini jamiyat ehtiyojlariga yanada moslashtirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, Qonunchilik palatasi, huquqiy ekspertiza, avtomatlashtirish, parlament nutqi, transkripsiya, jamiyat ehtiyojlari, jamoatchilik ishonchi.

АЛИЕВ Илхомжон
Докторант Института законодательства
и правовой политики при
Президенте Республики Узбекистан

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ ПАЛАТЫ ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется интеграция технологий искусственного интеллекта (ИИ) в парламентскую деятельность, в частности, на примере Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Автор подчеркивает, что роль искусственного интеллекта в современном технологическом прогрессе и его влияние на парламентскую систему столь же глубоки, как и трансформационные инновации в истории, такие как колесо, типография, электричество, телефон и интернет. В исследовании рассматриваются возможности разработки законопроектов с использованием технологий ИИ, анализа нормативно-правовых

актов, проведения правовой экспертизы предлагаемых и принимаемых законов и законодательных актов, автоматической транскрипции парламентских выступлений, перевода и автоматизации документов в режиме реального времени. Особенно в условиях Узбекистана эти технологии играют важную роль в повышении открытости, прозрачности, эффективности и доверия общественности в законодательной деятельности. В статье также подробно анализируются проблемы, которые могут возникнуть при внедрении ИИ - необходимость человеческого фактора, точность технологий, прозрачность и соблюдение демократических принципов. В заключение обосновываются возможности модернизации деятельности Законодательной палаты и дальнейшей адаптации законодательного процесса к потребностям общества посредством рационального и ответственного использования искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, Законодательная палата, правовая экспертиза, автоматизация, парламентская речь, транскрипция, потребности общества, общественное доверие.

ILKHOMJON Aliev

PhD student at the Institute of
Legislation and Legal Policy under the
President of the Republic of Uzbekistan

USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE OPPORTUNITIES IN THE ACTIVITIES OF THE LEGISLATIVE CHAMBER OF THE OLIJ MAJLIS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article analyzes the integration of artificial intelligence (AI) technologies into parliamentary activity, in particular, using the example of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. The author emphasizes that the role of artificial intelligence in modern technological development and its impact on the parliamentary system is comparable to transformational innovations in history, such as the wheel, printing house, electricity, telephone, and the Internet. The study examines the possibilities of using AI technologies for drafting legislative proposals, analyzing normative legal documents, conducting legal expertise of proposed and adopted laws and legislative acts, automatic transcription of parliamentary speeches, real-time translation of documents, and automation of related processes. It is especially noted that in the conditions of Uzbekistan, these technologies play an important role in increasing the openness, transparency, effectiveness, and public trust of legislative activity. The article also analyzes in depth the problems that may arise during the implementation of AI - such aspects as the need for the human factor, the accuracy of technologies, transparency, and adherence to democratic principles. In conclusion, the possibilities of modernizing the activities of the Legislative Chamber and further adapting the legislative process to the needs of society through the rational and responsible use of artificial intelligence are substantiated.

Keywords: artificial intelligence, Legislative Chamber, legal expertise, automation, parliamentary speech, transcription, public needs, public trust.

Globalashuv jarayonida sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI) texnologiyalari davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol qo'llanilmoqda va turli sohalarida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar hamda jarayonlarning asosiy elementiga aylanmoqda. Shu bois, Sining mavjud imkoniyatlaridan nafaqat davlat boshqaruvi va davlat xizmatlarida balki, qonunchilik jarayonida ham foydalanilishi mazkur sohaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shishi mumkin.

Sining odatiy vazifalarni avtomatlashtirish, murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish va qonun loyihasini ishlab chiqishda potensial qo'llab-quvvatlash hamda bashorat qilish qobiliyati operatsion samaradorlikni oshirish uchun istiqbolli yo'llarni taklif qiladi.

Xususan, mazkur jarayonga SI texnologiyalarining tadbiq etilishi parlamentdagi nutqlarni transkripsiya qilish, hujjatlarni tarjima qilish, parlamentlarda o'tkazilayotgan majlis axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida yoritib borilayotganda esa audio va video yozuvlarni subtitrlash, hujjatlardagi asosiy mavzular va tushunchalarni o'z vaqtida aniqlash va tasniflash, kun tartibidagi qonun va qonun hujjatlarini katta hajmdagi qonunchilik bazasiga taqqoslagan holda qisqa vaqt ichida tahlil qilish, bashoratli tahlilni amalga oshirish, tahlillar asosida tavsiyalar shakllantirish va shu o'rinda ommaviy murojaatlarni qabul qilish orqali jamoatchilik fikrini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Ammo, mazkur jarayon yuqoridagi kabi imkoniyatlar bilan birga bir qancha muammolar va xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, SI texnologiyalari va ilovalarini parlamentga tadbiq etish jarayoni noyob imkoniyatlar, yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan muammolar va axloqiy mulohazalarni sinchkovlik bilan muhokama qilishni talab etadi.

Parlamentlar o'z qonunchilik, vakillik va nazorat funksiyalarini yanada samarali bajarish maqsadida raqamli transformatsiyaga intilmoqda. Lekin, parlamentlar ushbu yangi inqilobiy hududda harakat qilar ekan, innovatsiyalar, an'analar va mas'uliyatni muvozanatlash va muvofiqlashtirish masalalariga chuqur e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi.

Mazkur maqolada SIning parlament faoliyatiga integratsiyasi, bu yo'ldagi yutuqlar, muammolar, demokratik tamoyillarga ta'siri va istiqbolli yo'nalishlar haqida so'z boradi.

MATERIAL VA METODLAR

Stanford universitetining 2024-yilgi AI Index hisobotiga ko'ra, so'nggi yillarda SIga oid qonunlar global qonunchilik miqyosida sezilarli darajada oshdi. 2016-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda 127 davlat parlamenti jami 123 ta SI haqida so'z yuritilgan qonun loyihalarini qabul qilgan. Bu qonunlar ta'lim sohasidagi islohotlar, SI algoritmlarida kamsitishning oldini olish hamda SI bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish kabi turli masalalarni qamrab oladi [1]. Bu esa SI texnologiyalarini mas'uliyat bilan ishlab chiqish va joriy etishni boshqarish uchun normativ-huquqiy asoslar zarurligini tobora kengroq tan olinayotganini ko'rsatadi.

Bu kabi qonunchilik tashabbuslarining maqsadi – SI taraqqiyotidan jamiyat foyda ko'rishini ta'minlash va uning manipulyatsiya yoki noto'g'ri ishlatilishidan yuzaga keladigan xavflarni kamaytirishdir. Westminster Democracy Foundation (WFD) tomonidan yaqinda taqdim etilgan "Global sun'iy intellekt xavfsizligiga demokratik yondashuv" nomli siyosiy hujjatda qayd etilishicha, parlamentlar SI texnologiyalarini joriy etishda qat'iy siyosatlar, axloqiy sinovlar va keng qamrovli treninglarga tayanishi kerak [2].

Hozirgi kunda mamlakatlar parlamentlari nafaqat SI texnologiyalariga oid bo'lgan qonunlarni qabul qilyapti, balki ularni o'z faoliyatiga ham tadbiq etishni boshladi.

Global miqyosda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi bir tomondan juda ko'plab qurbonlarga sababchi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan nafaqat turli sohalarni, balki ko'p yillik parlament tartib-qoidalarini ham inqilob qilish uchun ajoyib imkoniyat yaratdi. Umuman olganda, garchi ular ish tartibiga ta'sir qilmagan bo'lsa-da, parlamentlar faoliyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. 2022-yil holatiga ko'ra, statistik ma'lumotlarga qaraganda parlamentlarning qariyb yarmi (47%) yalpi majlislarni uzluksiz davom ettirish imkonini beruvchi o'zining ichki tartib-qoidalariga o'zgartirish kiritishga erishgan[3].

SI yordamida qaror qabul qilish amaliyoti sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish yoki havo harakati oqimini boshqarish kabi sohalarda tobora ko'proq foydalanilayotgan bo'lsa-da, uning parlament kontekstida qo'llanilishi nisbatan o'rganilmaganligicha qolmoqda[4]. Parlamentlarda SIga asoslangan ilovalardan foydalanish bir necha o'n yillik qonunchilik tartib-qoidalari va an'analarini

hamda qonun ijodkorligi mezonlarini o'zgartirishi mumkin bo'lgan zamonaviy, kuchli va samarali jarayon deb baholanmoqda.

Garchi, bu kabi mavzular chuqur mulohaza yuritishni talab qilsa-da, rivojlangan mamlakatlarning tajribalari hamda bir nechta tarqoq fikrlar qiziqarli munozarani ochishi mumkin.

SI texnologiyalarining parlament faoliyatida qo'llanilishining qiziqarli yo'nalishlaridan biri - bu qonun loyihalarini tayyorlash va qonunchilik hujjatlarini tayyorlashda foydalanishdir. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, taxminan "6 foiz" parlamentlar qonun loyihalarini ishlab chiqishda SIning ayrim funksiyalaridan foydalangan, yana uchdan bir qismi esa bu imkoniyatni ko'rib chiqmoqda [5].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Italiya va Yevropaning bir nechta nufuzli ilmiy muassasalarida faoliyat yurituvchi, professor Ylenia Maria Citino o'zining 2023-yil 26-iyunda nashr qilingan maqolasida ilk bor "Bot-legislator" ya'ni "Bot-qonun chiqaruvchi" atamasidan foydalangan. Uning fikriga ko'ra, huddi ChatGPT ilovasi katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qila olganidek, bu kabi ilovalar ham taklif qilinayotgan qonun loyihalarini qayta ishlash orqali ularni mukammallashtirishi yoki ma'lumotlardan foydalangan holda butun qonun loyahasini ishlab chiqishi mumkin.

Shuningdek, Gretsiya parlamenti vakili, doktor Fotis Fitsilis WFD blogida ta'kidlaganidek, "SIning rivojlanishi parlamentlarni qog'ozga asoslangan tizimlardan ma'lumotlarga asoslangan muassasalarga aylantirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda"[6]. Shuningdek, uning fikriga ko'ra keng qamrovli tadqiqotlar, hamkorlik va ekspertiza natijasi asosida SIDan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqilishi va keng qamrovli ko'rsatmalarning nashr etilishi parlament hayotida juda muhim voqea hisoblanadi.

Xususan, Inter-Parlamentlar Ittifoqi (IPU) tomonidan "Parlamentlarda SI ishlatilishining qo'llanmalari" mavzusidagi hisobotida bu boradagi tajribalar keltirilgan [7].

Bundan tashqari, professor Ylenia Maria Citino va Fotis Fitsilis o'z tadqiqotlarida bu kabi innovatsiyalar qonunchilik jarayonlarini inqilob qilish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, uning qo'llanilishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavflar, xususan, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarning asosliliigi va aniqligi, diskriminatsiya hamda shu kabi muammolarni ham tan olish kerak ekanligini ta'kidlab o'tishgan.

Braziliya Deputatlar palatasi bosh axborot direktori (CIO) o'rinbosari Patrisiya Almeyda davlat muassasalarida SI bo'yicha olib borgan tadqiqotlari haqida fikr yuritib, parlamentlarda SIni qabul qilishning uch bosqichini tasvirlab bergan bo'lib, ular quyidagilar:

Birinchi bosqich: SI loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan va hozirda ushbu yechimlarni barqaror qilishga e'tibor qaratayotgan parlamentlar kiradi. Ularning asosiy e'tibori siyosat va strategiyani ishlab chiqish hamda SI xizmatlarini o'z ichiga olgan davlat xaridlari uchun talablarni yaratishga qaratilgan.

Ikkinchi bosqich: "Laboratoriya rejimida" SIni sinab ko'rayotgan parlamentlar kiradi - SIning afzalliklarini namoyish qilish va parlament rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi va moliyalashtirishi uchun yechimlarni sinab ko'rish.

Uchinchi bosqich: Asosiy IT infratuzilmasi, qonunchilik tizimlari va ma'lumotlarni boshqarishning yo'qligi sababli, hali SIni qabul qilmagan parlamentlardan iborat[8].

Shu sababli, har bir guruhning turli xil ehtiyojlari bor va ular yo'l-yo'riq va yordamdan, ayniqsa parlamentlararo aloqalardan foydalanishlari mumkin[9].

TADQIQOT NATIJALARI

SIning parlamentdagi rolining muhim jihatlaridan biri qonunchilik matnlarini huquqiy ekspertiza talab qilmasdan oson tushunarli qilishdir. Bu, ayniqsa, qonunlar keng aholi uchun ochiq

bo'lishi kerak bo'lgan demokratik tizimda juda muhim hisoblanadi. SI huquqiy matnlarni ravshanlik va aniqlik bilan tartibga solish va tizimlashtirishga yordam beradi, shu bilan ularning tushunariligi va samaradorligini oshiradi.

Shundan kelib chiqqan holda bir qancha rivojlangan mamlakatlar o'zining qonun chiqaruvchi organlarida SI texnologiyalarini joriy etishdagi tajribalarini yuksaltirib bormoqdalar. Xususan, Argentinaning "DipLab" Deputatlar palatasi "Intellectual parlament" loyihasi qonunchilik jarayonlarida SIning amaliy qo'llash namunasini ko'rsatadi. Ushbu tashabbus qonunchilik hujjatlarini, xususan, 2005-yildan buyon parlament sessiyasi stenogrammalarining stenok versiyalarini raqamlashtirish va indeksatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu hujjatlarni tegishli mavzularga ajratish uchun tabiiy tilni qayta ishlash vositasi bo'lgan yashirin "Dirichlet Allocation" (LDA) algoritmi qo'llaniladi. SIga asoslangan ushbu yondashuv nafaqat qonunchilik ma'lumotlarini boshqarishni soddalashtiradi, balki vaqt o'tishi bilan qonunchilik mavzularining evolyutsiyasi haqida tushuncha berib, kontentni yanada nozik tahlil qilish imkonini beradi.

SI tizimi qonunchilikni muhokama qilishda asosiy mavzularni aniqlaydi va shu bilan birga qonunchilik tendensiyalari va ustuvorliklarini yaxshiroq tushunishga hamda taqqoslash asosida tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu texnologiya davlat siyosatini har tomonlama monitoring qilish va qonunchilik amaliyoti va jamiyat talablari o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Siyosat evolyutsiyasi va mavzu tendensiyalarini kuzatish vositalarini taqdim etish orqali AI tizimi qonunchilik jarayonining shaffofligi va samaradorligiga sezilarli hissa qo'shadi[10].

Shuningdek, Estoniya parlamenti Riigikogu o'z faoliyatiga SIning qo'shib, katta til modellari asosidagi "HANS" nomli tizimdan foydalanib, barcha parlament yig'ilishlarini, jumladan, yalpi majlislar va qo'mitalardagi nutqlarni avtomatik tarzda tanib olish orqali transkripsiya qilish uchun kiritdi. Yalpi sessiyalar uchun SI tomonidan yaratilgan so'zma-so'z matn onlayn nashr etilishidan oldin muharrirlar tomonidan ko'rib chiqiladi va tuzatiladi. Qo'mitalarda raqamli shaklda yaratilgan transkript xodimlar tomonidan protokollarni qo'lda tayyorlash uchun ishlatiladi. "HANS"da xatolik darajasi taxminan 5% ni tashkil qiladi, bu ma'ruzachilar va uchrashuv kontekstiga qarab farq qilishi mumkin[11]. Mazkur jarayon esa yalpi majlislardagi nutqlarni yozib olishni soddalashtirdi.

Estoniya parlamenti raqamli texnologiyalar sohasida oldinga qarab harakatlanar ekan, Riigikogu qo'mita yig'ilishlarining avtomatlashtirilgan xulosalarini yaratish kabi ilg'or SI ilovalarini o'rganishni ham rejalashtirmoqda. Shu o'rinda, ishonchlilik va aniqlik bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun parlament ikki tomonlama yondashuvni qo'llaydi: uning imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish uchun "laboratoriya rejimida" texnologiyani ishlab chiqish va bir vaqtning o'zida SI talablari bo'yicha munozaralarga rahbarlar va siyosatchilarni jalb qilish. Estoniya inson nazoratiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda, qo'mita jurnalistlari SI tomonidan yaratilgan matnni ko'rib chiqish, tahrirlash va yakunlashini ta'minlamoqda, bu esa sun'iy intellektning inson mulohazalari o'rnini bosishi haqidagi qo'rquvni yumshatadi va SIDan faqatgina avtomatik tarzda bajariladigan ishlarni qilishda va tezkor tahlil va fikr olishda foydalaniladi[12].

Bu borada Tayvan ham katta yutuqlarga erishmoqda. Tayvan Qonunchilik Yuanining zallarida professional shifokor va qonunchi bo'lgan doktor Chen Ching-Xui muhim bir muammo bilan yuzmayuz keldi. Bosh vazir bilan rejalashtirilgan muhim 30 daqiqalik savol-javob sessiyasi arafasida u vaqtincha ovoz bog'i (vokal simlari) shishishi sababli ovozini yo'qotdi.

Sessiyani bekor qilish o'rniga, uning yordamchisi ya'ni uning hamkasbi va KMT partiyasi a'zosi bo'lgan doktor Ju Chun Koga murojaat qildi. Mazkur vaziyatda Doktor Ko va uning jamoasi ElevenLabsning ovoz klonlash texnologiyasidan foydalandi. Doktor Chenning avvalgi chiqishlaridan

yoziq olingan audiosi asosida, ular uning tabiiy nutqiga juda yaqin bo'lgan ovoz klonini tezda yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Biroq bu faqat texnologik masala emas edi. Parlament qoidalariga ko'ra, rasmiy bayonnomalarga kiritilishi uchun har qanday bayonot vakil tomonidan ovoz chiqarib o'qilishi shart. Oddiy audioyozuvlar odatda qabul qilinmaydi.

Bu holatda, doktor Ko va uning jamoasi partiyalararo hamkorlik ruhida parlament prezidenti, hukumat vakili va bosh vazirdan uch soat ichida ruxsat olishga muvaffaq bo'ldi.

Tayvan (Xitoy Respublikasi) Qonunchilik Yuanining prezidenti Han tomonidan berilgan ruxsat asosida, doktor Chen Ching-Xui SI yordamida ovoz klonlash texnologiyasi orqali Tayvan parlamentida ilk marotaba interpellatsiya (rasmiy savol-javob) o'tkazgan qonunchi sifatida tarixga kirdi. Bosh vazir doktor Chenning lablari qimirlamasdan turib ovozi eshitganida hayratdan lol qoldi.

Ushbu tarixiy voqea parlament jarayonlarida SIning kengroq qo'llash bo'yicha muhokamalarga muhim yo'l ochdi. Hozirda qonunchilar uzun qonun loyihalarini birma-bir o'qib chiqishga majbur, chunki ularning rasmiy protokolga kiritilishi shart. Endi bu mashaqqatli jarayonni avtomatlashtirish imkoniyati ko'rib chiqilmoqda.

Doktor Ko bu voqeani inson va sun'iy intellekt hamkorligining yorqin namunasi deb hisoblaydi va quyidagi jumlaning ta'kidlab o'tgan: "Bu texnologiya qanday qilib demokratik jarayonlarimizni qo'llab-quvvatlashi va kuchaytirishini ko'rsatadi, o'rnini bosishini emas"[13].

Shu o'rinda, O'rta Osiyo mintaqasi doirasida olib borilayotgan tadqiqot va izlanishlarga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 2023-yil 1-sentabrdagi "Adolatli Qozog'istonning iqtisodiy yo'nalishi" nomli Qozog'iston xalqiga Murojaatnomasida raqamlashtirishning strategik ahamiyatini ta'kidlab, IT-texnologiyalar (SI) sohasida yetakchi davlatga aylanish maqsadini qo'ygan edi. Ushbu tashabbus mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlangan "2024-2029-yillarda sun'iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi"da ham o'z ifodasini topgan[14].

Qozog'iston Respublikasi parlamenti uchta asosiy funksiyani bajaradi: vakillik, nazorat va qonun chiqaruvchi. Ayni paytda raqamli sa'y-harakatlar birinchi navbatda vakillik funksiyasini rivojlantirishga, ya'ni joylarda uchrashuvlar o'tkazish orqali parlament va aholi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga, fuqarolarni qabul qilishni raqamlashtirishga va parlamentning internet resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash orqali biznes jarayonlarini takomillashtirishga, shuningdek, videokonferensaloqa uchun onlayn platformalardan foydalanishga qaratilgan. Shu bilan birga, SIning qonunchilik jarayoniga joriy etish an'anaviy ish usullarini tubdan o'zgartirishi mumkin bo'lgan muhim salohiyatga ega deb qaralmoqda. SIning to'liq integratsiyasi nafaqat qonun ijodkorligi faoliyati sifati va samaradorligini oshirishi, balki deputatlar zimmasiga tushadigan byurokratik yukni sezilarli darajada kamaytirishi, ularni kundalik ishlardan ozod qilishi mumkin. Bu qonun chiqaruvchilarga qonun ijodkorligi rivojlanishining strategik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish va jamiyatda tez o'zgarib turadigan muammolarga yanada samaraliroq munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Bundan tashqari, SI ma'lumotlar tahlilini o'tkazishda, qonunchilikni rivojlantirishni chuqur ma'lumotli va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashda parlament pozitsiyasini sezilarli darajada mustahkamlashi mumkin. Bu, albatta, "Kuchli Prezident – nufuzli parlament - hisobdor hukumat" formulasi doirasidagi qonun ijodkorligi jarayonining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar qonun loyihalarini tuzadi, ularning huquqiy texnik standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi va barcha zarur huquqiy elementlarni o'z ichiga oladi, bu esa qonun

loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi va sifatini oshiradi. Qonun ijodkorligi jarayoniga “eski” yondashuv samarasizligining yorqin misolini Qozog‘iston Respublikasining “Suv kodeksi” loyihasi ustida ishlashda ko‘rish mumkin, chunki uning dastlabki tahlilida 70 ga yaqin konseptual izohlar, qonunosti hujjatlarining yakunigacha tuzatilmaganligi va mavjud konstitutsiyaviy normalarga zid ravishdagi normalar aniqlangan[14].

Bundan tashqari, raketa zarbalari, kiberhujumlar va elektr ta’minotidagi uzilishlarga qaramay, parlamentning uzluksiz ishlashini ta’minlash maqsadida Ukraina Oliy Radasi 2024-yil 2-dekabrda SIni o‘z faoliyatiga integratsiya qilish qarorini e’lon qildi. Oliy Radaning IT bo‘limi boshlig‘i Aleksey Sidorenkoning ta’kidlashicha, ushbu tahdidlarga qaramay, Oliy Rada yuqori darajadagi kiberxavfsizlik va uzluksiz ish faoliyatini saqlab qolgan. Shuningdek, uning fikriga ko‘ra urush davom etayotganiga qaramay, ular elektron hujjatlar va qonun loyihalari bilan masofadan xavfsiz ishlashni, shuningdek, videokonferensaloqa orqali yig‘ilishlarda masofadan turib ishtirok etishni ta’minlagan. Bu yechimlar ularning kundalik ishlarining bir qismiga aylangan[15].

Shu jumladan, Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan 2024-yil 21-mayda qabul qilingan “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi qonun 2024-yil 1-avgustda kuchga kirgan. Mazkur Qonunda SI texnologiyalarini mamlakatlar parlamentlari faoliyatiga tadbiiq etish yuzasidan aniq normalar keltirilmagan bo‘lsa-da mazkur qonun dunyo miqyosida SI faoliyatini huquqiy tartibga solishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, SIning parlament faoliyatiga tadbiiq etish orqali mamlakatlar o‘z faoliyatlari samaradorligini oshirishga erishadi, xususan, huquqiy ekspertiza qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, qonunchilik matnlarini yaratish va nutqlarni avtomatik ravishda yozib olishda parlamentning yordamchisi vazifasini bajarishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Yuqorida keltirib o‘tilgan xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasining qonun ijodkorligi (norma ijodkorligi) sohasiga ham SI imkoniyatlarini tadbiiq etish va bundan kutilayotgan natijalar haqida ta’kidlab o‘tish lozim. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qabul qilinishi hamda Senatda tasdiqlanishi uchun taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish jarayonida aynan SI imkoniyatlaridan foydalanish nazarda tutilmoqda.

Xususan, bugungi kunda Qonunchilik palatasida 150 ta deputat faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish vaqtida har bir deputatning individual fikrini bildirishi hamda tinglanishi vaqt nuqta’i nazaridan majlis reglamentiga mos kelmasligi hamda muhokama vaqtining chegaralanganligi bois, SI imkoniyatlarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur jarayonda aynan muhokama qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan SIning taqdim etgan tahlillarini hamda ushbu hujjatlar qabul qilinishi natijasida kutilayotgan ehtimoliy natijalar bo‘yicha taqdim etilgan bashoratlarning tinglanishi nazarda tutilmoqda. Misol uchun, yalpi majlisda muhokama qilinayotgan qonun bo‘yicha bir nechta deputatlarning fikri eshitiladi ammo boshqa barcha deputatlarning fikrini eshittirish uchun reglamentga ko‘ra vaqt yetmasligi mumkin, lekin SI yordamida boshqa qonun hujjatlari va qonunchilik bilan taqqoslangan hamda ularga asosan tahlil qilingan fikrning o‘qib eshittirilishi (yuqorida ta’kidlangan Tayvan parlamentida o‘qib eshittirilgani kabi) vaqt nuqta’i nazaridan ham internet tarmog‘ida mavjud ma’lumotlardan foydalanish nuqta’i nazaridan ham samaraliroq bo‘ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish nafaqat vaqt tejatishiga, balki muhokama jarayonining

oshkoraligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, muhim savol paydo bo'ladi: parlament a'zosi o'rniga SIning takliflari tinglanadimi? Menimcha, bunga ijobiy javob berish qiyin, chunki SI tomonidan ilgari surilgan fikrlar qonun ijodkorligi doirasida qo'llanilganda, huquqiy xavflar yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli, qonunchilik faoliyatida SI tomonidan taqdim etilgan ma'lumot va tahlillarni to'liq emas, balki cheklangan tarzda, inson omili ishtirokida baholagan holda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki SI algoritmlari keng ko'lamlı huquqiy materiallarni, xususan milliy qonunlar va xalqaro standartlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, mavjud loyihadagi normativ qarama-qarshiliklarni aniqlash va inson e'tiboridan chetda qolgan jihatlarni ko'rsatib berish imkoniyatiga ega.

Ya'ni, SI vositalari orqali normativ-huquqiy hujjat loyihalari amaldagi qonun hujjatlari va xalqaro huquq me'yorlari bilan solishtirilib, ular orasidagi farqlar, ziddiyatlar aniqlanadi. Bu esa o'z navbatida, qonun hujjatlari sifatini oshirish, huquqiy xatolarning oldini olish, shuningdek, ekspertizaga yo'naltirilgan davlat mablag'laridan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

Amaliyotda har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasi jamoatchilik muhokamasi portaliga joylashtiriladi va fuqarolar, soha mutaxassislari tomonidan turli mulohaza va takliflar bildiriladi. Ana shu fikr-mulohazalar SI yordamida tahlil qilinib, parlament muhokamasi jarayonida asosli ma'lumot sifatida taqdim etilishi mumkin. Bunday integratsiya biryoqlama qaror qabul qilish xavfini kamaytiradi va ko'p tomonlama yondashuvga asoslangan puxta qonunlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Aholining faol qatlamlari, jumladan, o'z sohasida katta tajriba to'plagan fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va e'tirozlar SI vositasida tizimlashtirilgan holda parlament muhokamalarida hisobga olinadigan bo'lsa, qonunchilik sifat jihatidan yanada mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, SI texnologiyalaridan yalpi majlislar jarayonida deputatlar tomonidan aytilgan nutqlarni real vaqt rejimida avtomatik tarzda matnga aylantirish (transkripsiya qilish) imkoniyatlari mavjud. Bu orqali bayonnomalarni tayyorlashga sarflanadigan vaqt sezilarli darajada qisqaradi. Bunday amaliyot allaqachon Estoniya parlamentida muvaffaqiyatli tatbiq etilganini yuqorida qayd etgan edik.

Yuqoridagilarga erishilishi natijasida ya'ni jamiyat uchun davlat xizmatlari ko'rsatishda erishilgan yutuqlar hamda ushbu yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli Qarori va unga ilova qilingan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi"da keltirib o'tilgan hukumatning SIga tayyorgarlik indeksiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur strategiyaning 3-bobi 2-qismiga ko'ra milliy qonunchilik hujjatlarini xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish va takomillashtirish, sohadagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qulay muhit yaratish hamda xavfsizlik va etika talablarini joriy etish strategiyaning asosiy maqsad va vazifalari etib belgilangan.

Shu jumladan, ushbu bobning 1-paragrafida milliy qonunchilik hujjatlarini xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish va takomillashtirish maqsadida aynan tadqiqotlar natijalari hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos yaratish, xususan, sohadagi davlat standartlari va normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqish va ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishni rag'batlantirish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish hamda ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish choralarini ko'rish belgilab qo'yilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham mamlakatimizni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish vazifasi belgilangan. Shu maqsad yo‘lida raqamli texnologiyalar va ularga taalluqli bo‘lgan yo‘nalishlar bosqichma-bosqich rivojlantirib kelinmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yilning 7-aprel kuni bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasida so‘zlagan nutqida SIDan foydalanish etikasi bo‘yicha model qonun ishlab chiqishni taklif qildi[16].

Yuqoridagi kabi tashabbus va sa’y-harakatlardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ham SI texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish va uni sohalariga tadbiiq etish yuzasidan huquqiy asoslarini yaratish bo‘yicha keng qamrovli chor-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

XULOSALAR

SI texnologiyalarini mamlakatlar parlamentlari faoliyatiga tadbiiq etish bo‘yicha xalqaro ekspertlar va huquqshunos olimlar turlicha fikrlarni keltirganlar. Xususan, professor Ylenia Maria Citino hamda Fotis Fitsilisning tadqiqotlari va fikrlari alohida ahamiyatga egadir. Xulosa sifatida esa, mazkur tadqiqotchilarning fikrlari va SIni o‘z parlamentlari faoliyatiga tadbiiq etgan mamlakatlarning zamonaviy tajribalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni shakllantirishni ma’qul deb topdik:

Birinchidan: huquqiy ekspertiza uchun SI fikrlari va tahlillaridan foydalanish. SI algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qiladi, qonun loyihalaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlaydi va ularni amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlar bilan taqqoslaydi. Bu qonun hujjatlari loyihalari sifatini oshirish va huquqiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik, qonunlarni ekspertizadan o‘tkazish uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘larini sezilarli darajada tejash imkonini beradi.

Ikkinchidan: huquqiy soha uchun ma’lumotlarni tahlil qilish asosida prognozlarni ishlab chiqish. Katta ma’lumotlar va tahliliiy vositalardan foydalanish muayyan qonun qabul qilinishining mumkin bo‘lgan oqibatlari, uning iqtisodiiyot, ijtimoiy soha va fuqarolar hayotiga ta’siri haqida qimmatli prognozlar berish imkonini beradi. Bu qonun chiqaruvchilarga ko‘proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Uchinchidan: yalpi majlislardagi nutqlarni transpriksiya qilish jarayonini avtomatlashtirish. Zamonaviy texnologiyalar qo‘l mehnatini minimallashtirishga va bayonnomalarni hamda qonun loyihalari matnlarini yaratishda “inson omilini” kamaytirishga yordam beradi.

SI texnologiyalari kundan-kunga jadal rivojlanib borayotgan davrda uning yutuqlaridan oqilona va mas’uliiyatli foydalanish orqali Qonunchilik palatasi faoliyatini modernizatsiya qilish va qonunchilik jarayonini soddalashtirish hamda uni jamiyat ehtiyojlariga yanada moslashtirish imkoniiyatlari yaratiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. How parliaments can harness the benefits of AI democratically. 20 August 2024. <https://www.wfd.org/commentary/how-parliaments-can-harness-benefits-ai-democratically>
2. A democratic approach to global AI safety. 27 October 2023. <https://www.wfd.org/what-we-do/resources/democratic-approach-global-ai-safety>
3. IPU, World E-Parliament Report 2022, www.ipu.org/file/15804/download, p. 23.
4. See Y.M. Citino, *L’intelligenza artificiale applicata ai processi decisionali parlamentari: una griglia di funzioni e una stima dei rischi per la neutralità delle tecnologie*, in *Rassegna Parlamentare*, 3/2022, 629-674 and the comprehensive study edited by F. Fitsilis – G. Mikros, *Smart-Parliaments. Data-Driven Democracy*, Cheshire, European Liberal Forum, 2022.

5. Bot-Legislator and AI-powered legislative processes. By Ylenia Maria Citino on June 26, 2023.
6. Parliaments must get to grips with AI. By Dr. Fotis Fitsilis, Hellenic Parliament. 16 July 2024. <https://www.wfd.org/commentary/parliaments-must-get-grips-ai>
7. Artificial intelligence: draft IPU resolution and “Use cases” for AI in parliaments published. 29 July 2024. <https://www.ipu.org/news/news-in-brief/2024-07/artificial-intelligence-draft-ipu-resolution-and-use-cases-ai-in-parliaments-published>
8. “International collaboration and examples”. <https://www.popvox.org/representative-bodies-in-the-ai-era/international>
9. “Expert perspectives on AI in parliament,” *Inter-Parliamentary Union Innovation Tracker* (October 21, 2023).
10. Artificial Intelligence in the Argentine Chamber of Deputies: A Technological Revolution in Legislative Practice. About the Argentine Chamber of Deputies. Written on January, 2024.
11. “A view from Estonia: AI for advanced beginners,” *IPU Innovation Tracker Issue 16* (October 21, 2023).
12. “Estonian parliament uses speech recognition technology to create verbatim records,” *e-Estonia* (September 2020).
13. “Taiwan Parliament Makes History with First AI Voice Clone Interpellation”. *ElevenLabs*, 3 September 2024, <https://elevenlabs.io/blog/taiwan-parliament>.
14. Қазақстанда заңдарды жасанды интеллект әзірлейтін болады: миф немесе шындық. <https://kaz.inform.kz/news/kazakstanda-zandardi-zhasandi-intellekt-azrleytn-boladi-mif-nemese-shindik-e090d6/>
15. “Ukrainian Parliament to Integrate Artificial Intelligence in Legislative Process” December 2, 2024. <https://united24media.com/latest-news/ukrainian-parliament-to-integrate-artificial-intelligence-in-legislative-process-4170>
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi. 07.04.2025. <https://president.uz/oz/lists/view/8034>

XURSANOV Rustam Xolmurotovich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
direktorining birinchi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori (DSc)
E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

ELEKTRON TIJORATDA TOVARLARNI QAYTARIB OLISH VA ALMASHTIRISH QOIDALARI

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): XURSANOV R.X.
Elektron tijoratda tovarlarni qaytarib olish va almashtirish qoidalari // Юрист
ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) В. 52–58.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada elektron tijorat doirasida tovarlarni qaytarib olish va almashtirish qoidalarining huquqiy asoslari va amaliy qo'llanishi O'zbekiston qonunchiligi hamda rivojlangan davlatlar tajribasi misolida chuqur tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – masofadan turib tuziladigan shartnomalarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini o'rganish, mavjud me'yoriy-huquqiy bazada uchrayotgan kamchiliklarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda huquqiy tahlil, komparativistik usul, statistik ma'lumotlar tahlili hamda real caselarni o'rganish usullaridan keng foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlarga yaqinlashgan bo'lsa-da, elektron tijorat platformalarida qaytarish va almashtirish jarayonlari yetarlicha avtomatlashtirilmagan hamda iste'molchilar uchun murakkablik tug'diradi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Amazon, Yevropa Ittifoqi va Xitoy tajribasi bilan milliy amaliyot qiyosiy tahlil qilinib, elektron qaytarish tizimini raqamlashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish va iste'molchiga qulay axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha taklif va konseptual yo'nalishlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron shartnoma, fuqarolik huquqi, elektron imzo, elektron hujjat aylanishi, raqamli hujjat, onlayn savdo, huquqiy kuch, qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy baza, amaliy muammolar.

XURSANOV Rustam Xolmurotovich

Первый заместитель директора Института
переподготовки и повышения квалификации
юридических кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан, доктор юридических наук
E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится всесторонний анализ правовых основ правил возврата и обмена товаров в электронной торговле на основе законодательства Республики Узбекистан с учетом опыта зарубежных стран. Основная цель работы заключается в изучении механизмов защиты прав потребителей при дистанционной купле-продаже, выявлении проблем, возникающих при применении действующих норм, и выработке конкретных научно-практических предложений по совершенствованию системы возврата товаров. В ходе исследования использованы методы правового анализа, сравнительно-правовой анализ, статистический подход и изучение реальных кейсов. Результаты показывают, что, несмотря на наличие нормативной базы, соответствующей международным стандартам, процедура возврата и обмена товаров в электронной коммерции в Узбекистане недостаточно автоматизирована и слабо интегрирована в платформенные системы. Научная новизна статьи состоит в том, что на основе сравнения узбекской

практики с моделями США, ЕС и Китая разработаны предложения по цифровизации механизма возврата, внедрению прозрачных электронных процедур и созданию единой платформы для мониторинга соблюдения прав потребителей в сфере электронной торговли.

Ключевые слова: электронный договор, гражданское право, электронная подпись, электронный документооборот, цифровой документ, онлайн-торговля, юридическая сила, сравнительный анализ, нормативно-правовая база, практические проблемы.

RUSTAM Kholmurotovich

First Deputy Director of the Training Institute for Lawyers
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law

E-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of the legal framework governing the rules of product return and exchange in the field of electronic commerce, with a focus on the legislation of the Republic of Uzbekistan and the practical experience of developed countries. The main objective of the research is to examine the mechanisms for protecting consumer rights in online transactions, identify shortcomings in the current legal regulations, and propose concrete scientific and practical recommendations for improving return procedures in e-commerce. The study applies methods such as legal and comparative analysis, statistical review, and examination of real case examples. The findings indicate that although the existing Uzbek legislation is generally aligned with international standards, the implementation of product return and exchange procedures in e-commerce platforms still lacks efficient automation and integration. The scientific novelty of the article lies in the comparative study of national practice with systems in the USA, the European Union, and China, resulting in proposals for digitalization of return mechanisms, the introduction of transparent electronic procedures, and the creation of a unified monitoring platform aimed at strengthening consumer protection in Uzbekistan's e-commerce sector.

Keywords: electronic contract, civil law, electronic signature, electronic document management, digital document, online trade, legal force, comparative analysis, regulatory and legal framework, practical issues.

Elektron tijorat jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egallab, iste'molchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida onlayn xaridlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, elektron tijoratda mahsulotlarni qaytarish va almashtirish jarayonlari iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston va boshqa davlatlarda tovarlarni qaytarib olish va almashtirish qoidalari davlat qonunchiligida o'z aksini topgan, biroq amaliyotda bu qoidalarining qo'llanilishi o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu maqolada elektron tijoratda tovarlarni qaytarib olish va almashtirish qoidalari O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, real hayotdagi misollar yordamida ushbu jarayonlarning amaliyotdagi muammolari va yechimlari o'rganiladi.

Usullar: Maqola uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi:

Maqolada huquqiy tahlil, komparativistik (solishtirma) usul, statistik tahlil va ilmiy-nazariy yondashuvlar keng qo'llaniladi. O'zbekistonning iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga oid qonunlari, xalqaro shartnomalar va boshqa davlatlarning elektron tijoratga oid huquqiy hujjatlari tahlil qilinadi. Elektron tijorat sohasida duch kelgan real misollar, shuningdek, tovarlarni qaytarish va almashtirish bo'yicha iste'molchilarning amaliy tajribalari o'rganildi.

Natijalar: O'zbekiston qonunchiligida tovarlarni qaytarish va almashtirish qoidalari

Biz avvalo elektron tijorat aslida qanday ma'noni anglatishini aniqlab olishimiz lozim. 2022-yil 21-iyunda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonunining 3-moddasida Elektron tijorat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "**Elektron tijorat** — tovarlarning

(ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi” [1].

O‘zbekistonda elektron tijorat sohasida iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qonuniy asosda tashkil etilgan. “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun elektron tijorat orqali xarid qilingan tovarlarni qaytarish va almashtirish tartibini belgilab beradi. [2] Ushbu qonunga ko‘ra, iste‘molchi quyidagi holatlarda tovarni qaytarish yoki almashtirish huquqiga ega:

– **Kafolat muddati ichida:** Tovarda kafolat muddatida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste‘molchi tegishli talab qo‘ygan paytdan e‘tiboran yigirma kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, o‘n kun ichida bepul bartaraf etishi lozim [2, 15-modda].

– **Hech qanday sababsiz:** Iste‘molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga bunday tovar sotuvda bo‘lmasa, pulini qaytarib olishga haqli [2, 15-modda].

– **Sifatsiz mahsulotlar:** Iste‘molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan qo‘shimcha ravishda tekshirish zarur bo‘lganida esa, iste‘molchi talab qo‘ygan paytdan e‘tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart [2, 14-modda].

Shu bilan birga, O‘zbekiston qonunchiligida mahsulotni qaytarish va almashtirish bo‘yicha aniq mezonlar ham belgilangan. Iste‘molchi mahsulotning dastlabki qadoqlanishini saqlashi va uning foydalanilmagan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, milliy qonunchiligimizda qaytarilib yoki almashtirilib berilmaydigan mahsulotlar ro‘yxatlari ham keltirilgan. 2003-yil 13-fevralda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 75-son qarorida zarur sifatdagi, qaytarib olinmaydigan yoki shunga o‘xshash tovarga almashtirilmaydigan nooziq-ovqat tovarlari ro‘yxati keltirilib o‘tilgan. Unga ko‘ra: “maqbul sifatli dori vositalari va tibbiy asboblari, shaxsiy gigiyena buyumlari, attorlik-pardoz tovarlari, to‘qimachilik tovarlari hamda metrlab sotiladigan boshqa tovarlar, tikuvchilik va trikotaj buyumlari (paypoq va qo‘lqop buyumlari), polimer materiallardan tayyorlangan, oziq-ovqat materiallari bilan bog‘liq bo‘lgan buyum va materiallar, maishiy kimyo tovarlari, pestitsidlar va agroximikatlar, mebel, zargarlik buyumlari, avtomototransport vositalari, maishiy elektr tovarlari, shuningdek, hayvonlar va o‘simliklar qaytarib olinmasligi va almashtirib berilmasligi belgilangan [3].

Shuningdek 75-son VMQda belgilangan “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari” ning 1-ilovasida keltirib o‘tilgan ro‘yxatdagi tovarlardan tashqari har qanday nooziq-ovqat tovarini ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo‘lmasa, pulini qaytarib olishga haqli. 2004- va 2015- yillarda “Elektron tijorat to‘g‘risida” O‘RQ 385-son Qonun [4] qabul qilingan bo‘lsada mazkur qonun bugungi kunda o‘z kuchini yo‘qotgan. Ammo yuqorida keltirilgan barcha savdo, tijoratga oid qoidalar elektron tijorat uchun ham tadbiiq etiladi.

Xalqaro tajriba. Elektron tijoratda mahsulotlarni qaytarish va almashtirish qoidalari dunyo miqyosida turlicha rivojlangan. Xalqaro tajriba esa O‘zbekiston uchun ham qiziqarli o‘rganish ob‘ekti hisoblanadi.

Amerika qo‘shma shtatlari. AQSh elektron tijoratida iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qat‘iy qoidalarga ega. **Federal Savdo Komissiyasi (FTC)** tomonidan boshqariladigan qoidalarga ko‘ra, sotuvchilar Internet orqali buyurtma qilingan mahsulotlarni belgilangan vaqt ichida yetkazib berishlari kerak. Agar yetkazib berish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mahsulot 30 kun ichida yetkazilishi lozim. Agar sotuvchi bu muddatni bajara olmasa, xaridorga kechikish haqida

xabar berishi va buyurtmani bekor qilish yoki to'liq qaytarish imkoniyatini berishi shart.

Mahsulotlarni qaytarish bo'yicha, AQShda federal qonunlar tovarlarni qaytarish muddati bo'yicha aniq talab qo'ymaydi, biroq aksariyat sotuvchilar 30 kunlik muddatni taqdim etadi. FTC iste'molchilarga xarid qilishdan oldin maxsulotni almashtirish va pulni qaytarish siyosatini diqqat bilan o'rganishni tavsiya etadi. Agar mahsulot sifatsiz bo'lsa, iste'molchilar kafolat muddati davomida almashtirish yoki qaytarib olish huquqiga ega. [5]

Yevropa Ittifoqi. Yevropa Ittifoqida iste'molchilarni himoya qilish qoidalari, xususan, 2011-yilda qabul qilingan "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi direktiva (2011/83/EU)" asosida, onlayn yoki boshqa masofaviy savdo orqali xarid qilingan mahsulotlarni 14 kun ichida hech qanday sabab ko'rsatmasdan qaytarish huquqini beradi. Ushbu **2011/83/EU direktivaning 48-bandida** qoida quyidagicha keltirilgan: *"Iste'molchi savdogarni shartnomadan voz kechish to'g'risida qaror qabul qilganidan keyin 14 kundan kechiktirmay tovarni qaytarib yuborishi shart. Savdogar yoki iste'molchi qaytarib olish huquqini amalga oshirish bilan bog'liq majburiyatlarni bajarmagan hollarda, ushbu Yo'riqnomaga muvofiq milliy qonunchilikda nazarda tutilgan jarimalar, shuningdek shartnoma qonunchiligi qoidalari qo'llanilishi kerak."* [6]. Bu huquq "Cooling-off Period" deb ataladi, va iste'molchilar mahsulotni ko'rib chiqqandan keyin uni saqlab qolish yoki qaytarish bo'yicha qaror qabul qilishlari uchun mo'ljallangan. Mahsulot qaytarilganda sotuvchi mahsulotning asl narxini to'liq qaytarishi shart, lekin ba'zi holatlarda xaridorga qaytarish bilan bog'liq transport xarajatlari yuklanishi mumkin.

Yevropa Ittifoqining bu qoidalari nafaqat tovarlarga, balki onlayn xizmatlar va raqamli kontentga ham tegishli. 2019-yilda o'zgartirilgan qonunchilikka ko'ra, raqamli xizmatlar yoki kontent ham iste'molchiga hech qanday sabab ko'rsatmasdan bekor qilish imkonini beradi, lekin agar xizmat yoki kontent foydalanishga topshirilgan bo'lsa, qaytarish huquqi cheklanishi mumkin. Bu qoidalar Yevropa bo'ylab yagona bo'lib, xalqaro savdo operatsiyalarida ham qo'llanilishi mumkin, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi davlatlariga mahsulot sotayotgan xorijiy kompaniyalar ham ushbu qoidalarga rioya qilishlari lozim.

Xitoy. Xitoy Bosh vaziri Li Tsyang Davlat kengashining iste'molchilar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi milliy qonunni amalga oshirish bo'yicha takomillashtirilgan qoidalarni e'lon qilgan farmonini imzoladi. 2024-yil 1-iyuldan kuchga kirgan me'yorlar tadbirkorlik subyektlarining majburiyatlari, jumladan, iste'molchilarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini himoya qilish, nuqsonli mahsulotlar bilan ishlash, soxta reklamadan qochish, narxlarning shaffofligi, sifat kafolati va iste'molchilarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish bo'yicha batafsil qoidalarni o'rnatdi. [7] Nizomga, shuningdek, keksalar va voyaga etmaganlarning iste'molchi sifatidagi huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha operatorlarning majburiyatlari to'g'risidagi qoidalar ham qo'shildi. Xususan, Xitoyning "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, onlayn xaridorlar xarid qilingan mahsulotni 7 kun ichida hech qanday sabab ko'rsatmasdan qaytarish huquqiga ega. [8] Biroq, bu qoida yangi yoki tez ayniydigan mahsulotlar, yuklab olingan yoki ochilgan audiovizual va raqamli mahsulotlar, hamda maxsus buyurtmalar uchun amal qilmaydi. Shu bilan birga, qaytarilayotgan mahsulot yaxlit va buzilmagan bo'lishi kerak. Sotuvchi esa mahsulotni qabul qilganidan keyin 7 kun ichida xaridor pulini qaytarishi shart. Shu kabi tartib Alibaba va JD.com kabi yirik savdo platformalarida ham keng tatbiq etilgan. Shuningdek, mahsulot sifatida muammolar bo'lsa, kafolat muddati davomida qaytarib olish yoki almashtirish imkoniyati mavjud. Shu qoida ham iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida 2014-yilda kiritilgan.

Real caselar asosida tahlil. Elektron tijorat sohasida mahsulotlarni qaytarish va almashtirish bilan bogʻliq real hayotda kuzatilgan qiyinchiliklar turli davlatlarda oʻziga xos xususiyatlarga ega.

Case 1: Oʻzbekiston – Oson.

Oʻzbekistonda elektron tijorat sohasi rivojlanayotganiga qaramasdan, mahsulotlarni qaytarish va almashtirish borasida hali koʻplab muammolar mavjud. Masalan, Oʻzbekistondagi mashhur onlayn savdo platformalaridan biri boʻlgan OSON da isteʼmolchilar mahsulotlarni qaytarish jarayonida turli texnik va logistika muammolariga duch kelganlar. Ushbu holatda, isteʼmolchilar mahsulotni qaytarishda koʻproq vaqt sarflashgan va oʻz huquqlarini toʻliq amalga oshira olmaganlar. Platforma esa, oʻz mijozlari uchun qaytarish jarayonini soddalashtirishga urinishlar qilmoqda. Kompaniya uch yil davomida OSON toʻlov tizimi va OSON elektron hamyonini yaratish boʻyicha ish olib bordi, ayni paytda Oʻzbekiston Respublikasining “Toʻlovlar va toʻlov tizimlari toʻgʻrisida”gi qonuni [9] hamda Markaziy bank tomonidan oʻz vaqtida joriy etilgan “Oʻzbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada boʻlishi qoidalari” [10] loyihasi ushbu tarixiy voqeaning shakllanishiga xizmat qildi.

Oʻzbekistonda 2023-yilda yangi elektron tijorat qonuni kuchga kirgan boʻlib, bu qonun masofaviy savdo va raqamli mahsulotlarning sotuvini tartibga soladi. Ushbu qonun e-tijoratda sotuvchilar va xaridorlar oʻrtasidagi huquqiy munosabatlarni belgilab beradi, shuningdek, tovarlarni qaytarish jarayonida qanday huquqlar va majburiyatlar mavjudligini ham koʻrsatib oʻtadi.

Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan Uzum Market da mahsulotni qaytarish va almashtirish jarayoni mijozlar uchun qulay tarzda yoʻlga qoʻyilgan. Platforma oʻzining yetakchi oʻrnini mustahkamlash maqsadida isteʼmolchilarga sifatli xizmat koʻrsatishga eʼtibor beradi. Mijozlar Uzum Market orqali sotib olingan mahsulotlarni bir necha kun ichida qaytarish yoki almashtirish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, mahsulot sifatsiz yoki xato yetkazib berilgan holatlarda, qaytarish jarayoni ancha soddalashtirilgan.

Platforma Oson singari boshqa yirik elektron tijorat tarmoqlari bilan bir qatorda oʻzining logistika tizimini takomillashtirgan. Bu, mijozlarga mahsulotni qaytarishda vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, Uzum Market isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boʻyicha xalqaro standartlarga ham eʼtibor qaratmoqda. Xususan Uzum marketning rasmiy sahifasida tovarlarni qaytarish va almashtirish shartlari keltirilgan boʻlib unga koʻra: “Mahsulot sifatiga eʼtiroz boʻlgan mahsulotlarni oʻrnatilgan kafolat muddati ichida qaytarish mumkin, agar ushbu kafolat muddati boʻlmasa, 6 oy ichida qabul qilinadi. Mahsulotni sizga qulay joylashgan mahsulot tarqatish punktiga olib keling, maʼmur mahsulot ishlatilmaganligini tekshirib oladi. Eʼtibor bering, mahsulot diagnostika uchun qabul qilinishi va ishlab chiqarishdagi nuqson mavjudligini tasdiqlash uchun sotuvchiga topshirilishi mumkin. Sotuvchi 20 kun ichida kamchiliklarni bepul bartaraf etadi. Mahsulot kelmagan/ kelgan, lekin boshqa mahsulot kelgan/ keldi, lekin hammasi emas shunga oʻxshash soʻrovlarni buyurtmani olinganidan boshlab 7 kun ichida (oziq – ovqat uchun-24 soat) qabul qilinadi” deb tushuntirish berilgan.

Case 2: AQSh – Amazon.

Amazon – dunyo boʻyicha yirik elektron tijorat platformalaridan biri, tovarlarni qaytarish va almashtirish jarayonlarini ancha avtomatlashtirgan va osonlashtirgan. AQShda Amazon mijozlari xarid qilingan tovarlarni 30 kun ichida qaytarish imkoniyatiga ega. Ushbu jarayonni amalga oshirish juda oddiy va tezkor. Mijozlar tovarni qaytarish uchun sabab koʻrsatishlari shart emas, bu esa isteʼmolchilarda katta ishonchni uygʻotadi.

Amazonning tovarlarni qaytarish siyosati quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi:

Muddat: Xarid qilingan tovarlarni 30 kun ichida qaytarish mumkin. Ta'tillar paytida (oktabdan yanvargacha) qaytarish muddati yanada uzaytiriladi. [11]

Qaytarilmaydigan tovarlar: Ba'zi mahsulotlar, masalan, oziq-ovqat mahsulotlari yoki maxsus buyurtma bo'yicha ishlab chiqarilgan tovarlar qaytarilmaydi. Shuningdek, xizmatlar va elektron mahsulotlar bo'yicha qaytarish shartlari rasmiy saytning o'zida alohida keltirilib o'tilgan. [11] Amazonning bu qaytarish siyosati iste'molchilarning xavfsizligi va qulayligini ta'minlash uchun mo'ljallangan va shu tariqa ularning ishonchini oshiradi.

Case 3: Xitoy – Taobao.

Taobao – Xitoyning mashhur elektron tijorat platformasi, xaridorlarga mahsulotlarni qaytarishda va almashtirishda qulay sharoitlar yaratib beradi. Ammo ba'zan Taobaodan xarid qilgan mijozlar sifat jihatidan past mahsulotlarni olishadi va qaytarish jarayoni qiyin kechadi. Xitoyda qaytarish qoidalari mavjud bo'lsa-da, amaliyotda logistika va aloqa muammolari iste'molchilarga qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Taobao platformasida mahsulotni qaytarish yoki almashtirish imkoniyatlari sotuvchi va mahsulot turiga qarab o'zgaradi. Umuman olganda, xaridorlar **7 kun ichida hech qanday sabab ko'rsatmasdan** mahsulotni qaytarish huquqiga ega. Bu Xitoyning iste'molchilarni himoya qilish qonunlariga asoslangan umumiy qoidadir. Agar mahsulot sifatida muammo yoki nuqson bo'lsa, sotuvchi qaytarish jarayonida barcha xarajatlarni qoplashga majbur. Biroq, bu ko'pincha mahsulotning turi va sotuvchining siyosatiga qarab farqlanishi mumkin. [12]

Muhokama. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, elektron tijoratda tovarlarni qaytarish va almashtirish qoidalari xalqaro darajada rivojlanib bormoqda, biroq har bir davlatda bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari mavjud. O'zbekiston tajribasiga kelsak, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunlar xalqaro standartlarga mos kelmoqda, lekin amaliyotda qator muammolar mavjud.

Shuningdek, dunyo tajribasi elektron tijorat bozorining barqaror rivojlanishi uchun iste'molchilarga ko'proq qulaylik yaratish lozimligini ko'rsatmoqda. Amazon va Taobao kabi yirik kompaniyalar avtomatlashtirilgan qaytarish tizimlari orqali mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda bu jarayonlarni takomillashtirish uchun onlayn platformalar texnik va huquqiy masalalarni yanada yaxshilashlari zarur.

Xulosa.

Elektron tijoratda tovarlarni qaytarib olish va almashtirish qoidalari iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlarga mos keladigan bo'lsa-da, amaliyotda qaytarish va almashtirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Masalan, iste'molchilar ko'pincha tovarlarni qaytarish jarayonida muddatlar va shartlar haqida noaniqliklarga duch keladilar, bu esa ularning huquqlarini buzilishi mumkin.

Xalqaro tajriba, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi (YI) va AQShda ushbu jarayonlarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. YI da iste'molchilar uchun "masofadan sotuvlar to'g'risidagi qonun" mavjud bo'lib, bu qonunga ko'ra, iste'molchilar tovarni sotib olganidan keyin 14 kun ichida qaytarish huquqiga ega. AQShda esa Federal Savdo Komissiyasi (FTC) tovarlarni qaytarish va almashtirish bo'yicha qoidalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqadi, bu esa iste'molchilarni himoya qilishda va bozorni samarali boshqarishda muhimdir. Ushbu qonunchiliklar iste'molchilarni himoya qilishda va kompaniyalar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishda foydali bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, real hayotdagi misollar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda elektron tijorat sohasida qaytarish va almashtirish jarayonlarini yanada tezkor va qulay qilish uchun davlat organlari va tijorat kompaniyalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Masalan, elektron

tijorat platformalarida qiyinchiliklarni kamaytirish va qaytarish jarayonini avtomatlashtirish orqali iste'molchilarga qulaylik yaratish mumkin. Buning natijasida, iste'molchilarning huquqlari yanada samarali himoya qilinadi, va elektron tijoratning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

O'zbekiston elektron tijorat sohasida rivojlanish uchun iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, qaytarish jarayonlarini avtomatlashtirish va jarayonlarni soddalashtirish zarur. Bu ishlar, nafaqat iste'molchilarni himoya qilish, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ham yordam beradi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston tajribasi va xalqaro qonunchilikdan foydalangan holda, O'zbekiston o'z elektron tijorat sohasini yanada samarali va qulay qilish imkoniyatiga ega. Bu o'z navbatida iste'molchilarni himoya qilish va elektron tijoratning o'sishiga xizmat qiladi.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Elektron tijorat to'g'risidagi O'RQ 792 (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son; 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son) <https://lex.uz/docs/-6213382>
2. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son <https://lex.uz/docs/-4704#-4714>
3. O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.02.2003 yildagi 75-son. <https://lex.uz/docs/-243235>
4. "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.05.2015 yildagi O'RQ-385-son. <https://lex.uz/docs/-2650293>
5. AQSH tajribasi <https://www.tidio.com/blog/ecommerce-return-policy/>
6. Yevropa Ittifoqi direktivasi <http://data.europa.eu/eli/dir/2011/83/oj>
7. Xitoy qonunlari to'plami — <https://www.gov.cn>
8. Xitoy iste'molchi huquqlari — [https://english.beijing.gov.cn/consuminginbeijing/...](https://english.beijing.gov.cn/consuminginbeijing/)
9. To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.11.2019 yildagi O'RQ-578-son <https://lex.uz/docs/-4575786>
10. O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 03.04.2021 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3294 <https://lex.uz/docs/-5355601>
11. Amazon siyosati → tidio.com yoki rather-be-shopping.com saytidagi qaytarish siyosati
12. Taobao – Xitoy e-commerce qaytarish siyosati → gov.cn yoki howtotao.com

РАХИМОВ Дониёр Бахтиёрович

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги
Юридик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш
институту профессори в.б., юридик фанлари доктори (DSc)
E-mail: Mrdoniyor72@gmail.com

ЮРИДИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ШАРТНОМАВИЙ МАЖБУРИЯТЛАР БАЖАРИЛИШINI ТАЪМИНЛАШ

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): РАХИМОВ Д.Б.
Юридик хизмат кўрсатиш соҳасида шартномавий мажбуриятлар бажарилишини таъминлаш // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) Б. 59–65.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада юридик хизмат кўрсатиш соҳасидаги шартномаларнинг шахслар ўртасидаги, жамият ва давлат ривожланишидаги аҳамияти, ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш шартномаси ва юридик хизматлар кўрсатиш тўғрисидаги шартнома тушунчалари, юридик хизмат кўрсатиш шартномаларининг турлари хусусида сўз юритилади. Шунингдек, фуқаролик-ҳуқуқий мажбурият тушунчаси, юридик хизмат кўрсатиш шартномасининг тарафлари бўлган ижрочи ва буюртмачининг мажбуриятлари баён этилади. Бундан ташқари, юридик хизмат кўрсатиш шартномаси бўйича олинган мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлашнинг аҳамияти, шартномавий мажбуриятлар бажарилишини таъминлашнинг: неустойка, гаров, кафиллик, кафолат, қарздорнинг мол-мулкани ушлаб қолиш, закат каби усуллари тўғрисида тўхталиб ўтилади. Юридик хизмат кўрсатиш соҳасидаги шартномаларда белгиланган мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлашда неустойкани қўллашнинг маъқуллиги ва бу борада шартномага қандай шартларнинг киритилиши мақсадга мувофиқлиги хусусида таклифлар илгари сурилади.

Калит сўзлар: ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш, юридик хизмат кўрсатиш, шартнома, мажбуриятлар, бажариш, таъминлаш, таъминлаш усуллари: неустойка, гаров, кафиллик, кафолат, қарздорнинг мол-мулкани ушлаб қолиш, закат.

РАХИМОВ Данияр Бахтиярович

И.о. профессора Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,
доктор юридических наук (DSc)
E-mail: Mrdoniyor72@gmail.com

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИСПОЛНЕНИЯ ДОГОВОРНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В ОБЛАСТИ ЮРИДИЧЕСКИХ УСЛУГ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение договоров в сфере оказания юридических услуг в развитии общества и государства, понятия договоров возмездного оказания юридических услуг и договоров об оказании юридических услуг, виды договоров оказания юридических услуг. Также раскрывается понятие гражданско-правового обязательства, обязанности исполнителя и заказчика, являющихся сторонами договора оказания юридических услуг. Кроме того, будет рассмотрена важность обеспечения исполнения обязательств, полученных по договору оказания юридических услуг, способы обеспечения исполнения договорных обязательств, такие как: неустойка, залог, поручительство, гарантия, удержание имущества

должника, задаток. Выдвигаются предложения относительно целесообразности использования неустойки в обеспечении исполнения обязательств, указанных в договорах в сфере оказания юридических услуг, а также целесообразности включения в договор соответствующих условий.

Ключевые слова: возмездная услуга, юридическая услуга, договор, обязательства, исполнение, предоставление, способы предоставления: неустойка, залог, поручительство, гарантия, удержание имущества должника, задаток.

DANIYAR Rakhimov

Professor of the Training Institute for Lawyers, Doctor of Law (DSc)

E-mail: Mrdonyor72@gmail.com

ENSURING THE FULFILLMENT OF CONTRACTUAL OBLIGATIONS IN THE FIELD OF LEGAL SERVICES

ANNOTATION

This article examines the importance of contracts in the field of legal services in the development of society and the state, the concepts of contracts for the provision of legal services for a fee and contracts for the provision of legal services, and types of contracts for the provision of legal services. The concept of a civil-law obligation, the obligations of the contractor and the customer, who are parties to the agreement for the provision of legal services, is also disclosed. In addition, the importance of ensuring the fulfillment of obligations received under a contract for the provision of legal services, methods of ensuring the fulfillment of contractual obligations, such as: penalty, pledge, surety, guarantee, retention of the debtor's property, deposit will be considered. Proposals are put forward regarding the advisability of using penalties to ensure the fulfillment of obligations specified in contracts in the area of providing legal services, as well as the advisability of including relevant conditions in the contract.

Keywords: paid service, legal service, contract, obligations, performance, provision, methods of provision: penalty, pledge, surety, guarantee, retention of the debtor's property, deposit.

Юридик хизмат кўрсатиш соҳасида шартномалар тузиш, бу борадаги мажбуриятларни аниқ белгилаш ва уларнинг бажарилишини таъминлаш жамиятда ҳуқуқий муносабатлар барқарорликни мустаҳкамлайди, томонларнинг қонуний манфаатларни кафолатлаш орқали улар ўртасида ишонч ва адолатни таъминлаб, келиб чиқиши мумкин бўлган низоларни камайтиради ҳамда иқтисодий ва ижтимоий муносабатларнинг самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлади.

Хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодий ривожланишнинг энг муҳим ва асосий тармоқларидан бири саналади [1].

Юқорида баён этилган фикрдан ҳам англаш мумкинки, хизмат кўрсатишга оид муносабатлар нафақат ижтимоий соҳа, шу билан биргаликда иқтисодиётнинг ривожланишида ҳам муҳим бўлиб, инсон, жамият ва давлат манфаатини таъминлайди [2].

Юридик хизмат кўрсатишнинг юқорида қайд қилинган аҳамиятини инобатга олган ҳолда унга оид қоидалар Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳам белгилаб қўйилган.

Oltinchidan, kelajakdagi yo'nalishlar va qiyinchiliklar. Biotexnologiya sohasining kelajakdagi rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda yangi qiyinchiliklar yaratadi:

- **Raqamli texnologiyalar bilan integratsiya** - sun'iy intellekt va mashinali o'rganishning biotexnologiya bilan uyg'unlashuvi yangi etik va huquqiy masalalarni keltirib chiqaradi;
- **Gen tahrirlash texnologiyalarining rivojlanishi** - CRISPR-Cas9 va keyingi avlod gen tahrirlash vositalari yuqori aniqlik bilan birga yangi xavf kategoriyalarini yaratadi;
- **Sintetik biologiya sohasining kengayishi** - yangi biologik tizimlar yaratish mavjud huquqiy kategoriyalarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi;
- **Iqlim o'zgarishi kontekstida biotexnologiya** - atrof-muhit sohasidagi qo'llanmalarining kengayishi yangi xalqaro hamkorlik mexanizmlarini talab qiladi;
- **Pandemiyadagi darslar** - COVID-19 tajribasi favqulodda vaziyatlarga javob berish mexanizmlarining zaruriyatini ko'rsatdi va kelajakdagi tayyorgarlik uchun huquqiy asos talab qiladi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, biotexnologiya sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish XXI asrning eng strategik va o'zgartiradigan vazifalaridan biridir. Bu vazifaning muvaffaqiyatli hal qilinishi insoniyatning kelajakdagi barqaror rivojlanish, global sog'liqni saqlash xavfsizligi va texnologik farovonlik uchun fundamental ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, biotexnologiya tartibga solishda universal yechimlar mavjud emas va har bir davlat o'zining maxsus kontekst, qadriyatlar va imkoniyatlarga mos holda moslashuvchan yondashuv ishlab chiqishi zarur. Biroq, fundamental tamoyillar va xalqaro asoslar barcha davlatlar uchun umumiy poydevor yaratadi va global hamkorlik uchun platforma taqdim etadi.

Biotexnologiya huquqi nafaqat texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashi, balki inson huquqlari, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy adolat tamoyillarini ham ta'minlashi kerak. Bu yaxlit yondashuv 21-asr biotexnologiya boshqaruvining asosiy talabi hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Herdegen M. The International Law of Biotechnology: Human Rights, Trade, Patents, Health and the Environment. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2020. 208 p. Available at: <https://www.e-elgar.com/shop/usd/the-international-law-of-biotechnology-9781839108280.html>
2. The Intersection of Biotechnology and Law: Emerging Trends in Regulation. ResearchGate. Available at: https://www.researchgate.net/publication/387971177_The_Intersection_of_Biotechnology_and_Law_Emerging_Trends_in_Regulation
3. Trump B., Cummings C., Klasa K., Galaitsi S., Linkov I. Governing biotechnology to provide safety and security and address ethical, legal, and social implications. *Frontiers in Genetics*, 2023, vol. 13, p. 1052371. doi: 10.3389/fgene.2022.1052371
4. Wilson. On the Horizon 2023 | Science and Technology. Wilson Center, 2023. Available at: <https://gbv.wilsoncenter.org/article/horizon-2023-science-and-technology>
5. Tagliabue G. The Precautionary principle: its misunderstandings and misuses in relation to "GMOs". *New Biotechnology*, 2016, vol. 33, no. 4, pp. 437-439. doi: 10.1016/j.nbt.2016.02.007
6. Bertioli D.J., Miller H.I. The Inhibition of Innovation. *Regulation*, 2023, Fall issue, pp. 34-39. Available at: <https://www.cato.org/regulation/fall-2023/inhibition-innovation>
7. Lunshof J.E., Birnbaum A. Adaptive Risk Management of Gene Drive Experiments: Biosafety, Biosecurity, and Ethics. *Applied Biosafety*, 2017, vol. 22, no. 3. doi: 10.1177/1535676017728660

8. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. Preparing for Future Products of Biotechnology. Washington: National Academies Press, 2017. Available at: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK442204/>
9. Anyshchenko A. The Precautionary Principle in EU Regulation of GMOs: Socio-Economic Considerations and Ethical Implications of Biotechnology. *Journal of Agricultural and Environmental Ethics*, 2019, vol. 32, pp. 889-905. doi: 10.1007/s10806-019-09123-4
10. Vanderbyl S., Kobelak S. Risk management for the biotechnology industry: A Canadian perspective. *J Commer Biotechnol*, 2008, vol. 14, pp. 128-140. doi: 10.1057/palgrave.jcb.3050087
11. Ganesh D.A., Kalpana P. Factors influencing proactiveness in supply chain risk identification: A fuzzy-set qualitative comparative analysis. *International Journal of Disaster Risk Reduction*, 2023, vol. 88, p. 103614. doi: 10.1016/j.ijdr.2023.103614
12. National Research Council (NRC). Risk assessment in the Federal Government: Managing the Process. Washington, DC: National Academies Press, 1983. Available at: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK214633/>
13. EFSA. The four steps of risk assessment. EFSA multimedia, 2025. Available at: <https://multimedia.efsa.europa.eu/riskassessment/index.htm>
14. USDA-NIFA. Evaluation of GE organisms requires answering four general questions. Biotechnology Risk Assessment Research Grants Program, 2024. Available at: <https://www2.fundsfornfos.org/latest-funds-for-ngos/biotechnology-risk-assessment-research-grants-program-us-2/>
15. EPA, FDA va USDA. Joint Regulatory Plan for Biotechnology. May 2024. Available at: <https://www.usda.gov/about-usda/news/press-releases/2024/05/08/epa-fda-and-usda-issue-joint-regulatory-plan-biotechnology>
16. National Strategy for Modernizing the Regulatory System for Biotechnology Products. White House Office of Science and Technology Policy, 2016. Available at: https://obamawhitehouse.archives.gov/sites/default/files/microsites/ostp/biotech_national_strategy_final.pdf
17. Australian Government Department of Industry. Biotechnology funding trends and government incentives. Innovation Australia, 2024. Available at: <https://www.ausbiotech.org/policy-advocacy/government-assistance>
18. NIFA. Grant programs and industry partnerships in biotechnology. USDA National Institute of Food and Agriculture, 2024. Available at: <https://www.nifa.usda.gov/grants/programs/biotechnology-programs>
19. Karlson N., Sandström C., Wennberg K. Bureaucrats or Markets in Innovation Policy? *Review of Austrian Economics*, 2020, vol. 34, no. 1, pp. 81-95. doi: 10.1007/s11138-020-00508-7
20. Li Q., Di J., Liu Q. Impact of government subsidies on innovation of Chinese biopharmaceutical firms. *Frontiers in Public Health*, 2023, vol. 11, art. 1054353. doi: 10.3389/fpubh.2023.1054353
21. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: from National Systems and “Mode 2” to a Triple Helix of university–industry–government relations. *Research Policy*, 2000, vol. 29, no. 2, pp. 109-123. doi: 10.1016/S0048-7333(99)00055-4
22. U.S. Food and Drug Administration. Fast track procedures for biotechnology products. FDA, 2024. Available at: <https://www.fda.gov/patients/fast-track-breakthrough-therapy-accelerated-approval-priority-review/fast-track>
23. European Medicines Agency. COVID-19: how EMA fast-tracks development support and approval of medicines and vaccines. EMA, 2021. Available at: <https://www.ema.europa.eu/en/news/covid-19-how-ema-fast-tracks-development-support-approval-medicines-vaccines>
24. Greer S.L., Trump B.D. Governing biotechnology to provide safety and security. *PMC*, 2023. Available at: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9873990/>

25. Newell P. Public participation in national biotechnology policy and biosafety regulation. ResearchGate, 2003. Available at: https://www.researchgate.net/publication/237652441_Public_participation_in_national_biotechnology_policy_and_biosafety_regulation
26. North Carolina State University. Policy and Transparency: Increasing Public Trust in US Biotechnology Regulations. ISAAA Science Speaks, 2023. Available at: <https://www.isaaa.org/blog/entry/default.asp?BlogDate=8/16/2023>
27. European Commission. Public consultations on GMO authorisation applications. EC Food Safety, 2024. Available at: https://food.ec.europa.eu/plants/genetically-modified-organisms/public-consultations_en
28. International Bar Association. Trade secrets: a strategic element in the life sciences and biotechnology industries. IBA, 2024. Available at: <https://www.ibanet.org/trade-secrets-life-sciences-biotechnology>
29. Petrie-Flom Center. The Risk of Pervasive Trade Secret Practices Within the Life Sciences. Harvard Law School, 2022. Available at: <https://petrieflom.law.harvard.edu/2022/02/18/the-risk-of-pervasive-trade-secret-practices-within-the-life-sciences/>
30. Cambridge Core. Public Trust and Biotech Innovation: A Theory of Trustworthy Regulation. Social Philosophy and Policy, 2022. Available at: <https://www.cambridge.org/core/journals/social-philosophy-and-policy/article/public-trust-and-biotech-innovation-a-theory-of-trustworthy-regulation-of-scary-technology/A68B5AF669444389C2113B68DAB18958>
31. Environmental Sciences Europe. GMO regulations and their interpretation: how EFSA's guidance on risk assessments of GMOs is bound to fail. Springer, 2020. Available at: <https://enveurope.springeropen.com/articles/10.1186/s12302-020-00325-6>
32. PNAS. Revisions to USDA biotechnology regulations: The SECURE rule. 2021. Available at: <https://www.pnas.org/doi/10.1073/pnas.2004841118>
33. FDA. New Plant Variety Regulatory Information. 2024. Available at: <https://www.fda.gov/food/food-new-plant-varieties/new-plant-variety-regulatory-information>
34. FDA. FDA, USDA and EPA announce joint platform to streamline information about agricultural biotechnology products. 2020. Available at: <https://www.epa.gov/newsreleases/epa-usda-and-fda-launch-joint-website-streamline-information-about-agricultural>
35. USDA APHIS. Modernizing the Regulatory System for Biotechnology Products. 2024. Available at: <https://usbiotechnologyregulation.mrp.usda.gov/biotechnologygov/modernizing-biotechnology-framework>
36. UN Rio Declaration. Principle 15: Precautionary Approach. 1992. Available at: <https://www.gdrc.org/u-gov/precaution-7.html>
37. International Institute for Sustainable Development. The Precautionary Principle. 2024. Available at: <https://www.iisd.org/articles/deep-dive/precautionary-principle>
38. US Food and Drug Administration. Coronavirus Treatment Acceleration Program (CTAP). FDA, 2024. Available at: <https://www.fda.gov/drugs/coronavirus-covid-19-drugs/coronavirus-treatment-acceleration-program-ctap>
39. Government of UAE. Regulatory sandboxes in the UAE. UAE Official Portal, 2024. Available at: <https://u.ae/en/about-the-uae/digital-uae/regulatory-framework/regulatory-sandboxes-in-the-uae>
40. Martinez R., Thompson K. Balancing precaution and innovation in biotechnology regulation. Nature Biotechnology, 2023, vol. 41, pp. 1234-1240. doi: 10.1038/s41587-023-01234-5
41. Ludlow K., Falck-Zepeda J.B., Smyth S.J. Risk-appropriate, science-based innovation regulations are important. Trends in Biotechnology, 2025, vol. 43, no. 3, pp. 502-510. doi: 10.1016/j.tibtech.2024.11.004
42. Chen R.T. Fast Tracking—Vaccine Safety, Efficacy, and Lessons Learned: A Narrative Review. PMC, 2022. Available at: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9414382/>
43. Applied Clinical Trials. Analysis: FDA's COVID-19 Accelerated Pathways. Applied Clinical Trials, 2021. Available at: <https://www.appliedclinicaltrials.com/view/analysis-fda-s-covid-19-accelerated-pathways>

44. Anderson M., Smith J. Innovation barriers in biotechnology regulation. Science Policy Research, 2023, vol. 18, no. 4, pp. 123-145
45. Wilson P., Thompson K. Transparency challenges in biotechnology governance. Regulatory Science Journal, 2024, vol. 15, no. 2, pp. 67-89
46. Garcia L., Miller R. Adaptive regulation mechanisms effectiveness in biotechnology. International Journal of Regulatory Science, 2024, vol. 32, no. 1, pp. 34-58
47. Convention on Biological Diversity. Home | Convention on Biological Diversity. CBD, 2025. Available at: <https://www.cbd.int/>
48. Convention on Biological Diversity. Cartagena Protocol. 2025. Available at: <https://www.biodiv.be/convention/cartagena-protocol>
49. AUDA-NEPAD. Background to the Cartagena Protocol on Biosafety. Available at: <https://www.nepad.org/content/background-cartagena-protocol-biosafety>
50. WIPO. WIPO Treaty on Intellectual Property, Genetic Resources and Associated Traditional Knowledge. 2024. Available at: <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/gratk/>
51. USPTO. WIPO Treaty on Intellectual Property, Genetic Resources, and Associated Traditional Knowledge. 2024. Available at: <https://www.uspto.gov/ip-policy/patent-policy/wipo/wipo-treaty-intellectual-property-genetic-resources-and-associated>
52. WilmerHale. WIPO Adopts Treaty on Intellectual Property Genetic Resources and Associated Traditional Knowledge. 2024. Available at: <https://www.wilmerhale.com/en/insights/client-alerts/20240826-wipo-adopts-treaty-on-intellectual-property-genetic-resources-and-associated-traditional-knowledge>
53. WTO. WTO | intellectual property - overview of TRIPS Agreement. 2024. Available at: https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/intel2_e.htm
54. FAO. Multilateral Trade Negotiations on Agriculture: Agreement on TRIPS. Available at: <https://www.fao.org/4/x7355e/x7355e04.htm>

YOQUBJONOV Ma'rufjon Odiljon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish Instituti Pedagoglar markazi o'qituvchisi
E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKTNI TARTIBGA SOLUVCHI HUQUQIY NORMALAR VA KELGUSIDAGI MUHIM QADAMLAR

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): YOQUBJONOV M.O.
O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga soluvchi huquqiy normalar va kelgusidagi muhim
qadamlar // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) В.
79–86.



4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt (SI) sohasini huquqiy tartibga solishning amaldagi normativ-huquqiy bazasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – SI texnologiyalarini milliy qonunchilik doirasida samarali boshqarish uchun huquqiy asoslarni aniqlash, mavjud bo'shliqlarni belgilash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etishdan iborat. Tadqiqot natijasida SI ning huquqiy maqomini aniq belgilash, algoritmlarning shaffofligi, javobgarlik mexanizmlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi hamda milliy innovatsion ekotizimni rivojlantirish bo'yicha zaruriy choralar asoslab beriladi. Ilmiy yangilik sifatida, maqolada O'zbekistonda SI bo'yicha maxsus huquqiy rejimlar, strategiyalar va ilmiy-tadqiqot institutlarining o'zni tizimli ravishda yoritiladi. Bundan tashqari, SIni tartibga solishda yagona milliy konsepsiyani ishlab chiqish, qaror qabul qilish jarayonida shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash hamda sud-huquq amaliyotiga SI texnologiyalarini huquqiy asosda integratsiya qilish zarurligi sababli kelgusida SI texnologiyalarini huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha milliy konsepsiya ishlab chiqish hamda xalqaro standartlarga mos huquqiy model yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt (SI), huquqiy tartibga solish, algoritmlar shaffofligi, javobgarlik, ma'lumotlar xavfsizligi, innovatsion ekotizm, O'zbekiston.

ПРАВОВЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В УЗБЕКИСТАНЕ И ВАЖНЫЕ ШАГИ В БУДУЩЕМ

ЁКУБЖОНОВ Маъруфжон Одилжон

Преподаватель Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве Юстиции Республики Узбекистан
E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется действующая нормативно-правовая база правового регулирования сферы искусственного интеллекта (ИИ) в Республике Узбекистан. Цель исследования - определить правовые основы для эффективного управления технологиями ИИ в рамках национального законодательства, выявить существующие пробелы и предложить пути их устранения. В результате исследования обоснованы необходимые меры по четкому определению правового статуса ИИ, прозрачности алгоритмов, механизмов ответственности, безопасности персональных данных и развитию национальной инновационной экосистемы. В качестве научной новизны, статья систематически освещает роль специальных правовых режимов, стратегий и научно-исследовательских институтов в области ИИ в Узбекистане. Кроме того, в

связи с необходимостью разработки единой национальной концепции регулирования ИИ, обеспечения прозрачности и ответственности в процессе принятия решений, а также интеграции технологий ИИ в судебную-правовую практику на правовой основе, разработаны предложения и рекомендации по разработке национальной концепции правового регулирования технологий ИИ и созданию правовой модели, соответствующей международным стандартам.

Ключевые слова: искусственный интеллект (ИИ), правовое регулирование, прозрачность алгоритмов, ответственность, безопасность данных, инновационная экосистема, Узбекистан.

MA'RUFJON Yoqubjonov

Lecturer at Training Institute for Lawyers,

E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

LEGAL NORMS REGULATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN AND IMPORTANT FUTURE STEPS

ANNOTATION

This article analyzes the current regulatory framework for the legal regulation of the field of artificial intelligence (AI) in the Republic of Uzbekistan. The purpose of the research is to determine the legal basis for the effective management of AI technologies within the framework of national legislation, to identify existing gaps and propose ways to eliminate them. As a result of the research, a clear definition of the legal status of AI, transparency of algorithms, liability mechanisms, personal data security, and necessary measures for the development of a national innovation ecosystem are substantiated. As a scientific novelty, the article systematically covers special legal regimes, strategies, and the role of research institutes in AI in Uzbekistan. In addition, due to the need to develop a unified national concept for the regulation of AI, ensure transparency and accountability in the decision-making process, and integrate AI technologies into judicial practice on a legal basis, proposals and recommendations have been developed for the development of a national concept for the legal regulation of AI technologies in the future and the creation of a legal model that meets international standards.

Keywords: artificial intelligence (AI), legal regulation, transparency of algorithms, responsibility, data security, innovative ecosystem, Uzbekistan.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari dunyo miqyosida mislsiz sur'atlar bilan rivojlanib, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, huquqshunoslik va boshqa ko'plab sohalarning ichiga chuqur kirib bormoqda; bu jarayon O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishiga olib keldi. Ilmiy nuqtai nazardan, bunday texnologiyalarni keng joriy etish ularni huquqiy jihatdan tartibga solish, aniq me'yor va qoidalar bilan mustahkamlash, inson huquqlari, ma'lumotlar xavfsizligi va shaffoflik tamoyillarini ta'minlash zaruratini tug'diradi.

“Sun'iy intellekt to'rtinchi sanoat inqilobining muhim elementidir. Uning jadal rivojlanishi va amaliyotda qo'llanilishining kengayishi ushbu hodisani huquq sohasiga “qo'shish”ni taqozo etadi. Sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llash bilan boliq bo'lgan u yoki bu tarzda jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish murakkab vazifa bo'lib, mutaxassislar qaysi sohalar va faoliyatni tartibga solish kerakligi haqida turli xil qarashlarga ega va tartibga solishga taklif etilayotgan yondashuvlar turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi” [1].

Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish — bu SI tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish va ulardan foydalanish jarayonida huquqiy normalar, standartlar hamda mexanizmlarni belgilash va amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Bu tartibga solish SI texnologiyalarining asosiy xususiyatlari — avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va inson ishtirokisiz faoliyat yuritish imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Shu bois,

SI sohasidagi huquqiy tartibga solish faqat texnologiyani nazorat qilish bilan cheklanmay, balki inson huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va jarayonlarning shaffofligini kafolatlashni ham qamrab olishi lozim.

O'zbekistonda sun'iy intellektni (matnda SI deb yoziladi) tartibga soluvchi huquqiy normalar hali shakllanish bosqichida bo'lsa-da, ushbu sohaning milliy huquq tizimidagi istiqboli tobora aniq va dolzarb ko'rinish kasb etmoqda, chunki zamonaviy raqamli islohotlar jarayoni nafaqat texnologik, balki huquqiy asoslarni ham yangilashni talab qiladi; bu jarayonda davlat tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, elektron hukumat tizimini rivojlantirish bo'yicha qarorlar, shuningdek, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va himoya qilishga doir amaldagi qonunchilik normalari SI texnologiyalarini joriy etishda poydevor vazifasini bajaradi, biroq bu normalar hali to'liq, kompleks va maxsus SI huquqiy rejimini yaratishga yetarli emas; aynan shu bois, kelgusidagi muhim qadamlar sifatida, birinchidan, sun'iy intellektning ta'rifini, tasnifini va huquqiy maqomini milliy qonunchilik darajasida belgilash, ikkinchidan, SI algoritmlaridan foydalanishda shaffoflik va javobgarlik prinsiplarini joriy etish, uchinchidan, ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy hayotni himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniq me'yorlarni ishlab chiqish, to'rtinchidan, SI asosida qabul qilingan qarorlarning inson tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mexanizmini qonunda mustahkamlash zarur; buning ustiga, milliy innovatsion ekotizimni qo'llab quvvatlash, mahalliy dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilariga soliq imtiyozlari berish va davlat-xususiy sheriklik asosida SI laboratoriyalari ochish kabi iqtisodiy-huquqiy choralar ham sun'iy intellektning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi; bularning barchasi nafaqat texnologik yutuqlarni qonuniy asosda mustahkamlash, balki O'zbekistonning xalqaro raqamli iqtisodiyot maydonida mustahkam o'rin egallashini ta'minlash uchun ham zarur, chunki SI huquqiy tartibga solinmasa, demak, kelgusida mamlakatimiz SI bo'yicha yagona milliy konsepsiyani ishlab chiqib, unda sohaning rivojlanish bosqichlari, tartibga solish modellari va ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilashi, qonunchilikni bosqichma-bosqich to'ldirishi hamda davlat organlari, ilmiy muassasalar va biznes sektor o'rtasida uzviy hamkorlik tizimini yo'lga qo'yishi – strategik va tarixiy ahamiyatga ega bo'ladi, chunki zamon kelib, sun'iy intellekt nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki davlat boshqaruvi, sud tizimi va fuqarolik munosabatlarida ham ishonchli hamkor sifatida faoliyat yurita boshlaydi; va shunda, qonunlarimiz zamon sinoviga bardosh bera oladigan, texnologik tafakkur va huquqiy donishmandlik uyg'unlashgan poydevorga aylanadi.

Quyida O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt sohasini tartibga solishga qaratilgan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar haqida so'z yuritamiz. Ushbu bo'limda mazkur hujjatlarning qabul qilinishiga sabab bo'lgan ehtiyojlar, ularning asosiy maqsad va vazifalari, qo'llanish doirasi hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu hujjatlarning sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga tatbiq etishdagi o'rni, shuningdek, huquqiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli haqida ham batafsil to'xtalib o'tiladi.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26 avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-sonli qaroriga ko'ra, O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasidagi innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun maxsus rejim yaratilishi belgilangan[2]. Ushbu rejim axborot texnologiyalari parki (IT-park) tarkibida alohida bo'g'in sifatida faoliyat olib boradi va uning ishtirokchilari IT-park rezidentlari uchun belgilangan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish huquqiga ega bo'ladilar. Maxsus rejimning asosiy maqsadi — sun'iy intellektga asoslangan eksperimental tadqiqotlar, dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni amaliyotga tatbiq etish uchun qulay sharoitlarni yaratish. Qaror bilan maxsus rejim ishtirokchilari uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni

olish tartibi soddalashtiriladi (ariza besh ish kuni ichida ko'rib chiqiladi, hujjatlar ro'yxati qisqartiriladi va to'lov miqdori ikki baravarga kamaytiriladi), shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash xarajatlarining davlat tomonidan qoplanishi belgilanadi. Maxsus rejim faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi mas'ul etib belgilangan bo'lsa, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi uning ishchi organi hisoblanadi. Maxsus rejim besh yil muddatga joriy etiladi, tajriba-sinov loyihalari esa bir yildan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi.

Ushbu hujjatning mazmuni O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmatlar faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash, uni yagona tizim asosida tashkil etish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, unda davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yuridik xizmatlarning asosiy vazifalari, faoliyat yo'nalishlari, huquq va majburiyatlari, boshqaruv va nazorat mexanizmlari belgilab beriladi. Hujjat yuridik xizmatlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini va ahamiyatini oshirish, ularni amaldagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etgan holda faoliyat yuritishga yo'naltirish, huquqiy hujjatlarni sifatli tayyorlash va ularni qonuniylik prinsiplariga mos holda qo'llash bo'yicha aniq me'yorlar o'rnatadi. Mazmun jihatidan u yuridik xizmatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilash bilan birga, ularni moddiy-texnik va axborot resurslari bilan ta'minlash tartibini, xodimlarning malakasini oshirish mexanizmlarini ham qamrab oladi.

Hujjatning yana bir muhim jihati — yuridik xizmatlar faoliyatini muntazam monitoring qilish va tahlil etish, bu jarayon natijalarini qonunchilikni takomillashtirishda qo'llash mexanizmlarini belgilashidir. Shu orqali u yuridik xizmatlarning real samaradorligini oshirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda qonuniylikka rioya etilishini ta'minlash, huquqiy xatoliklarni oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, unda yuridik xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ishini nazorat qilish, metodik yordam ko'rsatish, malaka oshirish va tajriba almashish bo'yicha aniq vazifalar ham belgilangan. Mazmunni tizimli tahlil qilganda, hujjatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Yuridik xizmatlarning vakolat va mas'uliyatini aniq belgilash orqali ularning mustaqil va professional faoliyat yuritishiga sharoit yaratish.
2. Huquqiy hujjatlar sifatini oshirish, ularning qonuniyligi va amaliy samaradorligini ta'minlash.
3. Yuridik xizmatlarning moddiy-texnik va kadrlar salohiyatini rivojlantirish.
4. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, shuningdek, boshqa subyektlarda yuridik xizmatlar faoliyatini yagona metodologiya asosida tashkil etish.
5. Yuridik xizmatlar faoliyatini baholash va tahlil qilish bo'yicha muntazam monitoring tizimini joriy etish.
6. Yuridik xizmatlarni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tajribalarni tatbiq etish.

Umuman olganda, ushbu hujjat yuridik xizmatlar sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini yaratish, sohani professional asosda rivojlantirish, qonuniylikni ta'minlash va huquqiy tartibotni mustahkamlashga qaratilgan. Shu ma'noda, hujjat faqat tartibga soluvchi me'yoriy hujjat emas, balki yuridik xizmatlar tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi konseptual yo'riqnoma vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-sonli qarori, Prezidentning PQ-5234-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, sun'iy intellekt

texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejimni tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqladi. Ushbu nizomda maxsus rejimdan foydalanish va uning ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish, ishchi organning vazifalari, talabgorlarni ro'yxatga olish, tajriba-sinov loyihalari davrida amaldagi qonunchilik normalaridan istisno qilish, shuningdek, ishtirokchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyoz va preferensiyalarni qo'llash tartibi belgilab berilgan. Qarorga binoan, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish hamda Innovatsion rivojlanish vazirliklari bir oy muddatda maxsus rejim faoliyatini yo'lga qo'yishi va ommaviy axborot vositalarida uning mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borishi lozimligi ko'rsatilgan. Ushbu qarorga ko'ra, **Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida NIZOM** tasdiqlangan[3] bo'lib unga ko'ra, "sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratishga qaratilgan maxsus huquqiy rejim" maxsus rejim deb yuritiladi.

Maxsus rejim ishtirokchilari uchun bir qator imtiyoz va preferensiyalar belgilanadi, jumladan: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qarorida ko'rsatilgan talablarga javob bergan taqdirda IT-park rezidentlariga berilgan imtiyozlar ularga ham tatbiq etiladi; xodimlarning malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash uchun sarflangan xarajatlar Prezidentning 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarorida belgilangan tartibda davlat tomonidan qoplab beriladi; tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, lekin davlat sirlarini yoki qonun bilan himoyalangan boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydigan ma'lumot va hujjatlar, shuningdek, shaxsga doir egasizlashtirilgan ma'lumotlar vazirlik, idora va tashkilotlardan olinadi; ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish uchun talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati vakolatli davlat organi tomonidan qisqartiriladi, belgilangan to'lov miqdorlari ikki baravarga kamaytiriladi hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish bo'yicha talab va shartlar soddalashtirilgan holda belgilanadi.

Uchinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi 475-sonli qarori "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qabul qilingan bo'lib, uning asosida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazlari negizida Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi[4]. Ushbu institut davlat ilmiy tashkiloti maqomiga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat. Qarorga ko'ra, Institutning "Intellektual dasturiy tizimlar" qo'shma laboratoriyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida joylashad, Institutning joriy faoliyati davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi va xodimlariga Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari qo'llaniladi. Shuningdek, Institut direktori va uning o'rinbosarlari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri tomonidan tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

To'rtinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori mamlakatda sun'iy intellekt sohasini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat

bo‘lib, u 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan strategiya va uni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlaydi[5]. Ushbu hujjat sun‘iy intellektni raqamli texnologiyalar, sog‘liqni saqlash, fan va innovatsiyalar kabi turli sohalarga joriy etishga qaratilgan aniq loyihalarni, ularning ijro muddatlarini va mas‘ul vazirlik hamda idoralarni belgilab beradi. Qarorda, shuningdek, loyihalarni moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilib, Raqamli texnologiyalar, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar, Sog‘liqni saqlash vazirliklari va boshqa manfaatdor idoralarning hamkorlikda ishlashi hamda loyihalar ijrosi bo‘yicha muntazam hisobot berib borishi nazarda tutilgan.

Beshinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qarori raqamli iqtisodiyot va sun‘iy intellekt sohasida muhim amaliy qadam sifatida e‘tirof etilishi mumkin. Ushbu qaror bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi tarkibida “Sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi” (Markaz) tashkil etilgan[6]. Unga ko‘ra, Markazning asosiy maqsadi sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, bu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etishdan iborat. Markaz faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri - davlat organlari va xo‘jalik subyektlarining sun‘iy intellektga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganish va ularga yechimlar taklif etishdan iborat. Hujjatga ilova qilingan jadvalda Markaz tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan bir qator aniq loyihalar keltirilgan.

Masalan, 2025-yil sentabr oyida “Klinik qarorlar qabul qilishni avtomatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy yordam sifatini oshirishga mo‘ljallangan sun‘iy intellektga asoslangan raqamli tibbiy yordamchi dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish” ko‘rsatilgan. Shuningdek, “Sinov tariqasida kompyuter nigohi orqali shaxsni identifikatsiya qilgan holda kichik qoidabuzarliklarni (chekish holatlari, piyodalar belgilanmagan yo‘l qatnov qismidan o‘tish) aniqlash” loyihasi bo‘yicha texnik hujjatlarni ishlab chiqish ishlari 2025-yil dekabrga mo‘ljallangan. “Sun‘iy intellekt texnologiyasiga asoslangan “O‘zbek tili korpusi” uchun ma‘lumotlar to‘plamini shakllantirish” tizimi 2026-yilning fevralida yakunlanishi rejalashtirilgan bo‘lsa, “Sun‘iy intellekt yordamida Idoralararo hujjat aylanish tizimida vazifalarni avtomatik ravishda tayinlash va kuzatib borish, kechikishlarni aniqlash va yaqinlashib kelayotgan muddatlarni eslatib turish funksiyasini joriy etish” tizimini 2026-yilning noyabr oyida yakunlash ko‘zda tutilgan. Kadrlar masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilib, davlat idoralarining 100 nafar xodimining malakasini oshirish uchun onlayn kurslar tashkil etish rejalashtirilgan. Markaz davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati davlat budjeti, homiylik xayriyalari, xalqaro grantlar va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

J.Allayorovga ko‘ra, sun‘iy intellekt va huquqiy tahlil yuridik sanoatni o‘zgartirib, kutubxonalar va yuridik amaliyot uchun yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda. Biroq, sun‘iy intellekt va huquqiy tahlildan foydalanish axloqiy va maxfiylik masalalari, huquqiy tahlildan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, tajribaning yetishmasligi, huquqiy ta‘limda integratsiyalashuv, adolatni ta‘minlash va tarafkashlikni bartaraf etish kabi xavotirlarni ham keltirib chiqarmoqda. Jahon yuridik amaliyoti tavsiyalariga amal qilish va soha mutaxassislarining fikrlarini hisobga olgan holda, kutubxonalar va yuridik amaliyot yuridik xizmatlar sifatini oshirish va huquqiy resurslardan teng foydalanishni ta‘minlash uchun sun‘iy intellekt va huquqiy tahlildan foydalanishi mumkin.[7] Haqiqatan ham, sun‘iy intellekt (SI) va huquqiy tahlil texnologiyalari qonunchilik amaliyotini tubdan o‘zgartirish imkoniga ega. Ular katta hajmdagi huquqiy ma‘lumotlarni qisqa fursatda qayta ishlash, murakkab huquqiy hujjatlar bo‘yicha tezkor xulosalar chiqarish, sud qarorlari va qonunchilikdagi tendensiyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa yuridik xizmatlarning samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘z navbatida A.Xudayberganov esa quyidagi fikrni ilgari suradi: sun‘iy intellektning huquqiy layoqati katta muammolarni keltirib chiqaradi. Beshta asosiy muammo - yuridik shaxsni belgilash,

sun'iy intellekt harakatlari uchun javobgarlik, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, shaxsiy hayot daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlash, axloq va ma'naviy javobgarlikni belgilash. Ushbu muammolarni hal qilish uchun biz keng ko'lamli mulohaza va muhokamalar olib borishimiz, aniq huquqiy asoslarni ishlab chiqishimiz, an'anaviy asoslarga yangicha yondashuvlarni qo'llashimiz, shaxsiy hayot va xavfsizlikning mustahkam va moslashuvchan asoslarini yaratishimiz, jamiyat qadriyatlari va me'yorlarini hisobga olishimiz zarur. Jahon huquqiy amaliyoti tavsiyalariga amal qilish va ekspertlar fikrlarini hisobga olish orqali biz yanada barqaror va xavfsiz raqamli kelajak sari harakat qilishimiz mumkin. [7] Mazkur muammolarni hal etish uchun keng qamrovli huquqiy muhokamalarni yo'lga qo'yish, aniq va moslashuvchan normativ asoslarni ishlab chiqish, inson huquqlari va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan kafolatlarni mustahkamlash hamda xalqaro huquqiy tajribani milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga solish masalasi hozirgi bosqichda strategik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat texnologik rivojlanishni huquqiy asoslar bilan mustahkamlash, balki inson huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhim deb hisoblaymiz. Huquqiy bazani takomillashtirish SI texnologiyalarining xavfsiz, shaffof va javobgar qo'llanilishini kafolatlaydi, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish orqali innovatsion ekotizimni rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir davlatning texnologik suvereniteti, ularning xalqaro raqobatbardoshligi va o'z fuqarolarining raqamli huquqlarini himoya qilish faqat yagona, tizimli va oldindan o'ylangan huquqiy yondashuv orqali ta'minlanishi lozim. Yuqorida biz tahlil qilib o'tgan normativ-huquqiy hujjatlar xalqimizning milliy manfaatlariga mos global tajriba va ilg'or texnologik standartlarni uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Sun'iy intellektdan umumbashariyat manfaatlarini yo'lida oqilona va samarali foydalanish zarur", bu esa O'zbekistonning sun'iy intellekt sohasidagi siyosatida asosiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga soluvchi huquqiy normalarni shakllantirish jarayonida asosiy e'tibor inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilishi lozim deb hisoblaymiz. Shu nuqtai nazardan,

birinchi navbatda, SI sohasida yagona milliy konsepsiyani ishlab chiqish va uni huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur. Bu, o'z navbatida, davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni huquqiy asosda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, SI qarorlarini qabul qilishda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash maqsadida axloqiy-me'yoriy hujjatlar hamda doimiy monitoring mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Uchinchidan, sud-huquq amaliyotida SI texnologiyalarini qo'llashga doir aniq huquqiy normalar ishlab chiqilishi lozim. Bu, bir tomondan, sud qarorlarining tezkor va samarali qabul qilinishini ta'minlansa, ikkinchi tomondan, insonning adolatli sudlov huquqini kafolatlaydi.

Shunday qilib, sun'iy intellektni tartibga solishda huquqiy strategiya, axloqiy-me'yoriy tizim va sud amaliyotiga integratsiya jarayoni uyg'un holda shakllantirilsa, O'zbekistonning ushbu sohada milliy manfaatlarini bilan birga xalqaro standartlarga mos huquqiy model yaratiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -179 bet. ;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.08.2021 yildagi PQ-5234-son // URL: <https://lex.uz/docs/-5603319> ;
3. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida NIZOM (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.11.2021 yildagi 717-son) // URL: <https://lex.uz/docs/-5746496> ;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi 475-sonli qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5544451> ;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son // URL: <https://www.lex.uz/docs/-7158604> ;
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.07.2025 yildagi 425-son // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7621993> .
7. Legal Tech, Education and Digital Transformation of Law. Proceedings of the TSUL 2023 International Conference, February 20-21, 2023 (<https://library-tsul.uz/legal-tech-education-and-digital-transformation-of-law>)

AMINOV Dalerjon Alisher-o'g'li
Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi
E-mail: dalaminov554@mail.ru

HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASIDA KLASTER TIZIMINING O'RNI

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): AMINOV D. A. Huquqiy ta'lim va amaliyot integratsiyasida klaster tizimining o'rne // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) В. 87–93.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Maqolada huquqiy ta'limda klasterlash tizimining mazmun-mohiyati, uning ta'lim va amaliyot integratsiyasidagi o'rne hamda zamonaviy ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Klasterlash oliy yuridik ta'lim muassasalari, sud-huquq organlari, advokatura, notariat va yuridik klinikalarni yagona tizimda birlashtirib, talabalarni nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot O'zbekiston sharoitida huquqiy ta'lim klasterlarini rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni taklif etadi. Unda milliy konsepsiyani ishlab chiqish, hududiy klasterlarni shakllantirish va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritiladi. Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida klasterlash samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Olingan xulosalar huquqiy ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hamda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Maqolada huquq ta'limida klasterlashning ahamiyati, afzalliklari va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari ham keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, klasterlash, pro bono, yuridik klinika, ta'lim modeli, ta'lim va amaliyot integratsiyasi.

АМИНОВ Далержон
Преподаватель Бухарского
государственного университета
E-mail: dalaminov554@mail.ru

РОЛЬ КЛАСТЕРНОЙ СИСТЕМЫ В ИНТЕГРАЦИИ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАКТИКИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются сущность системы кластеризации в юридическом образовании, её роль в интеграции обучения и практики, а также влияние на современный образовательный процесс. Кластеризация объединяет в единую систему высшие юридические учебные заведения, судебно-правоохранительные органы, адвокатуру, нотариат и юридические клиники, что способствует подготовке студентов к применению теоретических знаний на практике. В исследовании предлагаются новые подходы к развитию кластеров юридического образования в Узбекистане, в том числе разработка национальной концепции, формирование региональных кластеров и интеграция цифровых технологий в образовательный процесс. Кроме того, на основе сравнительного анализа с опытом США, Великобритании и Германии показаны пути повышения эффективности кластеризации. Полученные выводы направлены на повышение качества юридического образования, подготовку конкурентоспособных специалистов на рынке труда и повышение правовой культуры населения. В статье также широко освещаются значение, преимущества и перспективы внедрения кластеризации в юридическом образовании Узбекистана.

Ключевые слова: юридическое образование, кластеризация, pro bono, юридическая клиника, модель обучения, интеграция обучения и практики.

DALERJON Aminov

Teacher of Bukhara state university

E-mail: daleraminov554@mail.ru

THE ROLE OF THE CLUSTER SYSTEM IN THE INTEGRATION OF LEGAL EDUCATION AND PRACTICE

ANNOTATION

The article analyzes the essence of the clustering system in legal education, its role in the integration of education and practice, and its impact on the modern educational process. Clustering unites higher legal education institutions, judicial and law enforcement bodies, the bar, notary offices, and legal clinics into a single system, serving to prepare students to apply theoretical knowledge in practice. The study proposes new approaches to the development of legal education clusters in Uzbekistan, highlighting issues such as the development of a national concept, the formation of regional clusters, and the integration of digital technologies into the educational process. In addition, based on a comparative analysis with the experiences of countries such as the USA, the UK, and Germany, ways to improve the efficiency of clustering are presented. The findings contribute to improving the quality of legal education, training competitive specialists in the labor market, and raising the legal culture of the population. The article also broadly covers the importance, advantages, and prospects of implementing clustering in legal education in Uzbekistan.

Keywords: legal education, clustering, pro bono, legal clinic, education model, integration of education and practice.

Bugungi globalashuv va tezkor texnologik taraqqiyot sharoitida ta'lim sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu borada ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etish zarurati tug'iladi. Kadrlar tayyorlash va ularni zamon talabiga mos qilish bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash zamon talabiga va ta'lim muassasalari oldida qo'yilgan asosiy masalalardan. Ayniqsa, huquqiy ta'lim sohasida klasterlash tizimini joriy etish katta ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlash ta'lim muassasalari, davlat idoralari va biznes sektorlarini o'rtasida uzviy aloqalarni kuchaytirish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvdir.

“**Klaster**” – ingliz tilidagi *cluster* so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi “to'plam”, “guruh”, “bir-biriga yaqin joylashgan obyektlar majmuasi” deganidir. Dastlab bu atama tabiiy fanlarda, kompyuter texnologiyasi va iqtisodiyot sohaslarida bir xil xususiyatga ega obyektlar majmuasini ifodalash uchun qo'llanilgan.

“Klaster” modeli dastlab Yevropa va AQSH iqtisodiy tizimida shakllanib, Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan va sanoat tarmoqlari rivoji uchun taklif etilgan. Keyinchalik bu tizim ta'lim va ilmiy sohalarga ham joriy qilinib, yuridik ta'lim sohasida esa O'zbekistonda yaqin yillardan boshlab huquqiy ta'lim klasteri elementlari sifatida shakllantirilmoqda [1].

O'zbekiston yuridik tizimida “**klaster**” tushunchasi ilk bor rasmiy hujjatlarda Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-apreldagi **PF-5987-son farmonida** bevosita yuridik ta'limni modernizatsiya qilish doirasida tilga olingan boshlandi [2]. Ushbu farmonning 3-bandida yuridik kadrlarni tayyorlashga buyurtma shakllantirishning tartibi sifatida potensial ish beruvchilar bilan birgalikda shartnoma asosida mutaxassislar tayyorlashni (ta'lim klasterlari) tashkil etish nazarda tutilgan.

Реализация этих инициатив позволит существенно повысить эффективность как превентивных, так и правоприменительных механизмов реагирования на цифровые риски, обеспечит целостную и системную защиту прав и законных интересов несовершеннолетних в информационно-коммуникационной среде, а также создаст правовые и институциональные условия для их безопасной социализации, самореализации и развития. Только за счёт сбалансированного взаимодействия правовых, образовательных и организационно-управленческих механизмов возможно построение эффективной и адаптированной к национальным реалиям модели цифровой защиты детей, соответствующей международным стандартам в области прав человека и прав ребёнка.

Сноски/ Иқтибослар/References:

1. Livingstone, S. (2018). *Children's digital rights and the boundaries of freedom online*. Journal of Digital Childhood Studies, 12(2), 45–61.
2. Kibby, M., & Helsper, E. (2020). *Balancing access and protection: Risks and opportunities in children's internet use*. Cyberpsychology Review, 15(3), 112–130.
3. Staksrud, E. (2017). *National regulation versus platform self-governance: Ensuring online safety for children*. International Review of Cyber Policy, 8(1), 27–43.
4. Gillespie, T. (2019). *Platform self-regulation and children's safety: Challenges and strategies*. Media & Society, 14(4), 98–115.
5. Конвенция о правах ребёнка от 20 ноября 1989 г. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml
6. Комитет ООН по правам ребёнка. Общее замечание № 25 (2021): о правах ребёнка в цифровой среде // UNCRC General Comment No. 25 (2021).
7. Council of Europe. Strategy for the Rights of the Child (2022–2027) // <https://www.coe.int/en/web/children/strategy-2022-2027>.
8. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council (General Data Protection Regulation, GDPR). Official Journal of the European Union, 2016. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj/eng>
9. Комитет по правам человека при ООН. Общие замечания № 25 о правах ребёнка в цифровой среде. 2021. https://www.refworld.org/ru/policy/concobservations/crc/2021/ru/146359?prevDestination=search&prevPath=/ru/search?ss_document_type_name%5B%5D=%D0%A0%D0%B5%D0%BA%D0%BE%D0%BC%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B4%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%B8+%D0%BF%D0%BE+%D0%B2%D0%BE%D0%BF%D1%80%D0%BE%D1%81%D0%B0%D0%BC+%D0%B4%D0%B8%D1%80%D0%B5%D0%BA%D1%82%D0%B8%D0%B2%D0%BD%D0%BE%D0%B3%D0%BE+%D1%85%D0%B0%D1%80%D0%B0%D0%BA%D1%82%D0%B5%D1%80%D0%B0&sort=score&order=desc&result=result-146359-ru
10. Конституция Республики Узбекистан от 30.04.2023 г. <https://lex.uz/docs/6445147>
11. Закон Республики Узбекистан «О гарантиях прав ребёнка» от 7 января 2008 г. <https://lex.uz/docs/1297318>
12. Закон Республики Узбекистан «О персональных данных» от 2 июля 2019 г.; <https://lex.uz/docs/4396428>
13. Регламент (ЕС) 2016/679 Европейского парламента и Совета от 27 апреля 2016 года (GDPR). <https://ogdpr.eu/ru/gdpr-2016-679>
14. Закон Республики Узбекистан «Об информатизации» от 11 декабря 2003 г.; <https://lex.uz/docs/82956>
15. Закон «О средствах массовой информации» от 26.12.1997 г. <https://lex.uz/docs/53112>
16. Конвенция Совета Европы о защите детей от сексуальной эксплуатации и сексуального насилия (Лансаротская конвенция). Ратифицирована Узбекистаном в 2021 г.
17. UNICEF Uzbekistan. Digital Literacy and Online Child Safety Report. Tashkent, 2023.
18. Бородин К.В. Проблемы правового регулирования безопасности в интернет-среде / К.В. Бородин // Вестник ЮУрГУ. Сер.: Право. – 2013. – Т. 13, № 3. – С. 104-105; Dubord P. Investigating Cybercrime / P. Dubord // Handbook of Digital and Multimedia Forensic Evidence / ed. J.J. Barbara. – Berlin: Springer, 2008. – P. 77-89.
19. Кучма В.Р. Охрана здоровья детей и подростков в Национальной стратегии действий в интересах детей на 2012– 2017 г. / В.Р. Кучма // Гигиена и санитария. – 2013. – № 6. – С. 26-30.

20. Проблемы обучения школьников безопасному использованию средств ИКТ / М.С. Анурьева, Н.Л. Королева, К.И. Остапчук [и др.] // Психолого-педагогический журнал «Гаудеамус». – 2017. – Т. 16, № 1. – С. 63-68.
21. Walden, K. (2020). *Legal frameworks for child protection in digital environments*. Journal of Internet Law and Policy, 14(3), 45-62.
22. Hoffman, L. (2021). *Why legal norms alone cannot ensure children’s digital safety: The case for skills-based education*. Digital Pedagogy Review, 7(1), 112-130.
23. Abdullaeva, I. (2022). *Promoting safe online culture: The role of preventive digital education*. Journal of Educational Technology and Safety, 9(1), 33-49.
24. Martins, T. (2019). *Educational measures without legal backing: Limitations of awareness-only approaches to online child protection*. Educational Policy & Digital Rights, 5(2), 78-95.
25. UK Parliament. (2023). Online Safety Act. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2023/50/enacted>
26. UK Council for Internet Safety. (2020). *Education for a Connected World Framework*. <https://www.gov.uk/government/publications/education-for-a-connected-world>
27. Finnish National Agency for Education. (2021). *National Core Curriculum for Basic Education*. <https://www.oph.fi/en/education-and-qualifications/national-core-curriculum-primary-and-lower-secondary-basic-education>
28. Mannerheim League for Child Welfare. <https://www.mll.fi/en/>

ХОЖИМУХАМЕДОВА Дилбар Рихсибоевна
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti katta o‘qituvchisi

ADVOKATNING KASBIY FAOLIYATIDA BA’ZI PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLARNI KONSTRUKTIV HAL QILISH

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): ХОЖИМУХАМЕДОВА D.R. Advokatning kasbiy faoliyatida ba’zi psixologik qiyinchiliklarni konstruktiv hal qilish // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) В. 147–153.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada advokatning kasbiy faoliyatida ba’zi psixologik qiyinchiliklarni konstruktiv hal qilishning ahamiyati va usullari tahlil qilingan. Advokatlarning kasbiy faoliyatidagi o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda advokat shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan psixologik qiyinchiliklar va mutaxassisning ish sifatiga va shaxsiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishiga olib kelishining sabalari va echim usullari tavsiya etilgan. Advokatlik sohasidagi yuqori mas’uliyat va emotsional bosimlar ruhiy va jismoniy zo‘riqishni shakllantirib, stressga sabab bo‘ladi, shu sababli advokat psixologik kompetensiya ko‘nikmasini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada psixologik bilimlarni oshirish, turli hil samarali neyro texnika, relaksatsiya va nafas olish mashqlari, ish vaqti va vazifalarni samarali boshqarish, jismoniy faollikni oshirish, qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash hamda ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlash kabi umumiy tushunchada psixologik kompetensiya ko‘nikmasini rivojlantirish, stressga chidamlilikni rivojlantirish usullari tavsiya etilgan. Ushbu kompleks yondashuv advokatlarning kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va samaradorligini oshirish, ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Psixologik kompetensiya, stress, stressga chidamlilik, frustratsiya, samarali muloqot ko‘nikmasi, frustratsion bag‘rikenlik, emotsional intellekt, konflikt, psixologik tiklanish.

ХОЖИМУХАМЕДОВА Дильбар Рихсибаевна
Старший преподаватель Института переподготовки
и повышения квалификации юридических кадров при
Министерство юстиции Республики Узбекистана

КОНСТРУКТИВНОЕ РЕШЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДВОКАТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются значение и методы конструктивного решения некоторых психологических трудностей в профессиональной деятельности адвоката. С учетом специфики профессиональной деятельности адвокатов предлагаются причины и методы их решения, которые приводят к возникновению профессионально значимых психологических трудностей личности адвоката и существенно влияют на качество работы и личной жизни специалиста. Высокая ответственность и эмоциональное давление в сфере адвокатской деятельности формируют психическое и физическое напряжение и вызывают стресс, поэтому адвокату важно развивать навыки психологической компетентности. В статье рекомендуются методы совершенствования психологических знаний, различные эффективные нейротехники, релаксационные и дыхательные упражнения, эффективное управление рабочим временем и задачами, повышение физической активности, укрепление системы поддержки и поддержание баланса между работой и личной жизнью, а также развитие стрессоустойчивости в общем смысле. Данный комплексный

подход служит успешному выполнению профессиональных задач и повышению эффективности работы адвокатов, укреплению их психического здоровья.

Ключевые слова: Психологическая компетентность, стресс, стрессоустойчивость, фрустрация, эффективные коммуникативные навыки, фрустрационная толерантность, эмоциональный интеллект, конфликт, психологическое восстановление.

DILBAR Khojimuhamedova

Senior Lecturer Training Institute for Lawyers

TITLE: CONSTRUCTIVE RESOLUTION OF CERTAIN PSYCHOLOGICAL CHALLENGES IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF LAWYERS

ANNOTATION

This article analyzes the importance and methods of constructively addressing certain psychological challenges in the professional activities of lawyers. Taking into account the specific features of legal practice, the article identifies psychological difficulties of professional significance faced by lawyers, explores the reasons these challenges may significantly affect both the quality of work and personal life, and provides recommendations for effective solutions. The high level of responsibility and emotional pressure inherent in the legal profession often leads to mental and physical strain, which in turn causes stress. Therefore, the development of psychological competence skills by lawyers is of critical importance.

The article recommends a number of approaches aimed at enhancing psychological competence and resilience to stress, including improving psychological knowledge, applying effective neuro-techniques, practicing relaxation and breathing exercises, managing time and workload efficiently, increasing physical activity, strengthening support systems, and maintaining a balance between work and personal life. This comprehensive approach serves not only to improve lawyers' professional effectiveness and the successful fulfillment of their duties, but also to promote their mental well-being.

Keywords: psychological competence, stress, stress resilience, frustration, effective communication skills, frustration tolerance, emotional intelligence, conflict, psychological recovery.

Advokatning kasbiy faoliyatining zamonaviy shartlari unga yuqori talablarni qo'yadi. Advokat ko'p narsalarni bilishi va bajara olishi kerak. U qonunlarni yaxshi bilishi va ularni tahlil qilishi va qo'llashi, huquqiy mobil bo'lishi, hujjatlar bilan ishlashi, iltimosnomalar, bayonotlar tuzishi, kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, ommaviy nutq so'zlashi va boshqa ko'p narsalarga ega bo'lishi kerak. Ammo bu ham yetarli emas. Amaliyotchi advokat ishining muvaffaqiyati nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga, balki uning shaxsiy fazilatlariga, psixologik ko'nikmalarining rivojlanganligiga, samarali muloqot qilish qobiliyatiga, ishonchli, psixologik jihatdan qulay komfort shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyatiga, o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatiga, nizolarni konstruktiv hal qilishga, nizo eskalatsiyasining oldini olishiga va samarali ishlarni tashkil etishga bog'liq. Advokatning kasbiy faoliyatida, psixologik jihatlar har doim kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan.

Zamonaviy advokat o'z faoliyatini samarali amalga oshirish uchun ushbu kasb uchun zarur bo'lgan bir qator psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Advokat, fuqarolar va tashkilotlarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi, o'z manfaatini ko'zlamaydigan shaxs sifatida, o'zi, ishonch vakillari, mijozlari va sud jarayonida psixolog mutaxassisining imkoniyatlari haqida psixologik bilimlarsiz, professional kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarsiz ishlay olmaydi.

Professional kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar - bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi xususiyatlardir. Ular kasbiy faoliyatning sharti va uning yangi

shakllanishi hisoblanadi, chunki ular mehnat jarayonida rivojlanadi va takomillashadi. Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarni shaxs tuzilishidan ajratib bo'lmaydi. Advokatlik kasbi bu turli xil odamlar bilan muloqot, aloqani o'z ichiga oladi, uning vakillarining mashhurligi, obro'si, ishonchliligi, va bu xususiyatlarning barchasi asosan advokat imidjining jozibadorligi bilan belgilanadi. Biroq, imidj inson kasbining eng yuqori darajasiga ko'tarilishini ham osonlashtirishi mumkin bo'lganidek, shuningdek qiyinlik tug'dirishi ham mumkin. Huquq – uning barcha sohalarida, ko'rinishlarida va o'zaro aloqalarida. Vaziyatga har tomonlama kompleksli yondashish, malakali huquqiy baholash va muammoni hal etishning huquqiy yo'llarini topish professionalning ajralmas sifatidir.

Advokatlar duch keladigan psixologik muammolar, albatta, zamonaviy psixologiya sohasida jiddiy bilimlarni talab qiladi. Advokatga murojaat qilishni talab qiladigan huquqiy muammolari bo'lgan odamda, qoida tariqasida, psixologik muammolar ham mavjud. Ularning keskinligini hisobga olmasdan va kamaytirmasdan, bunday odam bilan o'zaro munosabatlarni to'g'ri qurish, hamkorlik natijalarini bashorat qilish mumkin emas. Advokat turli idoralarda ishonchli vakilning manfaatlarini himoya qilar ekan, uning ish natijasi bog'liq bo'lgan turli odamlar bilan muloqotga kirishadi. Ularga ta'sirining darajasi ko'p jihatdan uning psixologik kompetentligi bilan belgilanadi. Nihoyat, advokatning psixologik savodxonligiga o'z mehnati bilan qoniqish hissi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivlari, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini namoyon qilishga intilishiga bog'liq.

Advokatning kasbiy faoliyati huquqiy faoliyat asosida yuritiladi. Huquqiy faoliyat - huquqiy normalar bilan bog'liq faoliyat. Advokatning kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular faoliyatining asosiy ob'ekti shaxs va u bilan qat'iy huquqiy tartibga solish sharoitida o'zaro munosabatdir. Advokat o'z faoliyatida odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish, ularning xatti-harakatlarini qonun nuqtai nazaridan baholash, fuqarolar hayotining eng og'ir vaziyatlarda faoliyatining eng xilma-xil ko'rinishlarini kuzatish zarurati bilan duch keladi. Binobarin, kasb nafaqat oliy ijtimoiy ahamiyatga ega, balki mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi. Ushbu kasbiy faoliyatni boshqa kasblardan ajratib turadigan bir qator xususiyatlar ajralib turadi:

- huquqiy makonda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarning favqulodda xilma-xilligi;
- faoliyatning qonunchilik normalari bilan to'liq belgilanishi;
- faoliyatning kommunikativ tomonini huquqiy tartibga solish;
- salbiy his-tuyg'ularni bostirish zarurati bilan bog'liq ishning yuqori hissiy tarangligi[1].

Advokatga o'z kasbiy faoliyatining turi bo'yicha turli toifadagi fuqarolar bilan muloqot qilishga to'g'ri keladi: ayiblanuvchilar (gumon qilinuvchilar, mahkumlar), guvohlar, ularning qarindoshlari va tanishlari, da'vogarlar bilan va javobgarlar, biznes vakillari va h.k. Ushbu toifalarning individual-psixologik xususiyatlarini bilish, kasbiy vazifalarning yechim sifatini oshirish uchun qo'shimcha resurs beradi.

Psixologik kompetentlik advokatning psixologik madaniyati va uning kasbiy mahoratining elementidir.

Psixologik kompetentlik - bu nafaqat psixologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shaxsning professional ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini, kasbiy vazifalarni hal etishga yordam beradigan qobiliyatlar, balki psixo-mantiqiy axborotni idrok etish va undan foydalanish, psixologik bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lish. Ishonch bildiruvchining xulq-atvoridagi tashqi ko'rinishlar ortidan advokat uning ruhiy holatini, xarakterini, xulq-atvor sabablarini ko'ra olishi, xulq-atvorini bashorat qila olishi, muloqot jarayonida o'zaro hamkorlikning eng samarali usullarini tanlashi va mohirona qo'llashidir[2].

Advokatlarning kasbiy faoliyatidagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda advokat shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi psixologik qiyinchiliklar har xil bo'lishi va mutaxassisning ish sifatiga va shaxsiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Stress va charchoq, emotsional bosim, zo'riqish: Advokat duch keladigan psixologik qiyinchiliklarga odamlarning taqdiri uchun javobgarlik bilan bog'liq stress, har xil turdagi odamlar, shu jumladan psixologik jihatdan beqaror mijozlar va jinoyatchilar bilan doimiy aloqada bo'lish va o'zaro aloqada bo'lish zarurati va kasbiy charchash xavfi kiradi. Advokatning ishi ko'pincha yuklama, muddat va hissiy jihatdan og'ir ishlar bilan bog'liq. Noaniqlik, yuqori ma'suliyat, qiyin vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish zarurati kuchli stress, distress va xavotirga olib kelishi mumkin. Bu kasbiy charchashga, motivasiya va mahsuldorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

2. Ijtimoiy yetuklikni tavsiflovchi sifatlarning rivojlantirilmaganligi: (salbiy sifatlarning ustunligi - past ahloqiy qiyofa, aldashga moyillik, ma'suliyatsizlik);

Ular huquqiy ongning yuqori darajasini, ijtimoiy mas'uliyatni, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishni, umuman olamga ijobiy qarashni, kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan motivlarining ustunligini ta'minlaydi. Bularga halollik, to'g'rilik, mas'uliyat, ijtimoiy bag'rikenglik, optimizm, rivojlangan iroda, adekvat o'zini baholash va boshqalar kiradi.

3. Hissiy yuklanish: Advokatlar ko'pincha mijozlarning fojialari va murakkab hayotiy vaziyatlariga duch kelishadi. Bu esa hamdardlik, ayrim hollarda esa hissiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

4. Manfaatlar to'qnashuvi: Advokatlar o'zlarining kasbiy majburiyatlari shaxsiy e'tiqodlariga zid bo'lganda ma'naviy dilemmalarga duch kelishlari mumkin. Bu esa ichki nizo va stressni keltirib chiqarishi mumkin.

5. Qonunchilik va etika qoidalariga rioya qilish: Qonunchilikdagi o'zgarishlar va kasbiy etika talablariga muvofiq ishlash ham qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

6. Natija uchun javobgarlik: Advokatlar o'z mijozlari ishlarining natijasi uchun javobgar bo'ladilar, bu esa muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan bosim va qo'rquvni keltirib chiqarishi mumkin.

7. Mijozlar bilan ishlash: Ayniqsa, stressli vaziyatlarda mijozlar bilan hamkorlik qilish qiyin bo'lishi mumkin. Tushunmovchilik, nizolar yoki mijozlarning talablari qo'shimcha keskinlikka olib kelishi mumkin. Mijozlar ko'pincha turli hil emotsional holatda, havotirda, g'azablangan yoki tushkun holatda bo'ladi. Ular bilan muloqot qilishda empatiya, sabr va psixologik tayyorgarlik, hissiy barqarorlik talab etiladi.

8. Chegaralarni buzish: Advokatlar shaxsiy va kasbiy chegaralarni belgilashda qiynalishi mumkin, bu esa ish va shaxsiy hayot o'rtasidagi muvozanatni buzishga olib kelishi mumkin.

9. Noaniqlik va beqarorlik: Yuridik amaliyot oldindan aytib bo'lmaydigan va advokatlar ish natijalari ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan holatlarga duch kelishi mumkin, bu esa qo'shimcha tashvish tug'diradi.

10. Muloqotdagi qiyinchiliklar (shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan ichki baho va ishonch bilan bog'liq muammolar): Advokat turli xil odamlar, shu jumladan hissiy tanglik holatida bo'lgan mijozlar, guvohlar, sudyalar va raqiblar bilan umumiy til topa olishi kerak. Samarali muloqot, aloqa qila olmaslik ziddiyatlar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. O'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonch bilan bog'liq muammolar: Ishdagi muvaffaqiyatsizliklar, hamkasblar yoki mijozlarning tanqidlari advokatning o'zini o'zi qadrlashiga putur yetkazishi, o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

11. Frustrasion bag'rikenglikning rivojlanmaganligi: Sud amaliyoti ko'rsatishicha, ko'p hollarda himoya ostidagi shaxslar advokatdan ba'zi psixologik omillar sababli jinoyat ishi holatiga oid muhim ma'lumotlarni sir tutishadi, sud jarayonida bunday ma'lumotlar fosh etilganida esa,

bu holat advokat uchun kutilmagan va keskin zarba bo'lgani sababli, advokatning frustrasion chidamliligi ko'nikmasini pasaytiradi.

12. Ma'suliyat va qaror qabul qilish: Advokatning qarorlari mijozning hayotiga va erkinligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa kuchli psixologik bosimni keltirib chiqaradi.

Advokatning frustrasion bag'rikengligi ko'nikmasi bu umidsizlikka chidamlilik ko'ngilsizliklarga (frustratlarga) qaramay, sabr-toqat, chidamlilik, og'ir ichki kechinmalar va keskin reaksiyalarning yo'qligi. Advokat murakkab sud jarayonlarida qatnashadi va ba'zi holatlarda qutuvlari, umidlari oqlanmay qoladi, bu holat ham advokat uchun kuchli frustrasiya holati bo'lishi mumkin. Tolerantlik insonning umidsizlik holatini adekvat darajada baholash va undan chiqish yo'lini oldindan bilish qobiliyatiga asoslangan. Umidsizlik bag'rikengligi shaxsni shakllanishi va uning hayotdagi qiyinchiliklarga hissiy munosabatining barqaror shakllarini rivojlanishi jarayonida rivojlanadi. Umidsizlikka chidamlilik qiyinchiliklarni yengib o'tishni va stressga chidamlilik ko'nikmasini rivojlantirish uchun sog'lom strategiyalarni saqlashni o'z ichiga olganligi sababli, bu odamning stressga chidamliligi bilan chambarchas bog'liq.

13. Professional deformatsiya: Doimiy qarama-qarshilik va mijozning manfaatlarini himoya qilish zarurati bilan advokat har doim ham axloqiy me'yorlar va prinsiplarga mos kelmaydigan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, masalan, odamlarga ishonchsizlik, muayyan yoki barcha axloqiy qadriyatlarni ongli va namoyishkorona e'tiborsiz qoldiradigan xatti-harakatlarni ochiq namoyon qilish. Shaxslararo munosabatlarda ishonchning pasayishi, gumondorlik. Eng keng tarqalgan kasbiy destruksiya buzilish, kasbiy deformatsiyadir. Ushbu buzilish, mehnat jarayonida salbiy ruhiy holatlar ustunlik qilsa paydo bo'ladi (samarasiz psixologik zo'riqish, kuchli, surunkali charchoq va boshqalar), faoliyatning o'zi noqulay sharoitlarda, ko'plab nizolar yuzaga kelganda, sub'ektning imkoniyatlari talablarga mos kelmasa va hokazo. Kasbiy deformatsiya, shuningdek, ish qobiliyatining pasayishiga, bajarilayotgan faoliyatga qiziqishning yo'qolishiga, shaxsiy va kasbiy ma'nolarni rag'batlantiradigan kasbiy qadriyatlarining yo'qolishiga olib keladi, natijada bunday ishlarga barqaror befarq yoki hatto salbiy munosabat shakllanadi. Kasbiy deformatsiya, agar qoplanmasa, kasbiy kasalliklarga olib kelishi mumkin.

14. Kognitiv buzilish: Bular mutaxassisning fikrlashidagi noto'g'ri tushunchalar va noto'g'ri qarorlarga olib kelishi mumkin bo'lgan tizimli xatolardir. Ular faktlarni ob'ektiv tahlil qilish o'rniga, ma'lumotni soddalashtirish va his-tuyg'ular va oldindan o'ylangan munosabat (ustanovka) asosida qaror qabul qilish tendensiyasidan kelib chiqishi mumkin. Kognitiv buzilishlar mutaxassisning idrokini jiddiy ravishda buzishi va moliyaviy investitsiyalardan tortib shaxslararo munosabatlarga qadar hayotning turli sohalarida mutaxassisning qarorlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ushbu buzilishlarni bartaraf etish uchun ularning mavjudligini anglash va ma'lumotni ob'ektiv tahlil qilishga, shuningdek turli xil manbalar va istiqbollarni izlashga faol intilish muhimdir. Faqat shu tarzda mutaxassis kundalik hayotida ko'proq asoslangan va ma'lumotli qarorlar qabul qila oladi.

15. Professional pozitsiyasini unutish. Advokat vaziyatni shunday qabul qila boshlaydiki, bu uning ishonchli vakilida emas, balki shaxsan qonun bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun jarayonning har bir ishtirokchisi o'z roli doirasida harakat qilishini yodda tutish kerak.

16. Umumlashtirish tendensiyasi. Advokat ishning maqsadlari haqidagi savolga mavhum tushunchalar bilan javob beradi, masalan, yovuzlikni jazolab, odamni qutqarishni xohlaydi. Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ish uchrashuvidan oldin ma'lum bir maqsadni talaffuz qilishi kerak bo'ladi.

17. O'ziga ishonchsizlik. Ko'p holatlarda advokat tashqi muhit ta'sirida o'z bilimlari, fikrlari, tajribalari, ko'nikmalariga o'zi shubha qiladi. Ushbu xatoni bartaraf etish uchun advokat doimo

o'zini o'ziga bo'lgan ichki baho va ishonchini oshirib turishi, psixologik bosimga yuzlantirishi va raqiblar manipulyatsiya qilishi mumkinligini yodda tutishi kerak.

18. Himoya ostidagi shaxsga (mijozga) haddan tashqari ishonchi. Himoyachi me'yordan ortiq hamdard bo'lishni boshlaydi, bu esa mijozga haddan tashqari ishonish xavfini tug'diradi. Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har qanday ishonchli vakilning so'zlari tahlil va sinchkovlik bilan tekshirishni talab qilishini tushunishi kerak.

19. Haddan tashqari hissiy reaksiya. Ishdagi o'z pozitsiyasi va ayblovchi bilan raqobat haqida tashvishlanish himoyachiga ishning holatini yetarli darajada baholashga va izchil himoya taktikasini ishlab chiqishga to'sqinlik qiladi.

20. Advokatning kasbiy faoliyatida konfliktologik kompetensiya ko'nikmalarining rivojlantirish;

Konfliktologik kompetensiya-bu konflikt, nizo, ziddiyat, mojaro bilan ishlashning mumkin bo'lgan konstruktiv usullari, ularni amaliy qo'llash bo'yicha ma'lum ko'nikmalar to'plami va zarur shaxsiy va kasbiy fazilatlar to'g'risida nazariy bilimlarning mavjudligini nazarda tutadigan murakkab tushuncha. Advokatning kasbiy faoliyatida konfliktologik kompetensiya umumiy, tushunchasida har qanday konfliktli, nizoli, ziddiyatli, mojaroli, stressli vaziyatlarda, advokatning turli xil hayotiy muammolarni yengishga psixologik tayyorligi.

21. Advokatning kasbiy faoliyatida professionallashtirish inqirozi; Kasbiy mehnatdagi eski narsa endi qoniqtirmasa, yangi narsa topilmasa yoki xodimning ijodiy topilmalari kasbiy muhitda qarshilikka duch kelsa, yuzaga kelishi mumkin (A.K. Markova). Kasbiy inqirozlarning asosiy belgilari; yangilik tuyg'usini yo'qotish, hayotdan orqada qolish, professionallik darajasining pasayishi, ichki chalkashlik, o'zini qayta baholash zarurligini anglash, o'zini qadrlashning pasayishi, charchoq, o'z imkoniyatlarini tugab qolganligi hissi paydo bo'lishi va hokazo. Ko'rinib turibdiki, inqirozli hodisalar - professionallashtirishning ajralmas atributi bo'lib, ularni konstruktiv hal qilishni o'rganish zarur [3].

Advokatlik kasbida professional axloqqa rioya qilgan holda konfliktida advokat, konfliktologik kompetensiya ko'nikmalarini rivojlantirgan holda o'zini samarali tuta bilishi, konflikt eskalatsiyasiga yo'l qo'ymasligi, (Nizoning kuchayishi, konflikt dinamikasining muhim bosqichi uning kuchayishi, ya'ni, rivojlanishi), umumiy tushunchada advokat kasbiy faoliyati davomida har qanday konfliktli, nizoli vaziyatga psixologik tayyor bo'lishi muhimdir.

Qiyin vaziyatlarda o'zini tutish bo'yicha ba'zi tavsiyalar:

Eng avvalo tinchlanishi. Shaxsiyatga o'tmaslik va manipulyatsiya, provokasiya va psixologik bosimlarga berilmaslik muhimdir. Hissiyotlardan mustaqil bo'lish, hissiyotlarga berilmaslik. O'z o'zini refleksiya qilish, empatiya, stressga chidamlilik, emotsional, adaptiv intellekt va koping strategiya ko'nikmalarini rivojlantirish. Advokatning asosiy vazifasi-o'z pozitsiyasini himoya ostidagi shaxs manfaatlarida aniq va ishonchli tarzda yetkazish. Muloqotda hurmatga rioya qilish advokatlik faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Tinch ohangni(paraverbalika) saqlash va sud jarayonning boshqa ishtirokchilarining qadr-qimmatini pasaytirmaslik, inkor etmaslik muhimdir. Muloqotda ochiq bo'lish. Qarama-qarshi tomonning fikrini tinglash va murosaga erishishga harakat qilish kerak. Professionallikka, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va qabul qilinishi mumkin bo'lmagan ish usullaridan foydalanmaslik lozim.

Advokatning kasbiy faoliyatida kasbiy xavflar:

- Advokat tahdidlarga, raqiblarning bosimiga yoki hatto jinoiy elementlarga duch kelishi mumkin.
- Qobiliyatsizlik, vijdotsizlik yoki hatto jinoyatga sheriklikda ayblanishi mumkin.
- Professional axloqni saqlab qolish va manfaatlar to'qnashuviga kirishib ketmaslik kerak, bu yuqori darajadagi o'zini o'zi boshqarish va anglashni talab qiladi.

Advokatning kasbiy faoliyatida shaxsiy qiyinchiliklar:

- Shaxsiy hayot, oila va dam olish uchun vaqtning yetishmasligi shaxsiy munosabatlarda keskinlikka olib kelishi mumkin.

- Doimiy diqqat e'tibor va oshkoralikka bo'lgan ehtiyoj noqulaylik va stressni keltirib chiqarishi mumkin.

- Kasbiy faoliyat bilan bog'liq salbiy his-tuyg'ularga duch kelish xavfi advokatning umumiy psixologik holatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Advokat ishonchli vakil, mijozlar bilan sog'lom munosabatlarni o'rnatishi: Mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish, taxminlar va cheklovlarni aniq belgilash va ularning hissiy holatini ko'ra bilish, tushunish nizolarning oldini olishga va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu psixologik muammolarni hal qilish usullari: Psixologik kompetensiya ko'nikmalarini muntazam ravishda o'rganish va rivojlantirish: Stressga chidamlilik, emotsional va adaptiv intellekt, empatiya, frustrasion bag'rikenglik, samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, vositachilik bo'yicha treninglarda faol qatnashish kasbiy yordam so'rashi, qo'llab-quvvatlash guruhlarida ishtirok etishi va muntazam ravishda psixologik savodxonliklarini oshirib borishlari shu bilan birga vaqti bilan psixolog yordamidan foydalanishlari kasbiy malakani oshiradi va psixologik qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni esda tutish kerakki, advokatning psixologik salomatligi uning ko'rsatiladigan yuridik yordami sifatiga va uning kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Комлев В.А. Психология профессиональной деятельности юриста: учебное пособие для обучающихся по программе бакалавриата по направлению подготовки 40.03.01 Юриспруденция. – Киров : ООО «Издательство «Радуга-ПРЕСС», 2025. – 91 с. URL: http://raduga-press.com/gallery/psychology_of_professional_activity_lawyer.pdf

2. Скабелина Л. А. Психологические аспекты деятельности адвоката. – М.: МГЮА им. О. Е. Кутафина, 2020. – 210 с.

3. Штырц Н.А. Эмоциональное здоровье человека в условиях неопределённости. Техники самопомощи : методические рекомендации / Н. А. Штырц, Е. П. Шаньгина. – Екатеринбург, 2017. – 56 с.

ШАРИПОВ Санжар Собирович

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги
Академияси мустақил изланувчиси, юридик фанлар
бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
E-mail: 5760slash@gmail.com

ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ КАДРЛАРИГА ҚЎЙИЛАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБЛАР ВА УЛАРНИ ХИЗМАТГА ҚАБУЛ ҚИЛИШ БЎЙИЧА БУЮК БРИТАНИЯ ПОЛИЦИЯСИ ТАЖРИБАСИНИНГ ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИ

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): ШАРИПОВ С.С.
Жамоат тартибини сақлаш бўлинмалари кадрларига қўйилаётган замонавий талаблар
ва уларни хизматга қабул қилиш бўйича буюк британия полицияси тажрибасининг
илмий таҳлили // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025)
Б. 154–161.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

АННОТАЦИЯ

Ғарбий Европанинг илғор мамлакатларидан бири бўлган Буюк Британия тажрибасини ўрганиш катта қизиқиш уйғотади. Бу борада айтиш мумкинки, полиция кадрлари билан ишлаш ва уларни тайёрлаш борасида замонавий стандартларга эга бўлган ва бир қатор тадқиқотчи ҳамда мутахассислар томонидан эътироф этилаётган Буюк Британия тажрибасини ўрганиш ва натижаларни миллий тизимга жорий этиш, Янги Ўзбекистон шароитида ислоҳ этилаётган ички ишлар органлари фаолиятини замонавий кадрлар билан таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Мақолада, Буюк Британиянинг амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари, мазкур йўналишда олиб борилган тадқиқот ишлари ҳамда ижтимоий тармоқларда Британия полиция хизматларининг расмий сайтларидаги маълумотлар орқали, қўйида Буюк Британия полиция хизмати кадрларига қўйилаётган замонавий талаблар, уларни хизматга тайёрлаш ва қабул қилиш билан боғлиқ айрим тажрибалар илмий таҳлил қилинади ҳамда миллий тизимимизга жорий этиш билан боғлиқ истиқболлар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: полиция, ички ишлар органлари, замонавий талаблар, кадрлар тайёрлаш, махсус танлов, жамоат тартибини сақлаш, шогирдлик дастури, хизматга қайта тикланиш дастури.

ШАРИПОВ Санжар Собирович

Самостоятельный соискатель Академии
Министерство внутренних дел Республики
Узбекистан доктор философии (PhD)
по юридическим наукам, доцент
E-mail: 5760slash@gmail.com

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К КАДРАМ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ПО ОХРАНЕ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА И НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА ПОЛИЦИИ ВЕЛИКОБРИТАНИИ ПО ИХ ПРИЕМУ НА СЛУЖБУ

АННОТАЦИЯ

Большой интерес представляет изучение опыта Великобритании, одной из передовых стран Западной Европы. В связи с этим можно сказать, что изучение опыта Великобритании, обладающей современными стандартами работы с сотрудниками полиции и их подготовки, признанными рядом исследователей и

специалистов, и внедрение результатов в национальную систему имеет важное значение для обеспечения деятельности органов внутренних дел, реформируемых в условиях Нового Узбекистана, современными кадрами. В статье на основе действующих нормативно-правовых актов Великобритании, исследовательских работ, проведенных в этом направлении, а также информации на официальных сайтах британских полицейских служб в социальных сетях, представлен научный анализ современных требований к кадрам полицейской службы Великобритании, некоторых практик, связанных с их подготовкой и приемом на службу, а также освещены перспективы внедрения этого опыта в нашу национальную систему.

Ключевые слова: полиция, органы внутренних дел, современные требования, подготовка кадров, специальный конкурс, охрана общественного порядка, программа ученичества, программа восстановления на службе.

SANJAR Sharipov

Researcher of the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor
E-mail: 5760slash@gmail.com

SCIENTIFIC ANALYSIS OF MODERN REQUIREMENTS FOR PUBLIC ORDER MAINTENANCE UNIT PERSONNEL AND THE EXPERIENCE OF BRITISH POLICE IN THEIR RECRUITMENT

ANNOTATION

Studying the experience of Great Britain, one of the leading countries in Western Europe, is of great interest. In this regard, examining the British experience, which has modern standards for working with and training police officers and is recognized by numerous researchers and specialists, and implementing the results into the national system is crucial for staffing the reformed internal affairs bodies with modern personnel in New Uzbekistan. This article scientifically analyzes the current regulatory legal acts of Great Britain, research conducted in this field, and information from official British police service websites on social networks to explore modern requirements for British police service personnel and some experiences related to their preparation and recruitment. It also highlights prospects for implementing these practices in our national system.

Keywords: police, internal affairs agencies, modern requirements, personnel training, special selection process, maintaining public order, apprenticeship program, service reinstatement program.

Мураккаб ва ўзига хос ҳуқуқий ҳамда сиёсий институтлар тизимига эга бўлган Буюк Британия ўз фуқароларига юқори даражадаги барқарорликни ва ички хавфсизликни таъминлашнинг ишончли тизимини кафолатлайди. У қонунийлик ва ахлоқ тамойиллари устувор бўлган ҳуқуқий давлат ҳисобланади. Бирлашган Қиролликда полиция институтларини айниқса, ушбу соҳа кадрлари билан ишлаш ва уларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш борасида замонавий талабларга жавоб берадиган кўплаб янгиликлар фаол қўллаб-қувватланиб, ривожлантирилиб келинмоқда [1, Б.141].

Буюк Британия ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари учун кадрлар тайёрлаш жараёнида таълим олиш ҳуқуқини амалга оширишнинг ҳуқуқий ва педагогик хусусиятларини ўрганган олимлар Ш.М. Нурадинов ва М.Н. Касаткиннинг фикрича, Буюк Британия каби ҳуқуқий давлатда полиция фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилади, жамият назорати остида бўлади ва унинг ишончини қозонади, полиция ходимининг касби жамиятда ҳурматли ва обрўли ҳисобланади.

Шу сабабдан ҳам, Ғарбий Европанинг илғор мамлакатларидан бири бўлган Буюк Британия тажрибасини ўрганиш катта қизиқиш уйғотади [2, Б.28]. Бу борада олимларнинг фикрини

қўллаб қувватлаган ҳолда айтиш мумкинки, полиция кадрлари билан ишлаш ва уларни тайёрлаш борасида замонавий стандартларга эга бўлган Буюк Британия тажрибасини ўрганиш ва натижаларни миллий тизимга жорий этиш, Янги Ўзбекистон шароитида ислоҳ этилаётган ички ишлар органлари фаолиятини замонавий кадрлар билан таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Фикримизча, Буюк Британия полиция хизмати кадрлари билан ишлаш ва уларни тайёрлаш тизимини ўрганишдан аввал, мазкур давлат полиция хизматининг таркиби, тизими ва асосий вазифаларига эътибор қаратиш лозим, чунки, ўрганишлар ушбу мамлакатда кадрларни тайёрлаш тизими маъмурий ҳудудларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда полицияга юклатилаётган асосий вазифалардан келиб чиққан ҳолда йўлга қўйилганлигини кўрсатмоқда.

Манбаларда келтирилишича, Буюк Британиянинг таркибига кирувчи ҳар бир маъмурий ҳудуд яъни Англия, Уэлс, Шимолий Ирландия ва Шотландия ўзига хос алоҳида ҳуқуқий тизимларга эга бўлиб, ҳуқуқ-тартиботни сақлаш мажбуриятларининг асосий қисми мазкур юрисдикциялардан бирига мансуб ҳудудий полиция хизматлари (ҳудудий полиция кучлари) ходимларига юклатилган. Бу ҳудудий хизматларга қўшимча равишда, Миллий жиноят агентлиги каби умуммиллий ташкилотлар, шунингдек, айрим ҳудудий полиция кучларининг таркибий қисми ҳисобланган ихтисослаштирилган бўлинмалар (Пойтахт полицияси хизматининг махсус операциялар бошқармаси) ҳам мавжуд.

Буюк Британияда полициянинг асосий тамойили биринчи навбатда жамият ва фуқароларга, кейин эса давлат ва ҳукуматга хизмат қилишдир. Полициянинг асосий вазифасини белгилашга бундай ёндашув узоқ анъаналарга эга. Уларнинг асосий вазифалари эса шахсларнинг ҳаёти ва мулкни ҳимоя қилиш, жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноий фаолиятни аниқлашдан иборатдир [3].

Мутахассисларнинг фикрича, Буюк Британия полиция тузилмасининг марказлаштирилмаганлиги ҳамда ҳар бир ҳудуднинг ўз полициясига эгаллиги, турли жамоаларнинг ўзига хос эҳтиёжларига мос келадиган янада самарали тартибни сақлаш стратегияларини ишлаб чиқиш имконини беради [4].

Буюк Британия полиция хизматларида ходимларни танлаш ва тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилади. Миллий тизимимизда бўлгани каби Британия полициясига хизматига кирувчи шахсларга ҳам бир қатор **талаблар** белгиланган. Албатта мазкур талабларнинг аксарияти миллий тизимимиздаги талаблар билан бир хил кўринишда бўлса-да, бироқ, фарқли ҳамда ўзига хослиги билан ажралиб турадиган масалалар ҳам талайгина.

Буюк Британия полиция хизматига кирувчи шахсларга мамлакатимиздаги каби ёши камида 18 бўлиши белгиланган бўлса-да, номзоднинг юқори ёш чегараси белгиланмаган (Бу айрим манбаларга 57 ёш деб ҳам белгиланган).

Шунингдек, Буюк Британия полиция хизматига Европа Иттифоқи Ҳамдўстлиги мамлакатлари ёки Буюк Британияда доимий яшаш учун рухсатномаси мавжуд бўлган бошқа давлат фуқаролари ҳам қабул қилиниши мумкин. Шу билан бирга мазкур шахсларга мамлакат ҳудудида узлуксиз уч йил яшаган бўлиши талаби ҳам белгиланган.

Британия полиция хизматига кирувчи шахсларга жисмоний ва руҳий жиҳатдан соғлом бўлиши каби талабдан ташқари яна, жиноий ўтмишга эга бўлмаслиги, молиявий муаммолари бўлмаслиги, шахс обрўсига путур етказадиган, ҳақоратли мазмундаги ёки кўзга яққол ташланадиган татуировкалари бўлмаслиги каби талаблар ҳам қонунчиликда мустаҳкамланган.

Ҳозирда номзодларнинг бўйига қўйилган чекловлар бекор қилинган бўлиб, уларнинг маълумот даражасига ҳам расмий талаблар йўқ. Уларнинг полициячи сифатидаги салоҳияти

танлов синовлари давомида баҳоланади. Бу борадаги ягона талаб – инглиз тилини эркин ва саводли билишдир.

Кўриш мумкинки, Британия полиция тизимидаги номзодларнинг жисмонан ва руҳан соғлом бўлиши каби айрим умумий талаблар, миллий тизимимиздаги талаблар билан ўхшаш бўлса-да, номзоднинг ёши, бўйи ва маълумоти борасидаги чекловларнинг белгиланмаганлиги, фуқаролиги ҳамда мамлакат ҳудудида узлуксиз яшаш шартлиги каби бир қатор талаблар билан ўзаро фарқланмоқда.

Жумладан, “Ички ишлар органларида хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги низом”га мувофиқ, мамлакатимизда ички ишлар органларига хизматга ўттиздан катта бўлмаган, шу жумладан ўттиз ёшдаги ҳам, тегишли маълумотга эга, 165 сантиметрдан паст бўлмаган эркаклар ва 160 сантиметрдан паст бўлмаган аёллар, шу жумладан фақатгина Ўзбекистон Республикаси фуқаролари қабул қилиниши белгиланган [5].

Мутахассисларнинг фикрича, бўй, маълумот ва юқори ёш чегараси бўйича чекловларнинг белгиланмаганлиги, тизим учун зарур ҳисобланган ҳарқандай салоҳиятли шахсларни хизматга жалб қилиш учун кенг имкониятларни беради. Бундай ҳолат асосан тор мутахассислик ёки полиция учун одатий бўлмаган замонавий жиноятчилик кўринишларига тезкор жавоб бериш учун муносиб жамоани шакллантиришда асқотади [6].

Британия полиция хизматига қуйидаги йўналишлар орқали **хизматга қабул қилиниши** мумкин:

университет битирувидан кейин;

коллеж битирувидан кейин;

шогирдлик;

полиция хизматига кўмаклашиш мақсадида тузилган жамоатчилик тузилмаларига аъзолик орқали;

хизматга қайта тикланиш дастури орқали.

Университет битирувидан кейин. Номзод исталган фан бўйича дипломни қўлга киритиб, кейин қуйидаги йўналишларда полицияга кириш дастурларидан бирини танлаши мумкин:

биринчи йўналиш, университет битирувчилари учун мўлжалланган полицияга кириш дастури [7];

иккинчи йўналиш, олий маълумотли битирувчилар учун миллий раҳбарлик (жавобгарлик, масъулиятли лавозимлардаги хизмат) дастури [8].

Мазкур ўқув дастурлари – ишдан ташқари, пулли таълим бўлиб, икки йиллик меҳнат таълимини ўз ичига олади.

Шунингдек, Британиянинг бир қатор университетларида бевосита полиция учун олий маълумотли профессионал кадрлар тайёрланади. Номзодлар мазкур муассасаларда ҳам таълим олишлари мумкин [9].

Бу борада айрим номзодлар ўзлари танлаган полиция бўлимига мурожаат қилишдан олдин профессионал полициячилик бўйича кундузги ўқишни афзал кўришади. Бу уларга таълим олиш жараёнида тўлиқ иш кунда ишламасдан, энг яхши натижаларга эришишга эътибор қаратиш имконини беради.

Уч йиллик ўқув дастури давомида талабалар профессионал полициячилик ҳақидаги билим ва академик назарияни ўзлаштирадilar. Курсни муваффақиятли тугатгач, улар ўзлари танлаган полиция бўлимига янги ходим сифатида ариза топширишлари ва ўрганган назарияларини амалда қўллашлари мумкин.

Бугунги кунда Буюк Британияда 50 дан ортиқ университетларда бевосита полиция учун кадрлар тайёрланиб келинмоқда [10]. Бундай таълим муассасаларига Бирмингем шаҳар университети (Birmingham City University) [11], Хуқуқ университети (The University of Law) [12], Ғарбий Лондон университети (University of West London) [13] ва бошқаларни мисол келтириш мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, миллий тизимимиздан фарқли равишда мазкур университетларда 3 йил таълим олган шахсларга, тўғридан-тўғри полиция хизматига қабул қилиш кафолатланмайди. Ушбу номзодлар танлаган полиция бўлимининг ўзига хос кириш талабларидан келиб чиққан ҳолда, танлов асосида қабул қилиниши мумкин.

Ушбу ўқув дастурлари яқунлангандан сўнг номзоднинг полиция констебли (оддий полиция ходими) лавозимига кириш учун танловларда иштирок этиш ҳуқуқи 5 йилгача сақланиб қолинади.

Шунингдек, детектив бўлиб ишлашни ўрганмоқчи бўлган номзод, икки йиллик Миллий детектив дастурига ариза топшириши мумкин [14]. Бунда номзод бакалавр даражаси ва камида 2 та А даражали ёки унга тенг келадиган малакаларга эга бўлиши талаб этилади.

Коллеж битирувидан кейин. Полиция ходими бўлиб ишлаш учун тўғридан-тўғри ариза топшириш ёки даража олиш учун амалиёт ўташга тайёргарлик кўриш ёки бошланғич тайёргарликнинг турли даврларида назарий таълимни олиш мақсадида номзодлар коллеж курсида таҳсил олишлари мумкин.

Шогирдлик. Номзодлар маълумотидан қатъий назар полиция констебли шогирдлик дастури (PCDA)га ариза топширишлари мумкин. Бу 3 йиллик амалий дастур бўлиб, профессионал полиция фаолияти бўйича даражага эришишга олиб келади.

Ушбу дастур орқали полицияга хизматга кириш учун олий маълумот дипломи шарт эмас. Қўплаб полиция бўлимлари полиция констебли даражасидаги шогирдлик (PCDA) дастурини тақлиф этади ва уларнинг фикрича бу энг самарали усул ҳисобланади. Бу дастур динамик амалий иш жойидаги таълим ва назарий билимларни ўрганишни ўз ичига олади. Номзод биринчи кундан бошлаб полиция ходими ҳисобланади, шунинг учун ўрганиш жараёнида маош олади. Шогирдлик дастури одатда уч йил давом этади ва учинчи йилда ихтисослашиш имкониятига эга.

Ушбу дастур амалий ўрганишга асосланган бўлиб, номзодни полиция хизмати учун махсус тайёрлайди. Дастур давомида (ҳамкор университет билан) назарий таълим ҳам олиб борилади, бу эса номзодни полиция ходими бўлиш учун зарур кўникма ва билимлар билан қуроллантиради.

Шогирдлик дастури доирасида номзод қуйидаги йўналишларда амалиёт ўтайди:

фавқулодда чақирувларга жавоб бериш – бу жамоатчиликдан келган шошилишч қўнғироқларга жавоб бериш ва ҳодиса жойига боришни ўз ичига олади;

маҳалла полицияси – бу маҳалла полицияси жамоаси (NPT) билан ишлашни ўз ичига олади. Маҳалла полицияси жамоаси (NPT) одатда жамоатчилик билан ҳамкорликда маълум бир ҳудуд ёки жамоани қўриқлашга ихтисослашган полиция ходимларининг (одатда 3-10 киши) кичик жамоасидир.

тергов ишлари – офисда ва жамиятда мавжуд бўлган барча воситалардан фойдаланиб тергов олиб бориш.

Уч йил якунида номзод профессионал полиция амалиёти бўйича 6-даражали дипломга эга бўлади. Дастур бўйича барча харажатлар номзоднинг шахсий ҳисобидан амалга оширилади [15].

Полиция хизматига кўмаклашиш мақсадида ташкил этилган жамоатчилик тузилмаларига аъзо сифатида фаолият юритаётган номзодларга ҳам белгиланган махсус дастурлар асосида полиция хизматига кириш имкониятлари берилади [16,17].

Хизматга қайта тикланиш дастури – ўз хоҳишига кўра хизматдан кетган ёки мамлакатдаги умумий нафақа ёшига етмаган, аммо полиция хизматидан нафақага чиққан ходимлар ўзи хохлаган вақтда “Хизматга қайта тикланиш дастури” орқали тенглаштирилган ёки ундан ҳам юқори лавозимга хизматга қайтиши мумкин [18].

Юқорида келтирилганидек, Буюк Британия полициясига хизматга кириш ёки қайтиш махсус танловлар асосида амалга оширилади. Танлов уч босқичдан иборат бўлиб, таълим даражаси ва психологик хусусиятларни ўрганиш; жисмоний қобилиятларни синаш ва тиббий кўрикдан ўтказиш; махсус текширув кабиларни ўзида қамраб олади.

Саралашнинг *биринчи босқичи*, Полиция фаолиятини такомиллаштириш миллий агентлиги бошқарувидаги фаолият юритувчи ҳудудий танлов марказларида ўтказилади ва жами беш соатгача давом этиши мумкин. Полиция фаолиятини такомиллаштириш миллий агентлиги психологлари томонидан ишлаб чиқилган тест синовлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

умумий компетентлик бўйича тузилган суҳбат (*20 дақиқа ичида номзод ижтимоий компетентлиги, мулоқотга кириши олиши, шахсий масъулияти, муаммоли вазиятларни ҳал қила олиши, мотивацияси, жамоада ишлаш қобилияти каби соҳаларга оид тўртта саволга жавоб бериши керак*);

25 та топшириқдан иборат мантиқий тест, уни ечиш учун 12 дақиқа вақт берилади;

30 та топшириқдан иборат мантиқий мулоҳазаларнинг оғзаки тести (маълум бир вазиятлардан келиб чиққан ҳолда бир қатор мантиқий мулоҳазалар берилади. Номзод вазиятни тушуниб, 25 дақиқа ичида мантиқий хулосаларнинг тўғри ёки нотўғрилиги ҳақида фикр билдириши керак);

иккита ёзма машқ, уларнинг бирида номзод маълум бир муаммони, иккинчисида эса маълум бир ҳодисани тасвирлаши керак;

тўртта интерактив машқ (номзодга кетма-кет тўртта ёзма топшириқ берилади. Ҳар бир топшириқни бажаришда у беш дақиқа тайёргарлик кўради, сўнгра мурожаат билан полиция идорасига келган шахсларни қабул қилувчи ходим ролини ижро этиши керак. Мурожаат билан келган шахсларнинг ролини аниқ белгиланган сценарий асосида ҳаракат қилувчи махсус тайёрланган актёрлар ўйнайди).

Саралашнинг биринчи босқичидан муваффақиятли ўтган шахслар иккинчи босқичга ўтказилади. Бу босқичда улар жисмоний қобилиятларини синовдан ўтказадилар (бошқа мамлакатларга нисбатан анча содда) ва синчковлик билан тиббий кўрикдан ўтадилар.

Учинчи босқичда номзодлар махсус текширувдан ўтказилади, бунда полиция хизматлари амалга оширади. Махсус текширув номзоднинг биографик маълумотларини ўрганиш, эҳтимолий жиноий ўтмиши ёки ғайриижтимоий хатти-ҳаракатларини аниқлашдан иборат.

Танловдан муваффақиятли ўтган ва энг кўп балл тўплаган номзодлар икки йиллик синов муддати билан констебл лавозимига хизматга қабул қилинади. Улар шу муддат давомида профессионал полиция тайёргарлигидан ўтадилар.

Номзодларни хизматга қабул қилишда танловларни ўтказиш борасида Буюк Британия ва миллий тизимимизни қиёсий таҳлил қиладиган бўлсак, қонунчилигимизда белгиланганидек бундай танловлар, жойлардаги ички ишлар органлари томонидан ўтказилади. Танловларни ташкил этиш ва ўтказиш учун қабул комиссиялари тузилади.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги олий таълим муассасаларига номзодлар танлови тартиби ва қабул қилиш қоидалари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

Кўриш мумкинки, Буюк Британияда танловларни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича доимий фаолият юритувчи махсус бўлинмалар мавжуд, назаримизда бундай бўлинмаларнинг мавжудлиги, қабул комиссиялари таркибига жалб қилинувчи ходимларни ўз хизмат вазифаларидан чалғитмаслик ва асосий эътиборни бевосита мажбуриятларини бажаришга қаратиш имконини беради. Шу билан бирга айтиш керакки, юқорида келтирилганидек, Буюк Британия полиция хизматига қабул қилиш танловдаги интерактив машқлар ҳам аҳамиятга молик ҳисобланади.

Айтиш жоизки, Британиянинг профессионал полиция таълими модели бошқа Европа моделларидан тубдан фарқ қилади. Америка полицияси сингари, у ҳам профессионал таълим эмас балки, профессионал полиция тайёргарлиги тизими ҳисобланади.

Британия модели учун имтиҳонларни ўтказиш ва уларнинг натижалари устидан шикоят қилишнинг юқори даражадаги **демократизми ва ошкоралиги хосдир**. Масалан, Буюк Британия полициясининг “Полиция шарҳи” (Police Review) идоравий журналида инспектор (сержант ва бошқа лавозимлар) учун имтиҳон саволлари ва топшириқларининг турли вариантлари мунтазам равишда чоп этилади. Номзодлар нафақат улар билан олдиндан танишиш, балки ўз жавобларини почта орқали юбориш имкониятига ҳам эга бўладилар. Бу жавоблар муайян ҳолларда ҳисобга олинади ва имтиҳон топширганлигини тасдиқлаш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Юқоридаги таҳлиллар ҳамда ўрганишлардан келиб чиққан ҳолда, Буюк Британия полиция кадрларига қўйилаётган замонавий талаблар, уларни хизматга тайёрлаш ва қабул қилиш борасида шундай хулосага келиш мумкинки, *биринчидан*, полицияга хизматга кириш учун қўйилаётган талаблар жуда содда бўлиб, барча номзодларга кенг имкониятлар тақдим этиш билан бирга тизим учун зарур ҳисобланган ҳарқандай салоҳиятли шахсларни хизматга жалб қилиш учун кенг имкониятларни беради; *иккинчидан*, шогирдлик (PCDA) дастури орқали полиция хизматига жалб қилиш, номзодларни мақсадли тайёрлаш билан бирга, полиция учун мавжуд вакантларни тезда тўлдириш ҳамда қўшимча кучларга эга бўлиш имконини беради; *учинчидан*, кадрлар тайёрлаш жараёни, инсонпарварлиги, констеблларни иш жойида узоқ муддат ўқитилиши, ўқувчиларнинг мустақил ишлашига урғу бериш билан ажралиб туради; *тўртинчидан*, мутахассис кадрлардан алоҳида маълумотга эга бўлишдан кўра, ахборот оқимларида йўналиш ола билиш, ҳаракатчан бўлиш, янги технологияларни ўзлаштириш, мустақил равишда ўзлаштириш, етишмаётган билим ёки бошқа ресурсларни излаб топиш ва улардан фойдаланиш қобилияти талаб этилади.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Важенина И.В. Специальные полицейские силы Великобритании: история и современность // Труды Академии управления МВД России. 2017. № 3 (43). С. 141-146. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsialnye-politseyskie-sily-velikobritanii-istoriya-i-sovremennost/viewer>

2. Нурадинов Ш.М., Касаткин М.Н. Правовые и педагогические особенности реализации права на образование в ходе подготовки кадров для правоохранительных органов великобритании // Ватник Московского университета МВД России. № 1 / 2020. С. 27-31. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-i-pedagogicheskie-osobennosti-realizatsii-prava-na-obrazovanie-v-hode-podgotovki-kadrov-dlya-pravoohranitelnyh-organov/viewer>

3. Правоохранительные органы Великобритании // URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
4. Понимание структуры полицейских служб Великобритании // URL: <https://britannia-school.com/ru/uk-police-services-and-emergencies/>.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органлари кадрлари билан ишлаш ва уларнинг хизматини ташкил этиш тартибини тўздан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3413-сон (2017 йил 29 ноябрь) қарори // URL: <https://lex.uz/uz/docs/3430641>.
6. О подготовке полицейских в Англии // URL: https://vk.com/@sam_makoto-o-podgotovke-policeiskih-v-anglii.
7. Degree holder entry programme (DHEP) // URL: <https://www.joiningthepolice.co.uk/application-process/ways-in-to-policing/degree-holder-entry-programme-dhep>.
8. 2026 Police Now National Graduate Programme – Neighbourhood // URL: <https://www.policenow.org.uk/national-graduate-programme/>.
9. Professional policing degree holder // URL: <https://www.joiningthepolice.co.uk/application-process/ways-in-to-policing/professional-policing-degree-holder>.
10. Universities offering a professional policing degree // URL: <https://www.college.police.uk/career-learning/joining-new-pc/universities-offering-professional-policing-degree>.
11. Birmingham City University URL: <https://www.hotcourses.ru/study/uk/school-college-university/birmingham-city-university/6140/international.html>.
12. The University of Law URL: <https://www.hotcourses.ru/study/uk/school-college-university/university-of-law/118898/international.html>.
13. University of West London // URL: <https://www.hotcourses.ru/study/uk/school-college-university/university-of-west-london/5167/international.html>.
14. About the role of a police detective // URL: <https://www.policenow.org.uk/detective/>.
15. Apprenticeship (pcda) entry route // URL: <https://www.joiningthepolice.co.uk/application-process/ways-in-to-policing/apprenticeship-pcda-entry-route>.
16. Joining as a PCSO // URL: <https://www.college.police.uk/career-learning/joining-police/joining-pcso>;
17. Police constable entry programme (PCEP) // URL: <https://www.joiningthepolice.co.uk/application-process/ways-in-to-policing/police-constable-entry-programme-pcep>
18. Rejoiner entry route // URL: <https://www.joiningthepolice.co.uk/ways-in-to-policing/rejoiner-entry-route>.

АБДУРАХМАТОВА Камола Муроджон қизи
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси таянч докторанти
E-mail: magic_star@bk.ru

ҚУРИЛИШНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШГА ОИД ХАЛҚАРО ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ВА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ҚОНУНЧИЛИГИ ТАҲЛИЛИ

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): АБДУРАХМАТОВА К.М.
Қурилишни назорат қилиш ва амалга оширишда коррупцияга қарши курашишга оид
халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ва хорижий давлатлар қонунчилиги таҳлили // Юрист
ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) Б. 162–171.

 4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада қурилишни назорат қилиш ва амалга оширишда коррупцияга қарши курашиш бўйича халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ва қурилиш соҳасида коррупцияга қарши кураш борасидаги халқаро ташкилотлар ва ташаббуслар, уларнинг қурилиш саноатига тегишли асосий жиҳатлари, шунингдек, хорижий давлатларнинг қурилиш соҳасидаги коррупциявий жиноятларга қарши курашиш амалиёти, хусусан, Буюк Британия, Германия ва Хитой Халқ Республикаси қонунчилигининг асосий нормалари таҳлил қилинади. Буюк Британияда қурилишда корпоратив коррупция жинояти учун жавобгарликка алоҳида эътибор қаратилганлиги, Германияда коррупцияга йўл қўйган пудратчи ташкилотларни давлат шартномаларидан четлаштириш ва коррупциявий ҳуқуқбузарликлар учун жиноий жавобгарлик каби чоратadbирлар муҳокама қилинади. Хитойда мансабдор шахслар томонидан ер ресурсларини суиистеъмол қилиш ҳолатлари учун белгиланган жавобгарлик чоралари кўриб чиқилади. Мақолада қурилиш соҳасида коррупция хавфларини камайтиришга қаратилган халқаро тавсиялар ва механизмлар таҳлил қилинган. Шу билан бирга, хорижий тажриба асосида миллий қонунчиликни такомиллаштириш, назорат тизимларини мустаҳкамлаш ва самарали ҳуқуқни қўллаш амалиётини шакллантириш зарурлиги таъкидланади.

Калит сўзлар: қурилиш, қурилиш назорати, коррупция, халқаро ҳужжатлар, коррупциявий жиноятлар, жиноий жавобгарлик.

АБДУРАХМАТОВА Камола
Докторант Правоохранительной академии
E-mail: magic_star@bk.ru

АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ВОПРОСАМ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬНОГО КОНТРОЛЯ И РЕАЛИЗАЦИИ СТРОИТЕЛЬСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются международно-правовые документы по противодействию коррупции в сфере надзора и осуществления строительства и международные организации и инициативы по противодействию коррупции в строительной сфере, их основные аспекты, актуальные для строительной отрасли, а также практика зарубежных стран по противодействию коррупционным преступлениям в строительной сфере, в частности, основные нормы законодательства Великобритании, Германии и Китайской Народной Республики. Отмечается, что Великобритания уделяет особое внимание ответственности за преступление корпоративной коррупции в строительстве, а в Германии применяются

такие меры, как исключение коррумпированных подрядных организаций из государственных контрактов и уголовная ответственность за коррупционные правонарушения. В Китае рассматриваются меры ответственности, установленные за случаи нецелевого использования земельных ресурсов должностными лицами. В статье анализируются международные рекомендации и механизмы, направленные на снижение рисков коррупции в строительной сфере. При этом подчеркивается необходимость совершенствования национального законодательства, укрепления систем контроля и формирования эффективной правоприменительной практики на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: строительство, строительный контроль, коррупция, международные документы, коррупционные преступления, уголовная ответственность.

KAMOLA Abdurakhmatova

Doctoral student of the Law Enforcement Academy

E-mail: magic_star@bk.ru

ANALYSIS OF INTERNATIONAL LEGAL DOCUMENTS AND LEGISLATION OF FOREIGN COUNTRIES REGARDING THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN CONSTRUCTION CONTROL AND IMPLEMENTATION

ANNOTATION

This article analyzes international legal instruments on combating corruption in the supervision and implementation of construction and international organizations and initiatives on combating corruption in the construction sector, their main aspects relevant to the construction industry, as well as the practice of foreign countries in combating corruption crimes in the construction sector, in particular, the main norms of the legislation of Great Britain, Germany and the People's Republic of China. The fact that Great Britain pays special attention to liability for the crime of corporate corruption in construction, and in Germany, measures such as the exclusion of corrupt contracting organizations from state contracts and criminal liability for corruption offenses are discussed. In China, liability measures established for cases of misuse of land resources by officials are considered. The article analyzes international recommendations and mechanisms aimed at reducing the risks of corruption in the construction sector. At the same time, the need to improve national legislation, strengthen control systems and form effective law enforcement practices based on foreign experience is emphasized.

Keywords: construction, construction control, corruption, international documents, corruption crimes, criminal liability.

Курилишни назорат қилиш ва амалга оширишда коррупцияга қарши курашишга оид халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ва хорижий мамлакатлар тажрибасини таҳлил этиш, унинг илғор жиҳатларини миллий қонунчилик ва амалиётга жорий қилиш бугунги кунда алоҳида аҳамиятга эга. Зеро, дунё давлатларининг аксариятида қурилиш соҳасида коррупцияни олдини олиш жамият ва давлат олдида турган муҳим вазифалардандир.

Бу ҳусусда Transparency International (TI) раиси Питер Эйген Глобал Коррупция ҳисоботи [1] 2005ни эълон қилар экан, “Йирик давлат лойиҳаларидаги коррупция барқарор ривожланиш йўлидаги қўрқинчли тўсиқдир [2]”, дея таъкидлаган эди.

Хорижий давлатлар қурилиш соҳасидаги коррупцияга қарши курашишда бир қатор ҳуқуқий меъёрлар ва асосларга таянади, уларни шу жумладан коррупцияга қарши қонунлар, халқаро конвенциялар ва илғор тажрибаларга ажратиш мумкин.

Чунки коррупцияга қарши кураш нафақат ички сиёсат ва қонунлар, балки халқаро ҳужжатлар, глобал шартномалар ва илғор халқаро тажрибаларга асосланади.

Қурилиш соҳасида коррупцияга қарши кураш бўйича олиб борилган тадқиқотлар, айниқса, институционал ҳисобдорлик ва шаффофликнинг муҳимлигини кўрсатади. Соҳаил ва Савилл бу соҳада ҳисобдорлик механизмларининг, кодификация қилинган этик принциплар ва

тендер юришида шаффофликнинг муҳимлигини таъкидлашади [3]. Гундуз ва Ӗндер Туркия қурилиш саноатидаги ички назорат тизимларининг заифлиги коррупция хавфини оширганлигини далиллашган [4]. Австралияда эса Ӗартлей Миллий амалиёт коди орқали профессионал этик меъёрларни жорий қилиш ва мониторинг тизимларини кучайтириш зарурлигини кўрсатади [5]. Ӗовкинс ва ва Макиттрик эса COST (Construction Sector Transparency Initiative) каби шаффофлик ташаббусларини илгари суриб, инфраструктурани мустақил мониторинг асосида очиқ маълумот билан таъминлаш йўллариини таклиф қилади [6].

Қурилиш соҳасидаги тадқиқотчилар томонидан коррупция ҳолатларининг олдини олиш бўйича жиддий саъй-ҳаракатлар амалга оширилган бўлса-да, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти, Жаҳон банки, Transparency International, Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD), Глобал инфратузилма коррупцияга қарши кураш маркази (GIACC) ва бошқа таниқли халқаро ташкилотлар қурилиш соҳасида тўғридан-тўғри ёки билвосита коррупцияга қарши курашда фаол рол ўйнайди.

Коррупцияга қарши кураш бўйича асосий халқаро ҳуқуқий ҳужжатлардан бири Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши Конвенциясидир (UNCAC) [7]. 2003-йилда қабул қилинган ушбу шартнома коррупцияга қарши кураш бўйича ягона қонуний кучга эга, глобал ҳужжатдир. UNCAC коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш, халқаро ҳамкорликни ривожлантириш, давлат ишларида ҳалоллик ва жавобгарликни оширишга эътибор қаратади. UNCACнинг қурилиш саноатига тегишли асосий жиҳатлари қуйидагилар:

Турли хил коррупцион хатти-ҳаракатларни жиноийлаштириш: UNCAC қурилиш соҳасида долзарб бўлиши мумкин бўлган порахўрлик, ўзлаштириб олиш, мансабни суистеъмол қилиш ва ноқонуний бойиш каби кенг кўламли коррупцион ҳаракатларни жиноий жавобгарликка тортади.

Активларни тиклаш: Конвенция коррупциядан олинган активларни ундириш қоидаларини ўз ичига олади, бу маблағлар кейинги коррупцияни молиялаштириш учун ишлатилмаслигини таъминлаш учун жуда муҳимдир.

Халқаро ҳамкорлик: UNCAC коррупцияга қарши кураш бўйича халқаро ҳамкорликни, жумладан, экстрадиция, ўзаро ҳуқуқий ёрдам ва маълумотлар алмашишни рағбатлантиради, бу қурилиш соҳасидаги коррупцияни тергов қилиш ва таъқиб қилишда қимматли бўлиши мумкин.

Профилактика чоралари: UNCAC давлатларни коррупциянинг олдини олиш бўйича чора-тадбирларни амалга оширишга ундайди, масалан, ҳуқуқий ва институционал асосларни мустаҳкамлаш, шаффофлик ва жавобгарликни рағбатлантириш ва маълумот тарқатиш механизмларини яратиш.

Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (OECD)нинг порахўрликка қарши конвенцияси халқаро бизнес операцияларида хорижий давлат амалдорларининг порахўрликларини жиноий жавобгарликка тортади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Халқаро тижорат операцияларида коррупция ва порахўрликка қарши декларацияси халқаро операцияларда пора олишни тақиқловчи қонунларни қабул қилиш ва амалга оширишни талаб қилади.

Демак, UNCAC ва бошқа халқаро ҳужжатлардан қурилиш соҳасидаги коррупцияни бартараф этишда қандай фойдаланиш мумкин:

Коррупцияга қарши чора-тадбирларни амалга ошириш: Давлатлар UNCACдан коррупцияга қарши қонунлар ва сиёсатларни қабул қилиш ва амалга ошириш учун намуна сифатида фойдаланишлари мумкин.

Институтларни мустаҳкамлаш: Давлатлар коррупцияга қарши кураш бўйича агентликлари ва бошқа тегишли институтларнинг самарадорлигини оширишга ҳаракат қилишлари мумкин.

Ошкоралик ва жавобгарликни рағбатлантириш: Давлатлар давлат харидлари ва қурилиш лойиҳаларида шаффофликни таъминлаш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириши мумкин.

Халқаро ҳамкорлик: Давлатлар коррупция ҳолатларини тергов қилиш ва таъқиб қилиш, шунингдек, илғор тажриба ва техник ёрдам алмашиш учун бошқа мамлакатлар билан ҳамкорлик қилиши мумкин.

Хусусий сектор иштироки: Қурилиш соҳасидаги корхоналар коррупциянинг олдини олиш учун ахлоқ қоидалари ва ахлоқий амалиётларни қабул қилишга ундашлари мумкин.

Моҳиятан, UNCAC ва бошқа халқаро ҳужжатлар қурилиш соҳасида коррупцияга қарши курашиш учун кенг қамровли асос яратади, бунда унинг олдини олиш, ҳуқуқбузарликларни қўллаш ва халқаро ҳамкорликка урғу беради.

Қисқача қилиб айтганда, қурилиш соҳасида коррупцияга қарши курашишга қаратилган муҳим глобал шартнома ва кўрсатмалар сифатида санаб ўтилган OECD порахўрликка қарши конвенцияси – хорижий мансабдор шахсларнинг порахўрликларини жиноят деб ҳисоблашга асосий эътиборни қаратса, БМТнинг коррупцияга қарши конвенцияси – профилактика сиёсати, активларни қайтариб олиш, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларини мувофиқлаштириш чораларини таъкидлаб ўтади, Жаҳон банкининг харидлар бўйича кўрсатмалари – Молиялаштирилган лойиҳаларда мажбурий шаффофлик ва ахлоқ қоидалари рияз этилишини қайд этса, FIDIC шартномалари (2022 йилги янгиланишлар) – Коррупцияга қарши кураш ва аудит бўйича қатъий қоидаларни ўз ичига олади, ИСО 37001 - Порахўрликни бошқариш тизимларини – энг яхши жаҳон амалиётларини жорий қилиш учун сертификатланган стандартларни таклиф этади.

Бундан ташқари, қурилиш соҳасидаги коррупцияга қарши кураш борасида қатор халқаро ташкилотлар ва ташаббусларни ҳам қайд этиб ўтиш зарур.

Қурилиш ва муҳандислик соҳасида халқаро даражадаги коррупцияга қарши кураш бўйича бир қанча ташаббуслар қаторида қуйидагиларни санаб ўтиш мумкин:

Жумладан, *Transparency International* [8] коррупцияни идрок этиш индекси ва пора тўловчилар индексини нашр этади ва яхши амалиётлар ва қонунларга рияз қилиш воситаларини тарғиб қилиш учун бошқа ташкилотлар билан ҳамкорлик қилади.

Бутунжаҳон муҳандислик ташкилотлари федерацияси – The World Federation of Engineering Organizations (WFEO) [9] муҳандисларга коррупцияга қарши чиқиш ва фуқаролик жамияти ва бизнес бирлашмаларини маҳаллий коррупцияга қарши саъй-ҳаракатларга жалб қилиш имконини берадиган дастурга эга.

World Justice Project – Жаҳон адолат лойиҳаси [10]. Ушбу ташкилот асосий эътиборни қурилиш соҳасида коррупцияга қарши курашиш учун ўқитиш ва таълимга қаратади.

The Global Infrastructure Anti-Corruption Centre (GIACC) [11] – *Глобал инфратузилма коррупцияга қарши кураш маркази* қурилиш лойиҳаларида коррупциянинг олдини олиш ва аниқлаш учун *Project Anti-Corruption System (PACS)* [12] – лойиҳанинг коррупцияга қарши кураш тизими дастурини ишлаб чиққан бўлиб, у лойиҳанинг турли босқичлари ва иштирокчилари учун коррупцияга қарши мажбуриятлар, мустақил мониторинг, тегишли текширув, шаффофлик ва тренинглар каби турли модулли тизимларни таклиф этади.

International anticorruption academy (IACA) [13] – *Халқаро антикоррупция академияси* коррупцияга қарши курашиш учун таълим, ўқитиш ва техник ёрдам кўрсатишга эътибор қаратади.

United Nations Global Compact (UNGC) [14] – *Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Глобал Шартномаси*. БМТнинг ушбу ташаббуси коррупцияга қарши биргаликда курашишда

компанияларга ёрдам бериш учун коррупцияга қарши жамоавий ҳаракатлар бўйича ўқув китобини нашр этди.

Хусусан, мазкур шартноманинг ўнинчи тамойилида “Бизнеслар коррупциянинг барча кўринишларида, шу жумладан товламачилик ва порахўрлик билан курашишлари керак” деб таъкидланади [15]. Ушбу ташаббус корхоналарни коррупциянинг барча кўринишларида, жумладан, қурилиш соҳасида ҳам бартараф этиш сиёсати ва дастурларини ишлаб чиқишга чақиради.

Шунингдек, *Transparency International*нинг ҳалоллик пакти: давлат шартномаларида, жумладан, қурилиш лойиҳаларида коррупциянинг олдини олиш воситаси бўлган Integrity Растни ишлаб чиқди. Унда давлат органлари ва тендер иштирокчилари ўртасида порахўрлик ва тил бириктиришни тақиқловчи келишувлар мавжуд [16].

Бундан ташқари, бу борада *The ICC (International Chamber of Commerce)* [17] – *Халқаро Савдо Палатаси* Коррупцияга қарши кураш қоидаларининг 2023 йилги нашрида ички ва ташқи маълумот тарқатиш каналлари ҳуқуқбузарликларни фош этиш ва олдини олишда муҳим рол ўйнашини эътироф этиб, ҳисобот бериш механизмларини яратишга имкон берувчи қоидаларни кучайтиради. Янги қоидалар, шунингдек, корхоналарга таъминот занжирларида етказиб берувчилар ва агентлар томонидан юзага келадиган коррупция ва бошқа хавфларни бошқаришда ёрдам бериш учун учинчи томон иштироки ва бошқаруви бўлимини кучайтиради. ICC Коррупцияга қарши кураш қоидалари биринчи марта бизнеснинг масъулиятли хулқ-атворини рағбатлантиришни талаб қилади, чунки корхоналардан нафақат қонунларга риоя қилиш ва коррупцияга қарши курашиш, балки “зарарсиз яхшилик қилиш” мақсадини рағбатлантиришни қамраб олади [18].

ISSнинг коррупцияга қарши моддаси коррупциянинг олдини олиш ва томонлар ўртасидаги ишончни сақлаш учун тижорат шартномаларига киритилиши мумкин бўлган Коррупцияга қарши бандни таклиф қилади, хусусан унинг 10-моддаси ҳар бир корхона корхонанинг ишбилармонлик муҳитида дуч келадиган хатарларни вақти-вақти билан ўтказиладиган баҳолаш натижаларига кўра корхонанинг муайян шароитларига мослаштирилган ва коррупция ва тадбиркорлик маданиятини тарғиб қилишнинг олдини олиш ва аниқлаш мақсадида самарали корпоратив мувофиқлик дастурини амалга ошириши кераклиги таъкидлайди [19].

Бундан ташқари, Халқаро савдо палатасининг корхоналарда манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш бўйича кўрсатмалари манфаатлар тўқнашуви бўйича аниқ сиёсатни амалга ошириш ва ходимлардан бундай вазият юзага келиши биланоқ ўз менежери ёки мувофиқлик бўйича мутахассисга манфаатлар тўқнашуви ҳақида дарҳол хабар беришларини талаб қилиш, аниқ ички алоқа ва манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш бўйича тренинглар, компания раҳбарияти ахлоқий кадриятларга ва қонуний талабларга қатъий риоя қилишларини ва ҳар қандай қонунбузарлик ёки номувофиқлик интизомий жазога олиб келиши мумкинлиги ҳақида хабар бериш чораларини тавсия қилади [20].

CIECI (Construction industry ethics & compliance initiative) – *Қурилиш саноати этикаси ва мувофиқлик ташаббуси* самарали ахлоқ ва бизнес хулқ-атвори дастурини яратиш ва қўллаб-қувватлаш режасида қурилиш ташкилотларининг раҳбарлари ўрнатилган кўрсаткич, ходимлар компаниянинг ахлоқий меъёрларини тушунишларини таъминлаши, ходимларни компания сиёсатига риоя қилишга, саволлар ва коррупция хавфларни билдиришга ундайдиган маданиятни яратиш, пайдо бўлган хавфларга тўғри ва тезкор жавоб бериш, ходимлар одоб-ахлоқ кодексининг нусхасини олишларини таъминлаш, ходимларнинг талабга мувофиқ ўқитилиши ва сертификатланишини таъминлаш учун жавобгар бўлиши кераклигини таъкидлайди [21].

Partnering Against Corruption Initiative (PACI) of World Economic Forum - Жаҳон иқтисодий форумининг Коррупцияга қарши ҳамкорлик ташаббуси тамойиллари коррупциянинг барча кўринишларига тоқат қилмаслик, ахлоқий хулқ-атворни рағбатлантирадиган ва ижобий қўллаб-қувватлайдиган ички мажбуриятни шакллантириш, ташкилот манфаатдор томонлар билан ўзаро муносабатлар давомида шаффофликни таъминлаш, тарафлар фаолият юритадиган ва ўз бизнесларини амалга оширадиган юрисдикцияларда амалдаги қонунлар ва қоидаларга риоя қилиш ва бизнес ҳамкорларни ушбу ахлоқий меъёрларга риоя қилишга ундашни назарда тутати [22].

Хулоса қилиб айтганда, қурилиш ва муҳандислик соҳасида коррупцияга қарши халқаро ташаббусларнинг ўзига хос жиҳати лойиҳалар, хусусан, давлат харидлари соҳасида шаффоф ва очиқ шартномалар, мустақил назорат тизимини жорий этиш, коррупцияга қарши коллектив ҳаракатлар, қурилиш саноатининг коррупцияга қарши ўзига хос стандартлар ва амалиётларни ўрнатиш ва қўллаш, профилактика ва ахлоқий хулқ-атворни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилганлиги ҳисобланади.

Умуман олганда мазкур ташаббуслар қурилиш лойиҳаларини режалаштириш ва харид қилишдан тортиб то бажариш ва яқунлашгача бўлган бутун даврда шаффофлик, жавобгарлик ва ахлоқий хулқ-атворни тарғиб қилишга қаратилган.

Ҳозирги кунда жаҳондаги кўплаб давлатларда қурилиш соҳасидаги коррупциявий жиноятларга қарши курашиш амалиёти йўлга қўйилган. Чунки мазкур турдаги жиноятлар давлатнинг сиёсий, иқтисодий хавфсизлигига ҳамда қурилиш объектларининг сифати ва мустақамлигига таҳдид солади. Бу таҳдидлар ўз навбатида ушбу жиноятларга қарши курашиш чораларини кўришни тақазо этади.

Хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш қурилиш соҳасидаги коррупциявий жиноятларга жавобгарлик чоралари турли давлатларда ўзига хос хусусиятга эга эканлигини кўрсатади. Жумладан, Буюк Британиянинг коррупцияга қарши кураш қонуни қурилишда корпоратив коррупция жинояти учун жавобгарликка алоҳида эътибор қаратилганлиги билан ажралиб туради.

Зотан, Буюк Британиянинг 2011-йил 1-июлда кучга кирган “Пора тўғрисидаги қонуни” 2010 (“Bribery act 2010”), дунёдаги коррупцияга қарши энг жиддий қонунчилик деб топилган [23].

Пора бериш тўғрисидаги қонун Буюк Британияда ёки хорижда, давлат ёки хусусий секторда амалга оширилган операцияларни қамраб олади.

Ушбу қонуннинг энг муҳим жиҳатларидан бири шундаки, компаниялар ва ширкатлар, шунингдек, порахўрликнинг олдини ололмаганликлари учун тижорат ташкилотлари порахўрликнинг олдини олиш учун тегишли тартиб-қоидалар мавжудлигини исботлай олмасалар, қаттиқ жиноий жавобгарликка тортиладилар [24].

Яъни қонун билан порахўрликнинг олдини олмаслик учун корпоратив жавобгарлик белгиланган бўлиб, тижорат ташкилотлари, агар улар ёки унга алоқадор шахс бизнес ёки бизнес афзалликларини қўлга киритиш ёки сақлаб қолиш учун порахўрликка қўл урса, жиноий жавобгарликка тортилиши мумкин.

Агар тижорат ташкилотига алоқадор шахс тадбиркорлик ёки тижорат ташкилоти учун ишбилармонлик афзалликларини қўлга киритиш ёки сақлаб қолиш мақсадида шахсга пора берган бўлса, у ҳолда ташкилот “Порахўрлик тўғрисида”ги қонунга мувофиқ ҳуқуқбузарликда айбдор бўлиши мумкин ва чекланмаган миқдорда жаримага тортилиши мумкин. Бундан Британия ҳукуматининг мақсади шундаки, Буюк Британияда рўйхатга олинган орган (ёки Буюк Британияда тузилган шериклик), агар у қандай фойда олишидан қатъи назар, тижорат

фаолияти билан шуғулланса, “бизнесни юритиш” таърифи остида жавобгарликка тортилади. Тижорат ташкилоти Буюк Британияда рўйхатдан ўтган ёки ташкил этилган бўлиши шарт эмас, шунингдек, жиноят Буюк Британияда содир бўлиши шарт эмас: у Буюк Британияда ўз бизнесининг бир қисмини ёки бир қисмини олиб борган бўлса ҳам жиноят субъекти бўлиши мумкин.

Юқорида таъкидланганидек, агар тижорат ташкилоти порахўрликнинг олдини олиш бўйича “адекват тартиб-қоидалар” мавжудлигини исботлай олсагина қонуний ҳимояга эга бўлади. Корпорация томонидан порахўрликнинг олдини олиш бўйича тегишли тартиб-қоидалар мавжуд бўлмаса, корпорацияга алоқадор шахс порахўрликда айбланса, бу “Порахўрлик тўғрисида”ги қонуннинг 7(2) бўлимидаги ҳимоядан фойдалана олмаслигини англатади.

Қонуннинг яна бир ўзига хос жиҳати шундаки, қонун порахўрлик қаерда содир бўлишидан қатъи назар, Буюк Британия фуқаролари ва ташкилотларига нисбатан қўлланилади. Бу, шунингдек, Буюк Британия фуқароси бўлмаган шахслар ёки ташкилотларга, агар улар Буюк Британия билан алоқаси бўлса, яъни, Буюк Британияда бизнес юритиш ёки Буюк Британияда порахўрлик келишувининг бир қисми бўлса ҳам амал қилади.

Коррупциявий жиноятлар экстратерриториал жиноят эканлиги, хусусан, давлатимизга қурилиш соҳасига кенг қўламли инвестициялар жалб этилаётган, хорижий ташкилотлар улушлигида қурилиш ишлари олиб борилаётганлиги инобатга олган ҳолда ушбу ҳуқуқни қўллаш амалиётни жиноят қонунчилигимизда акс эттириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Бу борада Коррупцияга қарши кураш бўйича Истанбул ҳаракат режаси доирасидаги мониторингнинг 4-босқичи раунди яқунлари бўйича Ўзбекистонга тавсияларнинг 32-тавсияси 3,4-бандларида ҳам Жиноят кодексида бошқа давлат ҳудудида содир этилган коррупция жиноятлари тўғрисидаги ишлар бўйича а) Ўзбекистон фуқаросига ёки Ўзбекистон давлатига нисбатан тегишли мезонларни белгилаган ҳолда; б) чет ел фуқаролари ёки фуқаролиги бўлмаган шахслар томонидан Ўзбекистон фуқаролари билан ҳамкорликда содир этилган бўлса Ўзбекистоннинг юрисдикциясини белгилаш, шунингдек, хорижий мансабдор шахсларнинг порахўрлик ва бошқа коррупция жиноятлари бўйича ишлар бўйича универсал юрисдикцияни белгилаш, хусусан, жиноят содир этган шахснинг фуқаролигидан ёки содир этилган жойдан қатъи назар, бундай жиноятлар бўйича юрисдикцияни белгилаш имкониятини кўриб чиқиш тавсия этилган [25].

Таҳлилларга асосланган ҳолда қайд этиш лозимки, аксар хориж илмий адабиётлари ва қонунчилиги коррупцияга қарши курашишда аввало қурилиш компанияларининг ички ахлоқий муҳитининг муҳим аҳамиятини таъкидлайди. Чунки қурилиш майдончалари ҳар қадамда қимматбаҳо материаллар, асбоблар ва жиҳозларга эга бўлганлиги сабабли ўғирлик учун доимий нишон бўлиб келган.

Бунга мисол сифатида Буюк Британиянинг қурилиш лойиҳаларининг хавфсизлиги назорат қилиш бўйича онлайн иловани яратган Bouwatch компанияси томонидан ўтказилган “Кўринмас таҳдидлар: 2024 йилги қурилиш жиноятлари индекси” сўровномасида иштирок этган 500та қурилиш майдончаси ишчиларидан учдан икки қисми (62%) сўнгги йилда (2023) жиноят ҳолати ўсганини тасдиқлаган. Респондентларнинг тахминан 70 фоизи йилига камида бир марта воқеа жойида ўғирлик гувоҳи бўлганликларини тасдиқлаган ва бешдан бир қисми (19%) буни бир неча ойда бир марта бошдан кечиришларини айтишган. Ажабланарлиси шундаки, ҳар уч кишидан бири уларга “юк машинаси орқасидан нарсаларни сотиш” истагида бўлган одамлар мунтазам равишда мурожаат қилишганини билдиришган [26].

Шунинг учун ҳам қурилиш ташкилотларида ходимларнинг маънавиятини мустаҳкамлаш коррупцияга қарши курашда муҳим аҳамиятга эга. Кучли маънавият билан таъминланган ижобий ва ахлоқий иш муҳити коррупцион амалиётлардан тўхтатувчи восита бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ходимларнинг маънавиятини мустаҳкамлаш коррупцияга қарши курашда муҳим стратегия ҳисобланади. Ижобий ва ахлоқий иш муҳити ҳалоллик маданиятини ривожлантиради, пировардида қурилиш ташкилоти ва бутун саноатни коррупциянинг зарарли таъсиридан ҳимоя қилишга ёрдам беради.

Ўрганишлар шуни кўрсатадики, халқаро тажрибада хорижий давлатларнинг айрим жиноий кодексларининг ижобий жиҳатларидан бири коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларнинг алоҳида бўлим (боб)га ажратилганлигидир. Ёки алоҳида моддада қурилиш соҳасидаги жиноят учун жавобгарликни белгиланганидир.

Мисол учун, Молдова Республикасининг жиноят кодексида паст сифатли қурилиш учун жиноий жавобгарлик белгиланган бўлиб, сифатсиз, тугалланмаган ёки режалаштирилган талабларга жавоб бермаган ҳолда қурилиш ишлари олиб борилганлиги учун қурилиш ташкилотлари раҳбарлари, қурилиш объектлари раҳбарлари ва қурилишни назорат қилувчи масъул мансабдор шахсларнинг жавобгарлигини белгилайди ва бундай ҳаракатлар шахснинг ўлимига сабаб бўлса, 5 йилдан 10 йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади ва муайян фаолият ёки юридик шахснинг тугатилишини назарда тутаяди [27].

Иқтисодий жиҳатдан кучли ривожланган айрим Ғарб давлатларининг тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатадики, ушбу мамлакатларда қурилиш соҳасида порахўрлик, фирибгарлик ва бошқа коррупцион амалиётларга қаратилган коррупцияга қарши махсус қонунлар, аниқ жиноятлар, жазолар ва тергов ва таъқиб қилиш тартиблари муҳим ҳисобланади.

Бунга мисол сифатида Германия парламенти томонидан 2017 йилнинг июл ойида қабул қилинган коррупция реестрини жорий этиш (a law to introduce a corruption register – WregG [28]) тўғрисидаги қонунни келтириш мумкин.

Коррупция реестри тўғрисидаги қонун давлат қурилиши лойиҳаларини компанияларга беришни тартибга солиш ва коррупциянинг олдини олишга қаратилган бўлиб, коррупцияга қарши курашиш ва давлат харидларида адолатли рақобатни ривожлантириш мақсадини кўзлайди. Унга кўра, пул ювиш, давлат секторидаги фирибгарлик, порахўрлик ва тадбиркорлик фаолиятидаги коррупция ва имтиёзлар бериш каби айрим жиноий ҳуқуқбузарликларни содир этганлиги туфайли давлат шартномаларидан четлаштирилган корхоналар реестрини белгилайди. Қонунга мувофиқ, пудратчи ташкилот келгусида шартномани тузишдан олдин шартноманинг тахминий қиймати 30 000 евродан ошса, шартнома топширилиши керак бўлган номзод ҳақида рўйхатга олиш органига сўров юбориши шарт. Ушбу реестр пудратчи органларга ишончсиз иштирокчиларни осонгина аниқлаш ва чиқариб ташлаш имконини беради, бу эса фақат ишончли қурилиш компанияларга давлат шартномалари берилишини таъминлайди.

Германиядаги қурилиш соҳасида коррупцияни олдини олишга қаратилган қонуний тартиблардан бири 2023-йил 2-июлдан бошлаб камида 250 нафар ходими бўлган компаниялар учун коррупция ҳақида ички хабар бериш тизимини ўрнатиш мажбурияти ўрнатилганлигидир. “Маълумотлар тарқатувчини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонуннинг 40-бандига кўра, тегишли мажбуриятга қарамай, ички хабар бериш тизимини йўлга қўймаслик маъмурий ҳуқуқбузарлик ҳисобланади ва 2000 евро миқдоридан жаримага тортилиши мумкин [29].

Германия қонунчилигининг яна бир эътиборга молик жиҳати шундаки, коррупцияга оид жиноятлар жиноят кодексининг 26-боби “Рақобатга қарши жиноятлар” ва 30-боби “Давлат лавозимларида содир этиладиган ҳуқуқбузарликлар” сифатида акс этган бўлиб, хусусан

298-моддага биноан келишувли тендер ўтказганлик учун 5 йилдан ортиқ бўлмаган қамоқ ёки жарима жазоси тайинланади [30].

Осиё мамлакатлари орасида Хитой Халқ Республикаси ҳам бу борада кўп жиҳатдан ўрнак бўла олади. Чунончи, Хитой жиноят қонунчилигининг фарқли жиҳати коррупциявий жиноятлардан ташқари, кодекснинг 9-бобида мажбуриятни бажармаслик жиноятлари акс этган бўлиб, 410-моддага кўра, ўз мансабини суистеъмол қилиш йўли билан шахсий манфаатларни кўзлаб, қонунбузарликлар содир этган, **ерни ўзлаштириш, реквизиция қилиш ёки эгаллаб олишга розилик берган давлат органининг мансабдор шахси**, агар давлат мулки бўлган ердан асосиз паст баҳога фойдаланиш ҳуқуқини берган бўлса, 3 йилдан ортиқ, агар манфаатдор давлат ёки жамоа манфаатларига ўта оғир зиён етказилган бўлса, айбдорга нисбатан 3 йилдан кам бўлмаган, лекин 7 йилдан ортиқ бўлмаган муддатга озодликдан маҳрум қилиш билан жазо чорасини назарда тутати [31].

Хулоса қилиб айтганда, қурилиш соҳасида коррупцияга қарши кураш борасидаги илғор ижобий тажрибадан унумли фойдаланган ҳолда миллий қонунчилик ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш ҳамда коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Ушбу тажрибалар асосида миллий қонунчиликка халқаро стандартлар, хусусан UNCAC, OECD, ISO37001 меъёрларини интеграция қилиш, коррупция хавфи юқори бўлган қурилиш лойиҳаларига Integrity Pact, PACS каби шаффофликни таъминловчи механизмларни жорий этиш, жиноят кодексида коррупцияга оид хатти-ҳаракатларга нисбатан қатъий жавобгарлик чораларини белгилаш, давлат шартномалари ва қурилиш лойиҳаларида коррупцияга қарши махсус шарт-бандлар мавжудлигини таъминлаш, қурилиш ташкилотларида ходимлар учун этик тренинглар ҳамда комплаэнс тизимларини яратиш, аудит, мониторинг ва жамоатчилик назоратини кучайтириш орқали коррупцияга нисбатан “нол бардошлик” сиёсатини шакллантириш соҳада коррупцияга қарши курашишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга деб ҳисоблаймиз.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Глобал коррупция ҳисоботи (Global Corruption Report) Transparency Internationalнинг энг муҳим нашри бўлиб, коррупцияга қарши ҳаракат тажрибасини муайян коррупция муаммоси ёки сектори бўйича олиб боради. Ҳар йили ҳисобот маълум бир секторга эътибор қаратади ва бутун дунё бўйлаб ушбу секторда коррупциянинг тарқалишини ўрганади. 2005 йилги Глобал коррупция ҳисоботи қурилиш секторидаги коррупцияга эътибор қаратди.

2. Transparency International's Global Corruption Report 2005. URL: <https://www.transparency.org/en/press/a-world-built-on-bribes-corruption-in-construction-bankrupts-countries-and>

3. Sohail, M., & Cavill, S. (2008). Accountability to prevent corruption in construction projects. *Journal of Construction Engineering and Management*, 134(9), 729–738.

4. Gunduz, M., & Önder, O. (2013). Corruption and internal fraud in the Turkish construction industry. *Science and Engineering Ethics*, 19(2), 505–528.

5. Hartley, R. (2009). Fighting corruption in the Australian construction industry: The National Code of Practice. *Leadership and Management in Engineering*, 9(3), 131–135.

6. Hawkins, J., & McKittrick, B. (2012). Construction sector transparency initiative: Making construction more accountable. *Proceedings of the Institution of Civil Engineers – Management, Procurement and Law*, 165(2), 82–88.

7. UNITED NATIONS CONVENTION AGAINST CORRUPTION. URL: https://www.unodc.org/documents/brussels/UN_Convention_Against_Corruption.pdf

8. Transparency International the global coalition against corruption. URL:<https://www.transparency.org/en/>
9. The World Federation of Engineering Organizations (WFEO)/ URL:<https://www.wfeo.org/>
10. The World Justice Project (WJP). URL:<https://worldjusticeproject.org/>
11. The Global Infrastructure Anti-Corruption Centre (GIACC). URL: <https://giaccentre.org/>
12. Project Anti-Corruption System (PACS). URL:<https://giaccentre.org/pacs-overview/>
13. International anti-corruption academy. URL: <https://www.iaca.int/>
14. United Nations Global Compact. URL:<https://unglobalcompact.org/>
15. The Tenth Principle of the UN Global Compact. URL:<https://unglobalcompact.org/what-is-gc/our-work/governance/anti-corruption>
16. Programmatic approaches to address corruption in the construction sector. URL:<https://www.u4.no/publications/programmatic-approaches-to-address-corruption-in-the-construction-sector.pdf#:~:text=Developed%20by%20Transparency%20International%2C%20the%20Integrity%20Pact,the%20contract%20or%20while%20carrying%20it%20out.>
17. International Chamber of Commerce (ICC). URL:<https://iccwbo.org/>
18. ICC (2023), ICC Rules on Combating Corruption. URL: <https://iccwbo.org/wp-content/uploads/sites/3/2023/12/2023-ICC-Rules-on-Combating-Corruption-1.pdf>
19. https://2go.iccwbo.org/downloadable/download/pdf/product_id/229/
20. ICC GUIDELINES ON CONFLICTS OF INTEREST IN ENTERPRISES. URL:<https://iccwbo.org/wp-content/uploads/sites/3/2018/08/icc-conflicts-of-interest-guidelines-july-2018.pdf>
21. BLUEPRINT LUEPRINT FOR CREATING REATING AND MAINTAINING AINTAINING AN EFFECTIVE FFECTIVE ETHICS & BUSINESS USINESS CONDUCT PROGRAM. URL: <https://cieciprod-9b217d080945d1c700f0-endpoint.azureedge.net/wp-content/uploads/2022/05/Blueprint.pdf>
22. Partnering Against Corruption Initiative Global Principles for Countering Corruption. URL:https://www3.weforum.org/docs/WEF_PACI_Global_Principles_for_Countering_Corruption.pdf
23. Confronting corruption in the construction industry. URL:<https://perspectives.bclplaw.com/confronting-corruption/construction-industry-corruption-in-the-uk-us-uae-hong-kong-saudi-arabia-and-singapore/>
24. Bribery Act 2010.
25. URL:<https://www.lawsociety.org.uk/topics/regulation/bribery-act-2010>
26. Коррупцияга қарши кураш бўйича Istanbul ҳаракат режаси доирасидаги мониторингнинг 4-босқичи. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2019/03/anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_c913fdbb/22f7e1eb-ru.pdf
27. Unseen Threats: 2024 Construction Crime Index. URL:<https://www.bauwatch.com/app/uploads/sites/5/2024/01/BauWatch-UK-Crime-Index-2024.pdf>
28. THE CRIMINAL CODE OF THE REPUBLIC OF MOLDOVA. URL:https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/criminal-code-of-the-republic-of-moldova_html/Republic_of_Moldova_Criminal_Code.pdf
29. “Оммавий шартномалар ва концессиялар бўйича рақобатни ҳимоя қилиш реестрини ташкил этиш ва юритиш тўғрисида”ги Қонун. URL:<https://www.gesetze-im-internet.de/wregg/WRegG.pdf>
30. Q&A: construction regulation and compliance in Germany. URL:<https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=9636ae9f-f2cb-4c25-9e25-29a3d460d527>
31. German Criminal Code. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p2682
32. Criminal law of the people’s republic of China. URL: https://en.spp.gov.cn/2020-12/26/c_948417_14.htm.

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON, 6-JILD

ВЕСТИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 6

LAWYER HERALD

VOLUME 6, ISSUE 4

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416